

BELARUS-O'ZBEK

ILMIY-METODIK JURNALI

Белорусско-Узбекский научно-методический журнал
Belarusian-Uzbek scientific and methodological journal

Muassis:
GRI tadqiqot instituti

2024
4-son

Jurnal 2021-yil iyul oyidan chiqa boshlagan

O'zMAA tomonidan 2021-yil 3-sentabrda ro'yxatga olinib, 1157-raqamli guvohnoma berilgan, 15 iyul 2024 yil №320109-sonli guvohnoma asosan jurnal muassisi GRI tadqiqot instituti belgilangan.

Свидетельство о государственной регистрации №1157 от 09.03.2021 выдано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента РУз.

OAK Rayosatining 2023 yil 30 sentabrdagi 343/2-son qaroriga asosan PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy natijalar bo'yicha dissertasiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

В соответствии с постановлением Президиума ВАК №343/2 от 30 сентября 2023 года журнал включен в список национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций на соискание ученых степеней докторов философии (PhD) и докторов наук (DSc) по педагогическим наукам

Xalqaro ilmiy-metodik jurnal
Международный научно-методический журнал
International scientific and methodical journal

TOSHKENT

MUNDARIJA

| | |
|---|----|
| Bagbekova Laylo Kadirbergenovna KOMPYUTER GRAFIKASI – TA'LIM JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VOSITASI..... | 4 |
| Отажонова Мафтуна Султонмуродовна ЎҚУВЧИЛАРНИНГ АЛТРУИСТИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ | 8 |
| Набиулина Луиза Махмудовна, Таджимуратова Азиза Садуллаевна ВИЗУАЛИЗАЦИЯ УЧЕБНОЙ ИНФОРМАЦИИ ПРИ ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛЬНЫМ ДИСЦИПЛИНАМ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ | 13 |
| Салоҳиддинова Ғазалхон Бекмирзаевна ОИЛАЛАРДА ЎСМИР ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШДА ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ ИНСТИТУТЛАРИНИНГ ПЕДАГОГИК ҲАМКОРЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ | 18 |
| Muratova Nozima Xabibullaевна NOTO'LIQ OILADA VOYAGA YETAYOTGAN FARZANDLARNI IJTIMOY HAYOTGA MOSLASHTIRISH VA ULARGA KO'MAKLASHISH..... | 23 |
| Khusanov Nodirjon Djumanazarovich O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTIGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO'LLARI | 27 |
| R.Madiyarova O'QUVCHILARDA MA'NAVİY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA BADIY SAN'ATINING AHAMIYATI | 33 |
| Исмадияров Я.У., Рахиммирзаев С.Б., Набиулина Л.М., Матназарова М.Б., Бегатов Ж.М. СДЕРЖИВАЮЩИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ ИНТЕРНАЦИОНАЛИЗАЦИИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ | 37 |
| Тўлаганова Нигора Раҳмонали қизи ОИЛА, МАҲАЛЛА ВА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ҲАМКОРЛИГИДА ЎСПИРИН ҚИЗЛАРДА КРЕАТИВ ТАДБИРКОРЛИК КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ..... | 44 |
| Pardaev Zafar O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISH TIZIMI VA TARKIBIY KOMPONETLARI..... | 48 |
| Saliboyeva Bibi Robiya Odilovna NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TRANSVERSAL KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI | 51 |
| Voxobova Munira Sadrudinovna NUTQ NUQSONIGA EGA BOLALARGA TA'LIM BERISHDA OLIB BORILADIGAN LOGOPEDIK ISHLAR | 54 |
| Xolliyeva Maftuna Baxtiyor qizi MILLIY URF-ODAT, QADRIYAT VA AN'ANALAR — TARBIYA ASOSI..... | 58 |
| Ismoilova Marhabo Boysarovna “MAHBUB UL-QULUB” ASARINING YOSHLAR ONGIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI MASALALARI..... | 65 |
| Umarov Lutfillo Murodilloyevich MAKONIY YONDASHUV ASOSIDA UZLIKSIZ TA'LIMNI LOYIHALASH TEXNOLOGIYASI | 69 |
| Parmonova Laylo Ilxomovna SHAXS HISSIY BILISH VA HARAKAT BIRLIGI JARAYONI – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA..... | 78 |
| Nabiyev G. A. THE ROLE OF EDUCATIONAL MANAGEMENT IN THE GLOBAL ECONOMY | 82 |
| Bobomuxamedova Sh. A. PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA DASTURLASHNI O'QITISHDA ZAMONAVIY USULLARDAN FOYDALANISH | 86 |

| | |
|---|-----|
| Muhammadiyeva Shohsanam Mansur qizi | |
| PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA DASTURLASHNI O'QITISHDA ZAMONAVIY USULLARDAN FOYDALANISH | 92 |
| Жамединова Венера Кулановна | |
| АНАЛИЗ СОМАТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С КОМПОНЕНТОМ «РУКА» В РУССКИХ ПАРЕМИЯХ О ТРУДЕ..... | 97 |
| Каллибекова Наргиза Турсынбай-кызы | |
| СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЕСТЕСТВЕННОГО И ИСКУССТВЕННОГО БИЛИНГВИЗМА: КОГНИТИВНЫЕ И СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ | 102 |
| Fayziyeva M.X. | |
| PSIXOLOGIK NIHOYANING IJTIMOY OMILLARI | 111 |
| Уразова Марина Батыровна, Жамолдинова Одинахон Расуловна | |
| АСПЕКТЫ ТОЛЕРАНТНОСТИ В ТРУДАХ МЫСЛИТЕЛЕЙ ВОСТОКА | 118 |
| Usmonova Oyistaxon Yuldashaliyevna | |
| ALABALARNI IJODIY MATN YARATISHGA O'RGATISH USULLARI..... | 123 |
| Izzatullayev Azizbek Renatulla o'g'li, Alimjonova Sitara Yashin qizi | |
| DZYUDOSHILARNING MASHG'ULOT JARAYONIDA ORGANIZMDAGI GORMONLARNING TA'SIRINI O'RGANISH | 128 |
| Арипджанова Альфия Равильевна | |
| ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОНЯТИЕ РИСКА В ОБРАЗОВАНИИ | 136 |
| Матназарова Мехрибон Бахтияровна | |
| ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНАЯ МОБИЛЬНОСТЬ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ: КОМПОНЕНТНАЯ СТРУКТУРА И ЕЕ ЗНАЧЕНИЕ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ..... | 141 |
| Исмадияров Яшин Уткирович | |
| КОМПЕТЕНЦИИ ДЛЯ ИНДУСТРИИ 4.0: ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ НОВЫХ НАВЫКОВ ... | 141 |
| Хакимова Барно Муратовна | |
| АНАЛИЗ СУЩЕСТВУЮЩИХ МЕТОДИК ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ..... | 154 |
| Saxibov Alijon Xudoykulovich | |
| РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА ЎҚИТИШ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ИМКОНИАТЛАРИ | 160 |

KOMPYUTER GRAFIKASI – TA'LIM JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VOSITASI

Bagbekova Laylo Kadirbergenovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, PhD, v.b.dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada kompyuter grafikasi imkoniyatlari, turlari, turkumlari va ta'lim jarayonida kompyuter grafikasidan foydalanish samaradorligi, shu bilan birga talabalarning fanga nisbatan qiziqishlarini orttirishda va ularga mashg'ulotlarning yanada tushunarililigini ta'minlashda kompyuter grafikasi imkoniyatlari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kompyuter, grafika, axborot, kompyuter grafikasi, vektorli grafika, fraktal grafika, rastri grafika, grafik obyekt, fayl, tasvir, geometrik, jismlar, shakl, matematik model, axborot texnologiyalari, informatika.

КОМПЬЮТЕРНАЯ ГРАФИКА – ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Багбекова Лайло Кадирбергеновна

*Ташкентский государственный педагогический университет имени
Низами, PhD, и.о.доцента*

Аннотация. В данной статье раскрыты возможности, виды, категории компьютерной графики и эффективность использования компьютерной графики в учебном процессе, а также возможности компьютерной графики в повышении интереса учащихся к предмету и обеспечении более понятного объяснения занятий.

Ключевые слова: компьютер, графика, информация, компьютерная графика, векторная графика, фрактальная графика, растровая графика, графический объект, файл, изображение, геометрические объекты, форма, математическая модель, информационные технологии, информационные технологии.

COMPUTER GRAPHICS - A TOOL FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF THE EDUCATIONAL PROCESS

Bagbekova Laylo Kadirbergenovna

*The associate professor of Tashkent state pedagogical university after named
Nizami, PhD*

Abstract. This article shows the possibilities, types, categories of computer graphics and the effectiveness of using computer graphics in the educational process, as well as the possibilities of computer graphics in increasing students' interest in science and providing them with a better understanding of training.

Key words: computer, graphics, information, computer graphics, vector graphics, fractal graphics, raster graphics, graphic, file, image, geometric objects, shape, mathematical model, information technology, information technology.

Mamlakatimizda davr talabidan kelib chiqqan holda, barcha sohalarga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yosh avlodni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi

etib tarbiyalash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimini jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish ustuvor vazifa qilib belgilangan. Bu xususda, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "...oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish" [1] masalasi nazarda tutilgan.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasiga ham kundan kun yangi o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlarning kirishi soha mutaxassislariga katta ma'suliyat yuklamoqda. Chunki, bo'lajak mutaxassisga zamonaviy jahon standartlari talablariga mos keladigan bilimlarni berish, ularni mustaqil fikrlaydigan, o'z sohasining yetuk mutaxassisi sifatida tayyorlashda o'qituvchilarning o'rni benihoya kattadir. Bu, o'z-o'zidan o'qituvchilarni izlanishga, o'z ustida tinmay mehnat qilishga, yangiliklarni tez o'zlashtirib, talabalarga yetkazishlarida sidqidildan mehnat qilishlarini talab etadi. Ayniqsa, axborot texnologiyalari sohasida kundan-kunga ko'payib borayotgan axborotlarni bo'lajak mutaxassislarga yetkazish, ularni tez o'zlashtirishga yo'naltirish va yoshlarga yetkazishlari uchun lozim bo'lgan bilimlarni to'la, mukammal egallagan va ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari shartdir.

Ta'lim tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalar tatbiq etilsa, o'quv jarayonini olib borish yanada takomillashib, talabalarning chuqur bilim olishlari uchun yanada ko'proq imkoniyatlar yaratiladi.

Bugungi kun va zamon talabidan kelib chiqqan holda axborot texnologiyalari sohasining zamonaviy yo'nalishlaridan biri bu kompyuter grafikasidir. Kompyuter grafikasining qo'llanish ko'lami juda keng bo'lib, avvalom bor ushbu sohani vizualligi diqqatga sazovordir. Ya'ni kompyuter grafikasida tasvir asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shu sababdan, kompyuter grafikasi yo'nalishi har bir soha bilan uzviy bog'lanib, unga bo'lgan ehtiyoj tobora oshib borayotganligi aniq.

Ma'lumki axborot almashinuvida insonning ko'rish sezgi organi yordamida qabul qilingan axborot eng samarali qabul qilinadi va u xotirada ham chuqur iz qoldiradi. Ammo axborot almashinuvi nafaqat so'zlar va tovushlar, balki tasvirlar, ranglar va shakllar bilan ham amalga oshiriladi. Buning yorqin dalili sifatida turli xil kitoblar, daftar va jurnallar muqovalari, ko'chalar yoqasida va binolar peshtoqida ilingan reklamalar, ommaviy axborot vositasi bo'lgan televideniya orqali uzatilayotgan turli xildagi kinolar, kliplar va boshqa ijtimoiy-madaniy ko'rsatuvlar, gazeta va internet orqali berilayotgan manbalarning naqadar did bilan ishlanganligi, uyali aloqa vositalarining platformalarida ham ko'rishimiz mumkin.

Kompyuter grafikasini bugungi kundagi muammolarini tadqiq qilish, grafik dasturlarning imkoniyatlari orqali bilim va ko'nikmalarni shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish, mutaxassislar tayyorlash jarayonida har bir soxaga o'ziga xos grafik dasturlarning imkoniyatlaridan to'la foydalanishni amalga oshirishni ta'minlaydi. Hozirgi kunda ta'limning mazmuni va sifati masalalari jamiyatda ustuvor yo'nalish sifatida qaralib, dunyoning rivojlangan mamlakatlari ta'lim tizimida aynan kompyuter grafikasidan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, ta'limga kompyuter grafikasi va uni o'qitishni joriy etish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar takomillashtirilmoqda. Xususan, respublikamizda kompyuter grafikasi fanini o'qitilishini yo'lga qo'yish bo'yicha T.Rixsiboyev, A.Eminov, E.I.Ro'ziyev, Sh.Dilshodbekov, U.Nasritdinovlarning tadqiqot ishlarini ko'rish mumkin. Shuningdek, kompyuter grafikasini yevropa mamlakatlari ta'lim tizimidagi rivojlanish darajalarini V.Arefeva, I.Grigoreva, V.Koreshkov, A.Kostnikov, O.Kraynova, M.Matveeva, L.Nodelman, L.Pavlova, Yu.Pritula, Ye.Tretyakova, L.Turanova, A.Blaus, G.Vinogradova, J.Djanabaev, N.Yadgarov, A.Kamenev, G.Baydraxmanova, K.Ovchinnikovalar tomoni-

dan kompyuter grafikasini o'qitishni metodik tizimini loyihalash bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni misol qilib keltirish mumkin [3].

Kompyuter grafikasi – bu avvalo keng tarqalib borayotgan dastur ta'minotidir, ya'ni kompyuter grafikasi mavjud va yangi yaratilayotgan dasturlarga tayanadi. U hatto dasturlarning o'ziga zeb berishda ham juda keng qo'llaniladi. Uning rivojlanishi jarayonlarning real uch o'lchovli fazoda qanday kechishini aniq tasvirlash imkoniyatini yaratdi. Shuning uchun hozirda shunday amaliy dasturlar paketlari mavjudki, ular yordamida ko'rilayotgan masalaning asosiy parametrinigina bergan holda uning yechimi natijasi grafik shaklda olinishi mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, kompyuter grafikasi turli hil chizmalarni kompyuter yordamida soddadan murakkabgacha bo'lgan ko'rinishda tasvirlash usuli [2].

Hozirgi kunda kompyuter grafikasining qo'llanish sohalari ancha kengaydi, ya'ni uni keng tadbiiq qilish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Natijada kompyuter grafikasi faoliyati dasturlash va kompyuter texnikasi bilan bog'liq bo'lmagan mutaxassislarining ish vositasiga aylandi.

Kompyuter grafikasi ilm va fanning barcha sohalarida, ayniqsa iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishda muvaffaqiyatli qo'llanishi mumkin.

Berilgan ma'lumotlarni tahlil qilishda, olingan natijalarni ko'rgazmali tarzda ko'rsatish va taqdimot (prezentatsiya) uchun materiallar tayyorlashda, tasvirlarni qayta ishlashda, yangi murakkab kompozitsiyalar yaratishda zamonaviy kompyuter grafikasi keng qo'llaniladi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida kompyuter grafikasini o'qitishda talabalarni fanga nisbatan maqsadli harakatlarini shakllantirish va shu orqali biror bir natijaga erishish mumkinligini singdirishda, kerakli pedagogik va psixologik vositalarni amalda qo'llash va ularni ilmiy asoslash muhimdir. Shu nuqta nazardan, kompyuter grafikasi nafaqat ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda vosita bo'lib hizmat qiladi, balki foydalanuvchini bu yo'nalishni qo'llanilish soxalari bo'yicha bilim, ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Kompyuter grafikasining quyidagi qo'llanilish soxalarini keltirish mumkin:

Tijoratga oid grafika elektron jadvallarda yoki berilgan bazasidagi axborotlarni aks ettirish uchun xizmat qiladi. Bu axborotlar kompyuter monitor ekranida grafik, gistogramma, diagramma va xohlagan boshqa ko'rinishlarda aks ettirilishi mumkin. Bunda grafikalar matn izohlari va ma'lum joylarda shartli belgili izohlar bilan ta'minlanadi.

Namoyish qilish grafikasi – matn, sxema, eskiz kabi hujjatlarning mashinaviy tasvirini hosil qilib uni namoyish etishga tayyorlash uchun xizmat qiladi. Bu yerda eng asosiy vazifa – yuqori sifatli va chiroyliko'rinishdagi tasvirlar hosil qilishdan iborat. Bu turdagi grafikaning eng afzal tomoni shundaki, undagi tasvirlar to'plami va ko'rinishini o'zgartirish mumkin.

Muhandislik (injenerlik) grafikasi – bunday grafika chizmachilik, loyihalash va konstruktorlik ishlarini avtomatlashtirishda keng qo'llaniladi. Injenerlik grafikasi analiz, sintez, modellashtirish, chizmachilik, boshqarish va shu kabi loyihalash ishlarini avtomatlashtirishning hamma bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Ilmiy grafika – ilmiy izlanishlar uchun xizmat qiladi va geografik, fizik, biologik va boshqa jarayonlarni tadqiq qilishda qo'llaniladi. Ilmiy grafikaning eng asosiy maqsadi ilmiy izlanishlarda hosil bo'ladigan axborotlarni vizuallashtirish – ko'zga ko'rinarli shaklda ifodalashdir. Shuningdek, ilmiy izlanishlar natijalarini kerakli shaklda diagrammalar, haritalar, jadvallar va turli matematik formulalar shaklida tasvirlashda ishlatilishi mumkin.

Ko'rgazmaviy grafika – namoyish va tijorat grafikalarining rivoji bo'lib, shu ikkala grafika imkoniyatlarining yig'indisini tashkil etadi. Bu grafika ayrim grafikalarni slaydlar ketma – ketligidan iborat slaydfilm qilib yaratib, so'ngra uni ma'lum vaqt ichida ekranda ketma – ket ko'rgazma shaklida namoyish etadi. Har bir slaydning ekrandagi tasviri ovoz va vizual effektlar bilan qo'shib olib borilishi mumkin. Bundan tashqari, tayyor grafikni

tahrir qilish imkoniyati ham mavjud.

Animatsion grafikada - rang bilan ishlashdagi muvaffaqiyatlar muhandislik grafikasidagi uch o'lchovli obyektlarni modellashtirishdagi yutuqlar bilan (masalan reklama e'lonlari va teleko'rsatuvdagi bir tasvir ichiga ikkinchisini kiritish) qo'shib uyg'unlashtirilgan.

Mashina grafikasi – bu kompyuter yordamida obyekt shakllari, uning modelini yaratish va saqlash uchun xizmat qiluvchi kompyuter grafikasining bir bo'limi. Kompyuterda turli grafik tasvirlarni hosil qilish mumkin, biroq ular bir – biridan farqlanadi, chunki hozirgi zamon kompyuterlari o'tgan asrning 90 – yillaridagi tizimlarga nisbatan shakllarni aniq tasvirlash imkoniyatiga va maxsus dasturlar bilan kengaytiriladigan tizimlarga ega.

Inrefaol grafika – kompyuter grafikasining eng asosiy bo'limlaridan biri bo'lib, unda foydalanuvchi tasvirni dinamik boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi, ya'ni tasvirning shakli, o'lchamlari va monitor yuzasidagi ranglarni o'zaro ta'sir qiluvchi moslama (klaviatura yoki sichqoncha) yordamida boshqaradi. Bu o'z navbatida foydalanuvchini hushyor va sezgir bo'lishini talab etadi. Shu bilan, foydalanuvchini aqliy salohiyatini oshirishga yordam beradi [4].

Kompyuter grafikasining asosiy maqsadi, barcha fan sohalarini kompyuter texnologiyalari borasida integratsiyasini amalga oshirish va buni natijasida bo'lajak mutaxassislarni turli grafik dasturlarning imkoniyatlaridan foydalanib, amaliy natijalarga erishishlarini ta'minlashdan iboratdir.

Ta'lim tizimida kompyuter grafikasidan foydalanish samarasi yuzasidan olib borilgan kichik ilmiy tadqiqot natijasida shuni aytish mumkinki, kompyuter grafikasini bugungi kundagi muammolarini tadqiq qilish, grafik dasturlarning imkoniyatlaridan foydalanib, talabalarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish, mutaxassislar tayyorlash jarayonida har bir soxaga o'ziga xos grafik dasturlarning imkoniyatlaridan to'la foydalanishni amalga oshirishni pedagogik asoslarini ishlab chiqish, bu jarayonning psixologik-pedagogik sharoitlarini aniqlash va uning sifatini belgilovchi mezonlarini asoslash, uni o'qitishda grafik dasturlarning imkoniyatlaridan foydalanib, talabalarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyasini yaratish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son farmoni LEX.UZ/DOCS/4545884
2. Nasritdinova U.A. Kompyuter grafikasi fanini o'qitishda uch o'lchamli modellashtirish vositasidan foydalanish metodikasi//Diss.ped.fan.nom. – Toshkent, 2018.
3. Bagbekova L.K. Ommaviy ochiq onlayn kurslar vositasida kompyuter grafikasini o'qitish metodikasini takomillashtirish//Diss.p.f.f.d.(PhD) Toshkent-2023
4. Bagbekova L.K. Kompyuter grafikasining zamonaviy asoslari va tushunchalari// Masofaviy ta'lim makonini takomillashtirishda axborot resurslari va texnologiyalari integratsiyasi va didaktik ta'minoti//Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiali// Toshkent 2020
5. Bagbekova L.K. "Kompyuter grafikasi" fanidan elektron o'quv qo'llanma//№ DGU 19113. 2022 y
6. M.R.Fayziyeva, L.K.Bagbekova Kompyuter grafikasi O'quv qo'llanma. Toshkent-2022. 8.75 b.t. 128b.
7. L.K.Bagbekova Ta'lim jarayonini raqamlashtirishda kompyuter grafikasini o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў Ilmiy-metodik jurnal Nukus-2023 №5/3
8. F.F.Meliyev, U.J.Asqarov, J.M.Maxmudov "Kompyuter grafikasi" CorelDraw dasturi // O'quv qo'llanma // Samarqand – 2017, 104b – B 5.

ЎҚУВЧИЛАРНИНГ АЛТРУИСТИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Отажонова Мафтуна Султонмуродовна

Қўқон давлат педагогика институти таянч докторанти

Аннотация. Мақолада ўқувчиларнинг фазилатларини ривожлантиришда унинг ахлоқий характери, бошқа одамлар билан мулоқотда шахсий жозибадорлиги, зарур педагогик характер хусусиятларининг мавжудлиги муҳим рол ўйнайди. Ижтимоий-педагогик алтруизм ўқувчиларнинг хулқ-атвори учун ўз-ўзидан шахсий фазилатлар билан бирга эмас, балки улар орқали доимо синиб турадиган самарали асосга айланиши очиб берилган.

Калит сўзлар: алтруизм, сифат ва фазилат, компетенсия, ижтимоий-педагогик алтруизм, педагогнинг ахлоқий характери, мулоқот маданияти, алтруистик жараён, алтруистик компетенция

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ АЛЬТРУСТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ

Отажонова Мафтуна Султонмуродовна

Кокандский государственный педагогический институт, базовый докторант

Аннотация. В статье рассматривается вопрос о том, что важную роль в развитии качеств учащихся играют их моральный облик, личная привлекательность в общении с другими людьми, наличие необходимых педагогических качеств характера. Выявлено, что социально-педагогический альтруизм становится эффективной основой поведения студентов, который не сочетается сам по себе с личностными качествами, но всегда прорывается сквозь них.

Ключевые слова: альтруизм, качество и добродетель, компетентность, мотив, социально-педагогический альтруизм, моральный облик педагога, культура общения, альтруистический процесс, альтруистическая компетентность

THEORETICAL BASIS OF THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' ALTRUSTIC COMPETENCES

Maftuna Otajonova Sultonmurodovna

Kokand State Pedagogical Institute named after Mukimi, basic doctoral student

Abstract. In the article, an important role is played in the development of students' qualities by their moral character, personal attractiveness in communicating with other people, and the presence of necessary pedagogical character traits. It has been revealed that socio-pedagogical altruism becomes an effective basis for students' behavior, which is not by itself combined with personal qualities, but always breaks through them.

Key words: altruism, quality and virtue, competence, socio-pedagogical altruism, teacher's moral character, communication culture, altruistic process, altruistic competence

Kirish. Бугунги кунда ҳар қандай соҳада инсонпарварлик тамойилларини ривожлантириш, юртга садоқат, касбга масъулият билан ёндашиш сингари чуқур моҳиятга эга мажбуриятлар кўлами кенгаймоқда. Ёш авлодни тарбиялашда инсонпарварлик, ватанпарварликнинг ўрни ва аҳамияти, фидокорлик тарбияси нафақат мафкуравий асосларга, балки ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, ахлоқий асосларга ҳам боғлиқ. Зеро, бугунги кунда ватанпарварлик тарбияси бевосита таълим тизими, ҳарбий соҳа, давлат органлари ва жамоат ташкилотлари орқали амалга оширилса-да, оила ва маҳалла уни билвосита амалга оширишга масъул ҳисобланади ва бу борада ҳар бир фуқаро миллий-маънавий ва ахлоқий жиҳатларни яхши билиши лозим.

Инсонпарварлик халқимизнинг азалий қадриятларидан ҳисобланади. У меҳр-оқибат, инсон тақдири учун қайғуриш, ташвиш ва фалокатларга ҳамдардлик каби ахлоқий фазилатлар сирасига киради. Айниқса, фидокорлик умумхалқ, умуммиллий инсонийликнинг алоҳида тури ва ажралмас бўлагидир. Бундай инсонпарварлик, ватанпарварлик, фидокорлик, бурч, ўзгаларга ёрдам бериш каби тарбиявий жараёнларни ривожлантириш масаласи ҳозирги кунда долзарбдир. Бунинг учун ўқувчиларда бундай компетенцияларни ривожлантириш керак. Ўқувчиларнинг касбий компетенцияларини, ахлоқий қадриятларини ривожлантириш таълим тизими олдида турган энг олий масалалардан биридир. Бундай ғояларини ёшлар қалбига сингдириш Ўзбекистон Республикасининг давлат сиёсатида яна ҳам муҳим аҳамият касб этади. Бугунги кунда айниқса, бўлажак ўқитувчиларимизнинг касбий маданиятини ривожлантириш давлат сиёсати марказида туради. Бу эҳтиёжни эса маънавий-ахлоқий мерос воситасида қондириш самарали натижа бериши яққол намоён бўлмоқда.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ўқувчиларни алтруистик тайёрлаш зарурлигини асослаш МДХ давлатлари олимларидан – Андреев П.В. [1], Берберова Л.Б.[2], Хараева Ж.А., Гидлевский А.В.[3], Здриковская Т.А, Зотов Р.А, Лаверычева И.Г[4], Мангутова И.В. [5], Правоторов Г.В. , К.А. Абулханова-Славская, В.А. Печенев, Д.С. Шимановский, А.В.Зосимовский, Э.В.Субботский тадқиқотларида ўқувчи, унинг шаклланишининг турли босқичларида унинг қадрият йўналишлари, эътиқодлари, тамойилларини шакллантиришнинг психологик, педагогик ва маданий жиҳатларини ўрганишга бағишланган. Ушбу мавзу хорижий олимлар О Kont, A Smit, J. J. Russo, K Gilligan, N Nodding, V A Pechenev, L Kolberg, M May, J. Piaget, X Hartshorn, Pekman, GNAvxach, M T Burke-Beltran, RG Alresyan, S A. Amonashvili, V.S.Muxina, D.I.Feldshteyn, S.G.Yakobson D. Solomon, M.S. Uotson, K.L. Deluci, E. Schaps, V. Battisch (1988); E. McGinnis, A.P. Goldstein (1997); V. Battistic, A.S. Bryk, B.H. Schneider (2003); P.A.T.Grinberg, M.T. (2009-yil); G. Dunlap, R. Iovannone, D. Kincaid, K. Wilson, K. Christiansen, P. Strain, S. English (2010); K.A. Shonert-Reichl (2017); H. Shin, A.M. Rayan, E. Shimoliy (2019); U. Kuswendi (2019)) томонидан педагогик фаолиятнинг ижтимоий йўналиши ва мазмуни, ижтимоий ва ҳиссий компетенция ўқитувчи, унинг ёрдамга бўлган муносабати ва "устоз-шогирд" қўллаб-қувватлаш жиҳатларини ўрганишга бағишланган.

Бироқ ўқувчиларни ахлоқий ва алтруистик тайёрлаш масалалари Ўзбекистонда ҳам, чет элларда ҳам психологик-педагогик тадқиқотларда ҳали тўғри ёритилмаган ва кам ўрганган. Шу билан бирга, ўқувчиларнинг алтруистик компетенциясини шакллантириш ва ривожлантириш зарурати Ўзбекистон умумтаълим муассасаларининг умумий маданий ва махсус тайёргарлиги даражасига талабларнинг ортиб бориши; қатъий шаклланган универсал ва касбий ахлоқий қадриятларга эга ўқувчиларни тайёрлаш зарурати билан боғлиқ.

Muhokama va tahlillar. Ҳар бир шахснинг алтруизми жамият ва аниқ

фанларнинг ривожланиши билан бирга ривожланади ва ўзгаради. алтруистик меъёрлар, тамойиллар ва алтруистик кодларнинг турлари касбий фаолиятнинг ҳар хил турларида аниқланган. Алтруизм – бу этика билимларининг муаммоли соҳаси. Ўқувчи маълум ахлоқий мажбуриятларни ўз зиммасига олади (ахлоқий муносабатларнинг субъекти сифатида) ва шу билан бирга маълум ахлоқий ҳуқуқларга эга бўлади (бу муносабатларнинг объекти сифатида).

Шу билан бирга, шуни таъкидлаш керакки, барқарор ахлоқий муносабатлар жамиятнинг барқарор ҳолатига, ижтимоий гуруҳга, жамоага ва бошқаларга хосдир. Шунинг учун ўқитувчининг алтруистик маданияти – бу хулқ-атвор ва фаолиятда намоён бўладиган касбий педагогик бурч талабларини ҳисобга олган ҳолда ахлоқий йўналтирилган ўқувчилар тайёрлаш натижаси бўлган ижтимоий-педагогик таълимдир.

Ўқувчиларнинг ахлоқий ва алтруистик тайёргарлигини таҳлил қилиш доирасида ўқувчи шахси маданиятига этика нуқтаи назаридан ёндашувларни таҳлил қилиш керак. Кундалик ҳаётда маданиятли одам одобли, вазмин, юмшоқ хулқ-атвор ва меъёрий хулқ-атворга эга шахс ҳисобланади.

Ҳар бир шахсда ушбу фаолият соҳаси вакилига қўйиладиган касбий нормалар, қоидалар ва талаблар шакллантирилади. Одамлар билан ишлашни ўз ичига олган ҳар қандай талабларнинг бажарилишини талаб қилади. Ушбу талабларга зарур билим, кўникма, малака, касбий масъулият ва муайян шахсий фазилатлар киради.

Ўқувчи “инсон-одам” тизимидаги фаолият турини англатади, унинг марказида инсонпарварлик муносабати мавжуд. Кенг маънода инсоний муносабат – бу онгли хайрихоҳлик, раҳм-шафқат, бепарқлик ва шафқатсизликка тоқат қилмасликнинг доимий намоён бўлиши билан ажралиб турадиган инсоннинг ўзига хос фазилати. Тор маънода, инсоний муносабат – бу раҳмдил бўлиш, “бошқа одамнинг ҳаётини яшаш” қобилияти; бу яхшилик қилиш истаги

Бу алтруистик кўникмаларни, алтруистик маданиятни шакллантириш кўп жиҳатдан инсоннинг шахсий фазилатларига боғлиқлигини тушунтириши мумкин.

Ўқувчиларнинг алтруистик маданиятини шакллантириш ва ривожлантириш жараёни талабага танланган касбнинг моҳиятини, унинг ижрочига бўлган талабларини, фаолиятнинг мақсадлари, мазмуни ва функциялари, вазифаларни бажариш, маҳоратнинг ўзига хос хусусиятлари ва уни ўзлаштириш усулларини англашга ёрдам беришдан иборат.

Бинобарин, “ахлоқий-алтруистик” тушунчаси “алтруизм” ва “маданият” тушунчаларининг тўлиқ доирасини қамраб олади, аммо бу уларнинг оддий йиғиндисига қисқартирилмайди, балки янги сифатли таълим, “шахсият касби”дир. Ўқувчининг алтруистик маданияти, авваламбор, одамлар билан ишлашни таъминлайди. Бу ҳолда шахсият асосий таркибий қисмларни ўз ичига олади: умумий маданий қадриятлар, қизиқишлар, мотивлар ва бошқалар, бу нафақат қадриятларни инсоний ўлчовда акс эттиради, балки уларнинг фаол ривожланишини, касбий фаолиятнинг барча даражаларида ушбу ўлчовни амалга оширишни олдиндан белгилаб беради.

Демак, алтруистик маданиятни маданиятнинг энг муҳим таркибий қисмларидан бири деб ҳисоблаш мумкин. Шуни таъкидлаш керакки, касбий маданият – бу шахс маданиятининг ажралмас қисми, шахснинг ажралмас тузилишидаги мураккаб шаклланиш бўлиб, у касбий фаолият соҳасидаги муносабатларнинг умумийлигини ва шахснинг касбий аҳамиятли қобилиятлари, ақлий, психологик ва жисмоний фазилатлари, мотивацион соҳасининг юқори сифатини таъминлайди ва касбий фаолиятга ижобий муносабат уйғотади. Шу билан бирга, фаолиятнинг тузилиши анча мураккаб ва нафақат алтруистик маданият нормаларини, балки билим, кўникма ва малакалар тўпламини ҳам ўз ичига олади.

Умумтаълим муассасаларининг нг вазифаларига келажакда унинг эстетик-ахлоқий аҳамиятини белгилайдиган маънавий-интеллектуал қадриятлар ва фазилатлар тўплами билан бойитилган ўқувчини тайёрлаш жуда қийин вазифа киради.

Шундай қилиб, маданиятнинг хусусиятларини ўрганиб чиқиб, ўқувчиларнинг алтруистик компетенциясини тавсифлашга ўтишимиз мумкин. Ўқувчининг алтруистик компетенцияси – бу шахснинг боғлиқлигини таъминлайдиган инсон фаолиятининг қадрият меъёрлари ва кўринишларининг намоёнидир.

Бинобарин, “ахлоқий-алтруистик” тушунчаси “алтруизм” ва “маданият” тушунчаларининг тўлиқ доирасини қамраб олади, аммо бу уларнинг оддий йиғиндисига қисқартирилмайди ва бу инсоний ўлчовдаги қадриятларни акс эттирадиган янги юқори сифатли таълимдир, аммо бу уларнинг фаол ривожланишини, фаолиятнинг барча даражаларида ушбу ўлчовни амалга оширишни ҳам белгилайди.

Демак, алтруистик компетенцияни маданиятнинг энг муҳим таркибий қисмларидан бири деб ҳисоблаш мумкин. Шунинг таъкидлаш керакки, маданият – бу шахс маданиятининг ажралмас қисми, шахснинг ажралмас тузилишидаги мураккаб шаклланиш бўлиб, у фаолият соҳасидаги муносабатларнинг умумийлигини ва шахснинг касбий аҳамиятли қобилиятлари, ақлий, психологик ва жисмоний фазилатлари, мотивацион соҳасининг юқори сифатини таъминлайди ва касбий фаолиятга ижобий муносабатни билдиради. Шу билан бирга, фаолиятнинг тузилиши анча мураккаб ва нафақат алтруистик маданият нормаларини, балки билим, кўникма ва малакалар тўпламини ҳам ўз ичига олади.

Умуман олганда, алтруистик компетенциянинг ўқувчининг касбий тузилишидаги ўрни, унинг роли ва функциялари, албатта, унинг мазмунини ташкил этувчи муҳим хусусиятлар билан белгиланади.

Демак, ўқувчининг алтруистик компетенцияси – бу ўқувчининг кундалик фаолиятини белгилайдиган шахснинг маънавий-ахлоқий, ҳиссий ва қадриятларга асосланган ва касбий-ахлоқий фазилатлари тўпландир. Алтруистик маданиятни ривожлантириш учун синф ўқувчиларнинг ўқиш давомида ахлоқий ва алтруистик тайёргарлигини ташкил этиш керак.

Ўқувчиларнинг ахлоқий ва алтруистик тайёргарлиги деганда, назарий ва амалий машғулотларнинг ахлоқий ва алтруистик йўналишини, шунингдек, талабаларнинг касбий таълимини таъминлайдиган ахлоқий ва алтруистик асосда уларнинг тайёргарлигининг махсус ташкил этилган ўқув жараёни тушунилади, натижада ахлоқий ва алтруистик таълим шаклланади.

Ўқувчиларнинг ахлоқий ва алтруистик тайёргарлиги остида биз ўқувчининг шахс маданиятини босқичма-босқич ривожлантириш жараёнини, шахснинг умумий маданиятини, унинг маданиятини, умумий маданий қадриятлар ва меъёрларни ривожлантиришни, маҳорат, билим, кўникмаларни ривожлантиришни, касбий хулқ-атворнинг ахлоқий нормалари, алтруистик маданиятнинг қадриятлари ва фазилатлари, шахсий таркибидаги ҳиссий ва қадрият ва операцион фазилатларни тушунамир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Андреев П.В. “РАЗВИТИЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ ОБ АЛТРУИЗМЕ И ВЗАИМОПОМОЩИ В ЗАРУБЕЖНОЙ И ОТЕЧЕСТВЕННОЙ ПСИХОЛОГИИ” Текст научной статьи по специальности «Психологические науки». СС ВУ. 958. ... ПСИХОЛОГИЯ
2. Берберова Л.Б., Педагогический потенциал сказки как средство развития альтруизма у учащихся - младших подростков: на материале карачаево-балкарских, русских и американских народных сказок: автореферат дис. ...кандидата педагоги-

ческих наук: 13.00.01 Владикавказ, 2015. - 20 с

3. Гидлевский А.В. , Максименко Л.А. “Альтруизм и эгоизм как базовые детерминанты бытия человека”// *Фундаментальные исследования*. – 2014. – № 6 (часть 3) – С. 649-653

4. Лаверычева И.Г. Генетический механизм альтруизма – биологический источник гуманности // *Диалог в образовании: сборник материалов конференции*. Серия «Symposium», выпуск 22. – СПб.: Санкт-Петербургское философское общество, 2002

5. Мангутова Инна Валерьевна “Психолого педагогические условия развития альтруизма у детей старшего подросткового возраста” Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук г. Нижний новгород, 2007

6. Стейнберг Д. Альтруизм в медицине: его определение, природа и дилеммы// Cambridge, 2010. – Vol. 19, N 2. – P. 249–257.

ВИЗУАЛИЗАЦИЯ УЧЕБНОЙ ИНФОРМАЦИИ ПРИ ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛЬНЫМ ДИСЦИПЛИНАМ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ

Набиулina Луиза Махмудовна,
кандидат педагогических наук, доцент университета Пучон в Ташкенте
Таджимуратова Азиза Садуллаевна
магистрант ТГПУ имени Низами

Аннотация. В настоящей статье рассматривается роль и значение визуализации в процессе обучения специальным дисциплинам. Обсуждаются инновационные методы и техники визуализации, а также их влияние на усвоение информации студентами. Анализируются современные подходы к визуализации в образовании, а также предлагаются рекомендации по оптимизации этого процесса для повышения эффективности обучения.

Ключевые слова: визуализация, процесс обучения, модель, диаграмма, схема, график, инновационный метод, виртуальная реальность, анимация, мультимедиа-материалы, интеграция, стратегия обучения.

VIZUALIZATION OF EDUCATIONAL INFORMATION IN SPECIAL DISCIPLINES: INNOVATIVE APPROACHES AND EFFECTIVE METHODS

Nabiulina Luiza Makhmudovna
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Bucheon university in Tashkent
Tadjimuratova Aziza Sadullayevna
master's student, TSPU after Nizomi

Abstract. This article discusses the role and significance of visualization in the process of teaching special disciplines. Innovative visualization methods and techniques are discussed, as well as their impact on student learning. Modern approaches to visualization in education are analyzed, and recommendations are offered for optimizing this process to improve learning efficiency.

Key words: vizualization, learning process, model, diagram, graph, innovative method, virtual reality, animation, multimedia materials, integration, learning strategy.

MAXSUS FANLARDA O‘QUV MA’LUMOTLARINI VIZUALLASHTIRISH: INNOVATSION YONDASHUV VA SAMARALI USLUBLAR

Nabiulina Luiza Maxmudovna
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent shahridagi Puchon universiteti
Tadjimuratova Aziza Sadullayevna
Nizomiy nomidagi TDPU magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida vizuallashtirishning roli va ahamiyati haqida so‘z boradi. Innovatsion metodlar va vizuallashtirish texnikalari, shuningdek, ularning talabalar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirishiga bo‘lgan ta’siri mulohaza qilinadi. Ta’lim jarayonida vizuallashtirishning zamonaviy yondashuvlari analiz qilinib, ta’lim samaradorligini oshirish uchun ushbu jarayonni optimallashtirish to‘g‘risida tavsiyalar taklif etadi.

Kalit so'zlar: vizuallashtirish, ta'lim jarayoni, model, diagramma, chizma, grafik, innovatsion metod, virtual borliq, animatsiya, multimedia materiallar, integratsiya, o'qitish strategiyasi.

Введение. Обучение специальным дисциплинам для технических направлений часто предполагает усвоение сложной информации, требующей анализа, восприятия и понимания различных концепций [1]. В последние десятилетия визуализация информации стала ключевым инструментом в процессе обучения, позволяя студентам более эффективно усваивать материал и преодолевать сложности, связанные с пониманием абстрактных концепций.

Визуализация играет важную роль в представлении абстрактной информации в учебном контексте. Она помогает студентам усвоить сложные понятия, создавая наглядные модели, диаграммы, схемы, графики и другие визуальные средства. Это способствует лучшему пониманию и усвоению материала, поскольку визуальные образы легче запоминаются и помогают связать новую информацию с уже имеющимися знаниями [4].

Современные образовательные практики включают в себя разнообразные инновационные методы визуализации. Это включает использование виртуальной реальности, интерактивных досок, анимации, онлайн-курсов с мультимедийными материалами и другие технологические средства, способствующие эффективной передаче информации.

Исследования показывают, что визуализация значительно повышает эффективность обучения. Студенты, использующие визуальные методы в учебном процессе, имеют более высокий уровень усвоения материала, лучше запоминают информацию и демонстрируют более глубокое понимание ключевых концепций [9, 10].

Анализ литературы. Исследования в области визуализации учебной информации велись многими учеными. Среди инновационных методов обучения сегодня применяются такие технологии, как скрайбинг, интеллект-карты, таймлайн, кроссентс, облако слов и другие.

Кутепова Л.И., Смирнова Ж.В., Комлева В.Ш, Стряпихина А.А. утверждают о целесообразности использования технологии визуализации – скрайбинг, которая оказывает положительное влияние на развитие личностных качеств обучающихся в образовательном процессе. Техника скрайбинга на лекции позволяет обеспечить живое изложение, представить стойкие и запоминающиеся тезисы. Наиболее эффективно использование скрайбинга в групповой деятельности обучающихся. В процессе применения скрайбинга у студентов развивается воображение, творческие способности. Авторами перечислены основные преимущества использования скрайбинга: эффективность запоминания, синхронность аудио- и видеоряда, минимальные затраты. Внедрение скрайбинга в процесс обучения повышает образовательную мотивацию, развивает творческое мышление. С использованием скрайбинга увеличивается результативность обучения, повышается самостоятельность студентов [6].

Ваганова О.И., Пономаренко Е.Б., Зубкова Я.В. отметили, что одним из направлений развития системы образования является применение инновационных способов обучения, соответствующих уровню познавательной и творческой активности современных студентов. Одним из способов организации образовательного процесса является использование интеллект-карт. Интеллект-карта представляет собой визуальное представление учебного материала, в которой отражены основные элементы изучаемого вопроса и взаимосвязи между ними. Авторами описывается структура интеллект-карты на примере электронного

сервиса MindMeister. Проведен опрос студентов о результатах образовательной деятельности после использования интеллект-карт. Проанализированы формы обучения, на которых интеллект-карты могут быть результативно использованы. Благодаря использованию логических иерархий студенты систематизируют материал и концентрируют внимание на важной информации. Ассоциации, которые выстраивают обучающиеся в процессе построения интеллект-карт, позволяют прочно закрепить учебный материал, по-новому посмотреть на поставленную проблему, увидеть нестандартное решение [2].

Гузанов Б.Н., Федулова К.А. рассматривают вопросы повышения эффективности изучения сложных технических дисциплин путем совершенствования образовательных технологий через использование инновационных цифровых средств и ресурсов, основанных на визуализации учебных элементов. Авторами изучена сущность визуализации учебной информации, которая направлена не только на демонстрацию инженерных процессов и систем, но и на активизацию познавательной деятельности обучающихся и стимулирование мотивации к изучению специальных дисциплин будущей профессиональной деятельности. Авторами обоснована необходимость использования цифровых технологий визуализации для обеспечения эффективности изучения сложных инженерных дисциплин [3].

Колмаковой Л.А. дана обобщенная характеристика технологии визуализации учебной информации. Обосновано применение моделей когнитивной визуализации с привлечением информационно-коммуникационных технологий. Представлены результаты, демонстрирующие изменение показателей мотивационной активности обучающихся до и после применения «логико-смысловых моделей» (ЛСМ) и «метаплана» в учебном процессе. Отражены особенности направленного применения методов когнитивной визуализации учебной информации как для совершенствования учебно-познавательной деятельности, так и для формирования профессиональных компетенций [5].

Отечественными исследователями также ведется работа по изучению возможностей визуализации в образовательном процессе [7, 11]. Алимовым У.Б. изучалась методика обучения студентов компьютерной визуализации на основе кластерного подхода. Эркаев Х.А. исследовал вопросы по разработке учебных тренажеров и методов визуализации для практических занятий по дисциплине Информационная безопасность.

Холмуродов А.Э. и Эргашевым Н.Г. изучены проблемы повышения эффективности учебного процесса за счет использования дидактических наглядных средств, способствующих повышению интеллектуально-познавательной активности студентов высшей школы. Подача учебного материала на основе визуальных технологий позволяет реализовать образовательный контент в мультимедийном и интерактивном виде. Кроме того, обосновано, что преподаватели должны владеть методами и средствами представления учебного материала и применения их на практике [8].

Методология исследования. Анализ научной литературы по теме исследования позволил выдвинуть гипотеза, что обучение студентов педагогических вузов специальным дисциплинам на основе визуальных методов обучения позволит повысить образовательную мотивацию, будет способствовать как будущему педагогу развивать творческое мышление, оказывать положительное влияние на результативность обучения и повысить самостоятельность студентов.

Анализ нормативной документации, а именно квалификационных требований, учебных планов, типовых и учебных программ позволило установить, что для студентов направления Математика-Информатика специальными дисциплинами

по информатике являются такие, как Алгоритмизация и языки программирования, Компьютерная графика и визуализация, Информатика и цифровые технологии и другие. Одним из дисциплин, которые являются для усвоения со стороны студентов испытывают некоторые сложности, является предмет Алгоритмизация и языки программирования. Поэтому было предложено для исследования изучить возможности применения современных методов визуализации при обучении языкам программирования.

Наблюдения за обучением студентов на лекционных, лабораторных и практических занятиях с использованием таких методов как скрайбинг, интеллект-карты, таймлайн, кроссентс, облако слов позволило дать следующие рекомендации по оптимизации визуализации в образовании специальных дисциплин.

Необходимо активно интегрировать современные технологии визуализации информации: учителям следует использовать современные технологии для создания визуальных материалов, сделав процесс обучения более интерактивным и увлекательным для студентов.

Разнообразие методов: разнообразие визуальных методов, таких как графики, диаграммы, симуляции, анимации, позволяют лучше адаптироваться к различным стилям обучения студентов.

Оценка эффективности: важно оценивать эффективность визуализации в образовании, проводя исследования и опросы среди студентов для постоянного улучшения методов преподавания.

Заключение. Визуализация играет ключевую роль в обучении специальным дисциплинам, способствуя более эффективному усвоению информации студентами. Инновационные методы и технологии визуализации предоставляют широкие возможности для улучшения образования и профессиональной подготовки в сфере науки, технологии, инженерии и математики. С учетом индивидуальных особенностей обучающихся, а также с уделением внимания разнообразию визуальных методов, возможно создание более эффективных стратегий обучения специальным дисциплинам.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Березин М.А., Кузьмин А.М. Особенности обучения студентов специальным дисциплинам в вузе // Огарёв-Online. 2014. №6 (20).
2. Ваганова О.И., Пономаренко Е.Б., Зубкова Я.В. Реализация технологии интеллект-карт при изучении гуманитарных дисциплин // Проблемы современного педагогического образования. 2022. №75-2.
3. Гузанов Б.Н., Федулова К.А. Практика применения технологий визуализации в инженерной подготовке педагогов профессионального обучения // Профессиональное образование и рынок труда. 2021. №3 (46).
4. Козлов, А.С., Григорьева, Н.П. Применение визуальных средств в обучении инженерных дисциплин // Журнал "Инженерное образование", 2018, №5(3). – С.112-125.
5. Колмакова Л.А. Совершенствование учебно-познавательной деятельности учащихся профессиональной образовательной организации на основе технологии визуализации учебной информации // Образование и наука. 2015. №6 (125).
6. Кутепова Л.И, Смирнова Ж.В., Комлева В.Ш., Стряпихина А.А. Скрайбинг как технология визуализации образовательного процесса // БГЖ. 2021. №3 (36).
7. Набиулина Л.М. Обучение студентов визуализации данных на основе современных онлайн технологий как фактор повышения качества профессионального образования// Образование как фактор развития интеллектуально-нравственного

- потенциала личности и современного общества. Материалы VIII международной научной конференции. 2018/ - С.81-84
8. Петров В.Н., Смирнова О.И. Визуализация в образовании: методы и практика // Москва: Издательство "Просвещение", 2019.
9. Сергеев Д.М., Кузнецова Е.В. Роль визуальной грамотности в профессиональной подготовке специалистов. Ученые записки университета им. Иванова, 2021, №15(4). – С. 78-89.
10. Холмуродов А.Э., Эргашев Н.Ф. Ўқув материални визуал технологиялар асосида намойиш этишнинг ўзига хос аспекти // Современное образование (Узбекистан). 2021. №7 (104).
11. Хужжиев М.Я. Возможности повышения эффективности мультимедиа в процессе урока // Universum: психология и образование: электрон. научн. журн. 2019. № 1 (67).

ОИЛАЛАРДА ЎСМИР ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШДА ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ ИНСТИТУТЛАРИНИНГ ПЕДАГОГИК ҲАМКОРЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Салоҳиддинова Ғазалхон Бекмирзаевна

Алфраганус университети “Педагогика ва психология” кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация. Ушбу мақолада ёш авлоднинг сиёсий мотивлари ва қадриятлари, уларнинг сайловдаги афзалликлари таҳлил қилинади. Ёшлар сиёсати давлат томонидан ўсмир ёшларнинг ўзлари, ёшлар ва болалар жамоат ташкилотлари ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтлари педагогик ҳамкорлик асосида иштирок этган тақдирдагина самарали амалга оширилиши мумкинлиги ҳақида сўз юритилади.

Таянч сўзлар: ижтимоий-сиёсий фаоллик, сайлов соҳасидаги фаоллик, сиёсий жараён, сиёсат соҳасидаги фаоллик, индивидуал фаоллик, жамоавий фаоллик, давлат бошқаруви, ижтимоий институтлар ҳамкорлиги.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В ПОВЫШЕНИИ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ ДЕТЕЙ-ПОДРОСТКОВ В СЕМЬЯХ

Салоҳиддинова Ғазалхон Бекмирзаевна

Старший преподаватель кафедры педагогики и психологии Университета Альфраганус

Аннотация. В данной статье анализируются политические мотивы и ценности молодого поколения, их электоральные предпочтения. Также говорится о том, что государство может эффективно реализовывать молодежную политику только в случае участия самих подростков, молодежи, детских общественных организаций и других институтов гражданского общества на основе педагогического сотрудничества.

Ключевые слова: общественно-политическая активность, активность в сфере выборов, политический процесс, активность в сфере политики, индивидуальная активность, групповая активность, государственное управление, сотрудничество социальных институтов.

IMPROVING PEDAGOGICAL COOPERATION OF CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS IN INCREASING SOCIO-POLITICAL ACTIVITY OF TEENAGE CHILDREN IN FAMILIES

Salohiddinova Gazalkhon Bekmirzaevna

Senior Lecturer, Department of pedagogy and Psychology, University of Alfraganus

Abstract. This article observes the political motives and values of the young generation, their electoral preferences. It also discusses that the state can effectively implement

youth policy, only in the case of teenagers themselves, youth, children's public organizations and other institutions of civil society participate based on pedagogical cooperation.

Key words: socio-political activeness, activeness in the field of elections, political process, activeness in the field of politics, individual activeness, group activeness, public administration, cooperation of social institutions.

Кириш. Ўсмир ёшларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллиги муаммосини концептуал позициялардан илмий асослашга уринишлар хорижий ва маҳаллий сиёсатшуносликда бир неча бор қилинган. Жаҳон амалиётида ёшлар фаоллигини ижтимоий-ёш хусусиятлари нуқтаи назаридан кўриб чиқадиган биринчи тадқиқотлар пайдо бўлди. Улар 20-асрнинг бошларига тўғри келади ва психоаналитик ёндашув доирасига мос келади. Кейинчалик, ушбу позициядан бошлаб, ёшлар ўзларининг ривожланишининг муайян босқичларини енгиб ўтиш даврида давлат ва жамият томонидан қўллаб-қувватлашга муҳтож бўлган ижтимоий тоифа сифатида қарала бошладилар, бу орқали улар ўзларини, ҳаётдаги ўрнини излайдилар.

San'at har tomonlama barkamol insonni tarbiyalashga xizmat qiladi. U insonlarning ma'naviy dunyosiga shunungdek, jamiyat hayotining barcha sohalariga ta'sir qiladi. Xalq o'zining hamma hunarini kelajak avlodga beradi, uning go'zalligini ham zamonga mosligini xalq tanlab oladi.

Xalqning badiiy san'ati xunarmandchilik, kashtachilik bilan bog'liq, ular yoshlarning badiiy san'atga bo'lgan qiziqishini orttirib, estetik tarbiyasini boyitadi, mavjud narsalar insonning psixik tafakkuri natijasida yaratiladi. Insonning mahorati bilan ishlangan badiiy asarlar kishilik jamiyatida unutilmas iz qoldiradi, yoshlarga moddiy va madaniy zavq beradi. Bu esa san'at asarlarida o'z aksini topadi.

Amaliy san'at yo'nalishlaridan biri sifatida naqqoshlik san'ati o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'quvchilarning badiiy tasavvurini rivojlantirishda ham tasviriy san'at o'qituvchilarining o'rni muhimdir. Ular, yoshlarni badiiy tasavvurini shakllantirish, san'at asarlarini tahlil qilish, ta'riflash va o'z fikrlarini erkin va aniq bayon qilishga yordam beradi. Naqqoshlik san'ati, insonlarning estetik hissiyatini rivojlantirish, o'zini ifodalash va ijodiy faoliyatni oshirishda ham muhim sanaladi. Masalan, naqqosh har bir naqshning hajmini, uning qaysi rangga to'g'ri kelishini, go'zallik tomonidan oldindan aniqlaydi. Ayrim naqshlar mayda va juda kichkina bo'lib ishlansa, ayrim naqshlar esa katta va aniq ko'rinib turishni talab etadi. Naqshning chiroyli ko'rinishi uni ishlagan odamga bog'liq, har bir naqsh xalqning turmushini, madaniyatini ifodalagan. Shuningdek, naqsh -xalqning milliy o'zgachaligini ko'rsatadi, naqshni har xil shaklda ishlansa bo'ladi. Naqsh uchun har xil ranglar foydalaniladi, unda hayvonlar, qushlar va o'simliklar dunyosidan ayrim shakllarini ifodalash mumkin. Uning uchun oldin uchburchak, doira, romb va h.k. shakllar chiziladi. Naqsh asosan tabiat ko'rinishlari bo'yicha ishlanganini yaxshi bilamiz. Chunki, tabiat chiroyli manzaralarni insonlar uchun sovg'a qiladi. Inson tabiat ko'rinishlari asosida boy tushunchalarga ega bo'ladi. Sababi, tabiatdagi har xil ranglar, go'zallik va b.q. haqiqiy naqshning kelib chiqishiga asos bo'ladi. Inson tabiat ko'rinishlarini kuzatar ekan ertaklardagidek chizishga, uning go'zalligini naqsh sifatida berishga qiziqadi, tabiatning barcha go'zalligini o'rganadi uni o'z turmushiga foydalanadi. Keyin esa naqsh orqali ifodalab beradi.

O'zbekistonning naqsh chizish xunarida nokning gulini, paxta gulini, daraxt shoxlari bilan barglari asos bo'ladi. Bu narsalar dalalarda o'stirilib, dehqonchilikni yaxshi o'zlashtirganligini, o'zbek xalqining mehnatsevarligini ifodalaydi. Naqshlarga ranglar berishda ham xalq o'ziga xoslik yarata olgan. Xalqimizning naqqoshlik san'atidagi yutuqlaridan biri naqshlarni nafaqat tabiat ko'rinishlariga asoslanib balki xalqning milliy urf-odatlarini bilan turmush sharoitiga ham asoslanadi. Masalan, uy-ro'zg'orida foydalanadigan buyumlarning shakllaridan kelib chiqqan naqsh elementlari mavjud. Shuni ham ta'kidlash joizki, xalq hunarmadchilik san'ati bo'yicha yaqin vaqtlardan boshlab chuqur ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shuning uchun ham bir necha naqsh elementlari (nushalarning) yuqorida ta'kidlaganimizdek bitta nom bilan nomlangan. Buni olimlarimiz tadqiqotlarida bitta naqsh elementlarining bir necha motivlarini aniqlagan.

Darslarda o'lkashunoslik manbalarini qo'llash, o'qishni hayot bilan keskin bog'lash, o'quvchilarda quyidagi sifatlarni rivojlantiradi: qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, ko'z xotirasi, tarixiy manbalardan olingan bilimlarni umumlashtirish malakasi. Ta'limda o'lkashunoslik manbalarini qo'llanishi bir jihatdan o'lkaning tarixini va san'atini o'rganish uchun boy

ashyoyiy material bo'lsa, ikkinchi bir jihatdan vatanparvarlik tuyg'usininsh shakllanishining mazmunini takomillashtirish, xususan, o'quvchilarning axloqiy savodxonlik darajasini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Axloqiy savodxonlik esa o'quvchilardagi ma'naviy kompetentlikning rivojlanishiga zamin yaratadi. Negizida axloqiy me'yorlarga doir bilim, axloqiy tanlovni asoslay olish ko'nikmasi hamda ularni amalga oshirish qobiliyati yotadigan shaxsning qadriyatli o'ynalganligisiz zamonaviy voqeliklarni anglash va ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirish mumkin emas, olamni insonparvarlik nuqtai nazardan ko'ra olish esa, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, dunyo bilan o'zaro uyg'un munosabatlarga kirishish, qadriyat va me'yorlarning turli tizimlari ichki birligini anglash uchun insonning o'z ma'naviy olamini rivojlantirish va amalga oshirishi kabi o'ziga xos belgilarga ega qadriyatli- dunyoqarashga doir subkompetentlik sifatida talqin qilishimiz mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Х.И. Аляминов. Ўлкашунослик материаллари воситасида бадий-эстетик тарбия мазмунини такомиллаштириш. - Халқ таълими, №6. 2002
2. Х.И. Аляминов. Ўлкашунослик материалнинг ўқув материали сифатидаги таълимий ва тарбиявий имкониятлари. Муғаллим ҳәм ўзликсиз билимлендириў. №5-6, 2014
3. Х.И. Аляминов. Ўлкашунослик материалнинг ўқув материали сифатидаги таълимий ва тарбиявий имкониятлари. Муғаллим ҳәм ўзликсиз билимлендириў. №3, 2013
4. Zamidova, K., & Madraximova, I. B. (2024). Interfaol o'qitish usullarining nazariy asoslari. *PEDAGOG*, 7(4), 689-692.
5. М.Имомназаров Ма'naviyatimizning takomil bosqichlari. –Т.: Sharq, 1996, 46 bet.
6. Бошланғич таълим концепцияси // тузувчилар: Р.Г.Сафарова ва бошқ.- Тошкент: РТМ-2015. ЎзМУ хабарлари - 183 - Фалсафа фанлари

СДЕРЖИВАЮЩИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ ИНТЕРНАЦИОНАЛИЗАЦИИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Исмадияров Яшин Уткирович,

доктор педагогических наук, профессор, директор научно-исследовательского института «GRI Tadqiqot instituti»

Рахиммирзаев Санжар Ботурович,

кандидат психологических наук, и.о. доцента кафедры Психологии Факультета социальных наук Национального университета Узбекистана им. М. Улугбека

Набиуллина Луиза Махмудовна,

кандидат педагогических наук, доцент кафедры «Магистратуры и научных исследований», университета Пучон в городе Ташкент

Матназарова Мехрибон Бахтияровна,

доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, начальник отдела науки и инновации филиала РГПУ им. А.И.Герцена в городе Ташкент

Бегатов Жахангир Мухаммаджонович,

кандидат технических наук, доцент, декан факультета «Инженерных систем», Совместного Белорусско-Узбекского Межотраслевого института прикладных технических квалификаций

Аннотация. В статье изложен анализ интеллектуальной мобильности в контексте её развития в процессе высшего образования, а также проблемные вопросы оказывающие сдерживающее воздействие на данный процесс некоторые исследователи, акцентируют внимание на разноаспектности её проявлений в практической профессиональной деятельности.

Ключевые слова: Интеллектуальная миграция, экспертная оценка, творческий потенциал, структурный компонент, коммуникабельность, образование, структура реализация задач, компетентность, стратегия устойчивость, развитие, учебное заведение, интеллектуальный потенциал, академическая мобильность, студенческая мобильность.

OLIY TA'LIMNI XALQAROLASHTIRISHNING ZAMONAVIY SHAROITIDA INTELLEKTUAL HARAKATCHANLIKNI RIVOJLANTIRISHNI CHEKLOVCHI OMILLAR

Ismadiyarov Yashin Utkirovich,

Pedagogika fanlari doktori, professor, "GRI tadqiqot instituti" ilmiy-tadqiqot instituti direktori

Rakhimmirzaev Sanzhar Boturovich,

Psixologiya fanlari nomzodi (PhD), M. Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Psixologiya kafedrasasi dotsenti

Nabiullina Luiza Makhmudovna,

Pedagogika fanlari nomzodi, Toshkent shahridagi Puchxon universiteti Magistratura va ilmiy tadqiqot kafedrasasi dotsenti

Matnazarova Mehribon Bakhtiyarovna,

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), A.I.Gertsen nomidagi Toshkent

shahridagi Rossiya davlat pedagogika universiteti filialining fan va innovatsiyalar bo'limi mudiri.

Begatov Zhahangir Mukhammadzhonovich,

Texnika fanlari nomzodi, dotsent (PhD), Belarus-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar institute, Muhandislik tizimlari fakulteti dekani

Annotatsiya. Maqolada intellektual harakatchanlikni oliy ta'lim jarayonida uning rivojlanishi nuqtai nazaridan tahlil qilish, shuningdek, ushbu jarayonga to'sqinlik qiladigan muammoli masalalar bayon etilgan ba'zi tadqiqotchilar uning amaliy kasbiy faoliyatidagi namoyon bo'lishining xilma-xilligiga e'tibor berishadi.

Kalit so'zlar: intellektual migratsiya, o'zaro baholash, ijodkorlik, tarkibiy qism, muvoqot qobiliyati, ta'lim, tuzilish vazifalarni amalga oshirish, kompetentsiya, strategiya barqarorlik, rivojlanish, ta'lim muassasasi, intellektual salohiyat, akademik harakatchanlik, talabalar harakatchanligi.

CONSTRAINING FACTORS FOR THE DEVELOPMENT OF INTELLECTUAL MOBILITY IN MODERN CONDITIONS OF INTERNATIONALIZATION OF HIGHER EDUCATION

Ismadiyarov Yashin Utkirovich,

Doctor of Pedagogical Sciences, Professor,

Director of the Scientific Research Institute "GRI Tadqiqot instituti"

Rakhimmirzaev Sanzhar Boturovich,

Candidate of Psychological Sciences, Acting Associate Professor of the Department of Psychology, Faculty of Social Sciences, M. Ulugbek National University of Uzbekistan

Nabiullina Luiza Makhmudovna,

Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor of the Department of "Magistracy and Scientific Research", Puchon University in Tashkent

Matnazarova Mehribon Bakhtiyarovna,

Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Head of the Department of Science and Innovation of the branch of the Herzen State Pedagogical University in Tashkent

Begatov Zhahangir Mukhammadzhonovich,

Candidate of Technical Sciences, Associate Professor, Dean of the Faculty of Engineering Systems, Joint Belarusian-Uzbek Interdisciplinary Institute of Applied Technical Qualifications

Abstract. The article presents an analysis of intellectual mobility in the context of its development in the process of higher education, as well as problematic issues that have a restraining effect on this process. Some researchers focus on the diversity of its manifestations in practical professional activity.

Keywords: Intellectual migration, expert assessment, creative potential, structural component, sociability, education, task implementation structure, competence, sustainability strategy, development, educational institution, intellectual potential, academic mobility, student mobility.

В современных условиях рост значимости развития интеллектуальной мобильности студенческой молодёжи обуславливается постоянно меняющимися условиями рыночных отношений, глобальными процессами интеграции, все более широкой интеллектуализации труда, информатизации общества, которые требуют от будущего специалиста не только соответствующего объема фундаментальных знаний, профессиональной компетентности, но и высокого интеллектуального развития, определенных личностных качеств, нового типа умственной деятельности,

характеризующейся мобильностью мышления. Преимущественно интеллектуально мобильным личностям присущ должный адаптационный потенциал, способность адаптироваться в условиях динамических изменений окружающего мира. В данном аспекте весьма значимым вступает исследование возможных сдерживающих факторов развития интеллектуальной мобильности современной студенческой молодёжи [1].

Согласно позициям Г.П. Раджабалиева, Т.Б. Суржиковой, Д.В. Мочалова и др. положительная динамика развития высшего образования находится под влиянием некоторых негативных факторов как внешних, так и внутренних. В частности, автор выделяет в качестве отрицательных следующие:

отсутствие долгосрочной перспективы развития высшего образования с учетом прогноза потребностей современного рынка труда, запросов общества и личности;

отсутствие действующей, совершенной, осмысленной (прежде всего для специалистов) системы непрерывного образования, полномасштабной поддержки отраслей со стороны государства и экономических механизмов ее реализации;

отсутствие полноценных (отвечающих современным тенденциям) стандартов образования;

наличие противоречий между требованиями современного общества, трудового рынка относительно уровня профессиональной компетентности выпускника высшего образовательного учреждения и содержанием профессиональной подготовки;

недостаточная материально-техническая база, программное и научно-методическое обеспечение высших образовательных учреждений на местах, на основе которых реализуется подготовка будущих специалистов;

некоторое обесценивание (с учётом различных рыночных факторов) специалистов, подготавливаемых в высших образовательных учреждениях;

острая востребованность совершенствования научного обоснования с учётом современных тенденций на систематической основе механизмов диагностирования качества высшего образования и эффективных технологий повышения качества подготовки будущих специалистов;

недостаточный уровень всесторонней поддержки и стимулирования развития научных школ и научных направлений в системе высшего образования;

недостаточный уровень мотивации педагогической составляющей научно-педагогического процесса в учреждениях высшего образования, что влияет на заинтересованность в результатах и готовность работать с высокой отдачей;

существование формального подхода к организации образовательного процесса высших образовательных учреждений, увлечённых рейтингами, профессорско-преподавательский состав перегружен отчетной бумажной работой, оставляя индивидуальную работу со студенческой молодёжью на второй план.²

Несмотря на мощный потенциал и положительную динамику развития

¹ Исмадияров Я.У. Факторы, влияющие на качество обучения и профессиональной подготовки кадров // Узлуксиз таълим, 2017, №1. - С. 96-101.; Ismadiyarov Y.U., Rakhimmirzaev S.B., Mullahmetov R.G., Matnazarova M.B., Nabiullina L.M., Bogatov J.M. Theoretical and methodological foundations of research on the development of intellectual mobility in the conditions of internationalization of higher education in pedagogical science. // Journal of Chemical Health Risks. - JCHR. (indexed by Scopus, ISSN:2251-6727; <https://doi.org/10.52783/jchr.v13.i4.1248>). - 2023. - № 13(4). - pp. 1735-1739.

² Раджабалиев Г.П. Проблемы подготовки преподавателей вузов. // Высшее образование в России. - 2001. - №10. - С. 115-120.; Суржикова Т.Б. Теоретические основы и практическое применение развивающего типа обучения. // Вестник Омского отделения Академии гуманитарных наук. 2000. - №5. - С. 167-171.; Мочалов Д.В. Формирование интеллектуальной мобильности молодёжи в современном обществе. // IV Нугаевские чтения: сб. материалов Международной научно-практической конференции - Казань: ИГМА-Пресс, 2011. - С. 416-419.

высшего образования, по мнению Е.Г. Неделько и др. полагается целесообразным очертить наличие актуальных проблем, сдерживающих, в том числе развитие интеллектуальной мобильности будущих специалистов на современном этапе развития общества. Первая проблема очерчена уже на этапе поступления в высшее образовательное учреждение. В соответствии с правилами приема абитуриент может подавать документы в разные учебные заведения на разные специальности. Решающим фактором выбора специальности для обучения, является не ее специфика или личностные предпочтения, или значимость для будущего соискателя высшего образования, а проходной балл, наличие мест государственного заказа и возможность поступления на них. Если абитуриент встает перед выбором получения любимой профессии, но на контрактной основе, или формального получения диплома бакалавра или магистра на местах государственного заказа, то результат становится очевидным в пользу последнего. Вследствие сделанного таким образом выбора, появляется первая и решающая проблема на уровне личности – внешние обстоятельства против внутренних мотивов. Таким образом теряется основной мотивационный компонент интеллектуальной мобильности. Когда человек ничего не знает о ценности объекта, этот объект теряет для него какую-либо ценность. Способность оценивать объекты, то есть устанавливать их ценность, связан с развитием у человека ценностных ориентаций. Это представление о том, каким должен быть объект, чтобы удовлетворить человеческие запросы. Подобное влияние на ценностные ориентации соискателя высшего образования и мотивацию его обучения происходит и при выборе объекта изучения, будущей специальности, будущей профессии. В то же время существуют и другие факторы, препятствующие процессу развития профессиональной мобильности будущих специалистов, в частности:

ориентация высших образовательных учреждений на традиционную модель подготовки специалистов;

несовершенство содержания подготовки в контексте направленности на развитие интеллектуальной мобильности выпускников³.

По утверждениям В.П. Куприяновской, в эпоху современного информационного общества ценность личности стала определяться не интеллектуальной ригидностью и самодостаточностью, а наоборот, гибкостью мышления, способностью быстро реагировать на запрос времени, т.е. интеллектуальной мобильностью. Соответственно трансформируются и требования как к самой профессиональной подготовке будущих специалистов, так и образовательному менеджменту в целом. В данном аспекте, анализ современных психолого-педагогических исследований и изучение педагогической практики дают основания выделить некоторые способы, способствующие развитию интеллектуальной мобильности будущих специалистов:

применение активных методов обучения, требующих интеллектуального напряжения, быстрого применения информации (знаний) для оперативного принятия решения;

осуществление информационно-технологической поддержки во время выполнения обучаемыми учебных заданий, предусматривающих нахождение студентом новых для себя решений на основе овладения методами и механизмами эвристического труда.

Первый способ (применение активных методов обучения и т.д.) развития интеллектуальной мобильности будущих специалистов обуславливается тем, что активные методы предусматривают субъектную, активную позицию обучаемого

³ Неделько Е.Г. Формирование мотивационной готовности студентов к профессиональной мобильности в рамках программы курса спецкурсов. // Проблемы приграничных территорий. Материалы III международной конференции, - Челябинск: Фрегат. - 2005. - С. 62-63.

относительно педагога, других студентов, индивидуальных средств обучения. Современный опыт организации активного обучения свидетельствует, что с помощью его форм, методов и средств можно достаточно эффективно решать целый ряд задач, которые трудно выполнить в пассивном обучении. Сущность активных методов заключается в изменении субъектно-объектных отношений: обучаемый превращается в руководителя процесса познания, при этом активно реализуется естественная любознательность студента, обучение перестает рутинной работой, т.е. использование активных методов становится элементом положительной мотивации будущего специалиста. К активным методам относят: самостоятельную работу, проблемные и творческие задания, вопросы от обучаемого к педагогу и наоборот, развивающие творческое мышление.

Второй способ (осуществление информационно-технологической поддержки и т.д.) можно рассматривать на разных уровнях:

на уровне учебного процесса в высшем образовательном учреждении (в таком случае поддержка касается всех аспектов деятельности учреждения, включая управленческую, организационную и т.п.);

на уровне обучения предметной дисциплины;

на уровне определенного вида предметной деятельности обучаемого (исследовательской, тренировочной, самостоятельной, самоконтроля и т.п.);

на уровне деятельности в конкретной компьютерной среде (программно реализована система поддержки пользователя).⁴

Анализируя интеллектуальную мобильность в контексте её развития в процессе высшего образования, а также проблемные вопросы оказывающие сдерживающее воздействие на данный процесс некоторые исследователи, акцентируют внимание на разноаспектности её проявлений в практической профессиональной деятельности. Анализ научных работ дает основания утверждать, что уровень сформированности интеллектуальной мобильности напрямую связан с личностно-профессиональным развитием, готовностью соискателей высшего образования к усвоению новых знаний, овладению новыми технологиями, формами профессиональной деятельности и т.п. При этом, высшее образование рассматривают сегодня как непрерывный процесс, ориентированный на современную экономику, профессионально-личностное развитие будущих специалистов, расширение их возможностей. Особое место в системе развития специалиста новой генерации отводят заведению высшего образования, основное назначение которых напрямую связано с подготовкой интеллектуально мобильных профессионалов, способных реализовываться в условиях социально-экономических реалий. Университетское образование играет роль социокультурного механизма влияния на развитие личности будущего специалиста, способного максимально реализовать внутренние резервы и взаимодействовать в профессиональной среде, что обеспечивает формирование компетентного, активного, инициативного, мобильного профессионала своего дела, который сможет воспринимать, осознавать, творить и внедрять новое.⁵

Таким образом, исходя из вышеизложенного полагается целесообразным заключить, что, опираясь на обобщённое мнение различных учёных в качестве сдерживающих факторов развития интеллектуальной мобильности современной

⁴ Куприяновский В.П. Интеллектуальная мобильность в цифровой экономике. // International Journal of Open Information Technologies. - 2017. - Т. 5. - №2. - С. 46-63.

⁵ Бахтина О.В. Педагогические условия интеллектуального развития студентов в образовательном процессе вуза. // Воспитательная среда вуза как фактор профессионального становления специалиста: материалы меж. регион. науч.-метод. конф. - Воронеж, гос. ун-т. - Воронеж, 2004. - Вып. 4. - С. 124-127.; Валеева Р.А., Шакирова А.А. Академическая мобильность студентов в Европе. // Актуальные проблемы педагогики и психологии. Сборник научных трудов преподавателей, молодых ученых и студентов, посвященный 210-летию Казанского университета. Выпуск 18. - Казань: Изд-во «Отечество», 2015. - С. 185-188.

[8F.pdf](#)

12. Матназарова М.Б. Модель развития профессиональной компетентности современных педагогических кадров высших образовательных учреждений. // Проблемы Науки. - 2018. - №13 (133). - С. 76-80.

13. Матназарова М.Б. Условия эффективности интернационализации содержания высшего образования. // Образование и инновационные исследования, 2023, №9. - С. 192-194.

14. Рахиммирзаев С.Б. Психометрический инструментарий исследования интеллектуальной мобильности студентов в условиях интернационализации высшего образования. // Беларусско-Узбекский научно-методический журнал (международный научно-методический журнал). - 2023. - №5. - С. 156-164.

15. Ставрук М.А. Академическая мобильность в изменяющемся мире. // Развитие образования в современном мире в условиях глобализации: мат-лы Междунар. конф. - М.: ИЦ РАО, 2008. - С. 155-159

ОИЛА, МАҲАЛЛА ВА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ҲАМКОРЛИГИДА ЎСПИРИН ҚИЗЛАРДА КРЕАТИВ ТАДБИРКОРЛИК КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Тўлаганова Нигора Раҳмонали қизи

Ўзбекистон Республикаси Оила ва хотин-қизлар кўмитаси ҳузуридаги “Оила ва гендер” илмий-тадқиқот институти таянч докторанти

Аннотация. Мақолада илмий адабиётлар ва материалларни таҳлил қилиш асосида ўсмир қизларда креатив тадбиркорлик кўникмаларининг моҳияти, мазмуни, мезонлари ва кўрсаткичлари ҳақида фикр юритилган. Шунингдек, ўқувчиларнинг асосий компетенцияларини шакллантиришнинг турли жиҳатлари ва улардаги бизнес ва тадбиркорлик компетенцияларини фарқлаш имконияти бир қанча олимларнинг фикрлари келтирилиб ўтилган.

Калит сўзлар: ўспирин қизларда креатив тадбиркорлик кўникмалари, жамиятни ахборотлаштириш, технологияларни ривожлантириш, касбий ҳаракатчанлик, эҳтиёжларини қондириш, шакллантириш.

ФОРМИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКИХ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ У ДЕВОЧЕК-ПОДРОСТКОВ В СОТРУДНИЧЕСТВЕ С СЕМЬЕЙ, СОСЕДЯМИ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ УЧРЕЖДЕНИЯМИ

Толаганова Нигора Раҳмонали қизи

Докторант фонда научно-исследовательского института “Семья и гендер” при Комитете по делам семьи и женщин Республики Узбекистан

Аннотация. В статье на основе анализа научной литературы и материалов рассмотрены сущность, содержание, критерии и показатели креативных предпринимательских навыков у девочек-подростков. Также приводятся мнения ряда ученых о различных аспектах формирования основных компетенций учащихся и возможности дифференциации в них деловых и предпринимательских компетенций.

Ключевые слова: креативные предпринимательские навыки, информатизация общества, развитие технологий, профессиональная мобильность, удовлетворение потребностей, формирование у девочек-подростков.

FORMATION OF CREATIVE ENTREPRENEURIAL SKILLS IN TEENAGE GIRLS IN COOPERATION WITH FAMILY, NEIGHBORHOOD AND EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Tolaganova Nigora Rahmonali kizi

Foundation doctoral student of the research institute “family and gender” under the committee of family and women of the Republic of Uzbekistan

Abstract. The article reflects on the essence, content, criteria and indicators of creative entrepreneurial skills in teenage girls based on the analysis of scientific literature and materials. Also, the various aspects of the formation of the main competencies of students and the possibility of distinguishing between business and entrepreneurial competencies in them are presented in the opinions of several scientists.

Key words: creative, skills, girls, informatization of society, technology development, professional mobility, satisfaction of needs, formation.

Дунёда умумтаълим фанлари мазмунини креатив ёндашув тамойили асосида ишлаб чиқиш ва ўқувчиларни кенг тармоқли, умуммеҳнат тайёргарлигини ривожлантириш, янги меҳнат шароитларига мослашувчан билим ва малакаларни мустақил эгаллашга йўналтирилган педагогик технологияларни такомиллаштириш, реклама ва тижорий фаолият кўникмаларини таркиб топтириш, кичик корхонани бошқаришга ўргатишга алоҳида эътибор қаратилади.

Мактаб таълимида асосий эътибор ўқувчиларнинг кичик ишлаб чиқариш корхоналарига жалб этишга қаратилади. Мазкур кичик ишлаб чиқариш корхоналари ўқувчиларни бизнес оламига олиб кириш орқали амалий кўникма ва шахсий сифатларни ривожлантириш, ташаббускорлик ва креативликни рағбатлантиришни таъминлайди, уларда мустақил ўз-ўзини иш билан таъминлаш имконияти мавжудлигига ишончни қарор топтиради ва касбга йўналтиришга ёрдам беради.

Жамият ва давлат талабларига мувофиқ, таълим тизими жамиятни ахборотлаштириш ва янги юқори технологияларни ривожлантириш шароитида юқори маълумотли ёшлар ва касбий ўсишга ва касбий ҳаракатчанликка қодир малакали мутахассисларни ўқитиш ва тарбиялашга мўлжалланган. Меҳнат бозори эҳтиёжларини қондириш мақсадида иш берувчилар ва бошқа мутахассис мижозларни ҳамкорликка жалб қилиш масаласи алоҳида долзарб ҳисобланади.

Дунёда ўқувчиларда, айниқса, ўсмир қизларда тадбиркорлик фаолияти учун зарур касбий сифатларни ривожлантириш ва ишлаб чиқаришни ташкил этиш соҳасида билим ва кўникмаларни таркиб топтириш, касбий-меҳнат таълими ва касбга йўналтириш жараёнида тадбиркорлик фаолиятига жадал тайёрлашга доир илмий изланишлар олиб борилмоқда. Айниқса, креатив тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантиришга ёрдам кўрсатиш учун таълимий муҳитни структуралаштириш ва қўллаб-қувватлаш воситаларини ишлаб чиқиш, тадбиркорлик таълимини жорий этишнинг фаолиятга йўналтирилган, ўқув фани сифатида, модулли, умумтаълимий ёндашув моделларидан самарали фойдаланиш, бизнес асослари ва тадбиркорлик амалиётини ўргатишга доир таълимий дастурларни ишлаб чиқишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Шунингдек, ҳар бир ўқувчини тадбиркорлик билан шуғулланишнинг фундаментал асосларини эгаллаши, тадбиркорлик фаолиятига доир амалий кўникмаларни ўзлаштиришига эришишнинг педагогик механизмларини такомиллаштириш муҳим аҳамият касб этади.

Республикамызда Президентнинг “Ёшлар – келажагимиз” Давлат дастури тўғрисида”ги Фармони доирасида ёшлар тадбиркорлигини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, ёшларни бизнес билан шуғулланишга фаол жалб қилиш учун шарт-шароитлар яратиш, иш ўринлари яратиш ва ёшлар бандлигини таъминлаш мақсадида қатор ислохотлар амалга оширилмоқда. Шу билан бирга оила, маҳалла ва таълим муассасаси ҳамкорлиги асосида ўсмир қизларда креатив тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантиришнинг педагогик модели ва интегратив технологиясини ишлаб чиқиш зарурияти мавжуд.

Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида “Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни кенг ривожлантириш учун қулай ишбилармонлик муҳитини яратиш, меҳнатга лаёқатли аҳолининг меҳнат ва тадбиркорлик фаоллигини тўлиқ амалга ошириш учун шароитлар яратиш, хусусий тадбиркорлик соҳасига жалб этиш” каби муҳим вазифалар белгилаб берилди. Бу эса, оила, маҳалла ва таълим муассасаси ҳамкорлиги асосида ўсмир қизларда тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантириш компонентлари, мезонлари, педагогик-психологик хусусиятлари, дидактик имкониятларини аниқлаштириш,

ўқувчиларда тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантиришнинг педагогик тизимини такомиллаштиришни тақозо этади.

Шунингдек, янги тез ўзгарувчан иқтисодий ва ижтимоий шароитларда ҳаётга ва меҳнатга кирадиган ёш авлодни тайёрлашга қўйиладиган талаблар ва уларни амалга оширишнинг педагогик асосларининг етарли даражада ривожланмаганлиги ўртасидаги, илмий-техник тараққиётнинг ишлаб чиқариш ва ишлаб чиқаришнинг инсон салоҳиятига бўлган талаблари ўртасида, тадбиркорлик ва ўқувчиларнинг креатив тадбиркорлик кўникмаларини шакллантириш жараёнининг моҳиятини етарли даражада ишлаб чиқмаслик, фаол, саводли, ишбилармон, малакали ёш ходимларга муҳтож бўлган иш берувчиларнинг талаблари ва ҳозирда ўқувчилар келажақда мустақил ишлаш, бизнес дунёсига мослашиш ва муваффақиятли мартаба қуриш учун ўқитилаётган тизим ўртасидаги қарама-қаршилиқлар билан боғлиқ.

Республикамиз олимларидан Б. Ганиев, М. Иномова, В. Каримова, Н. Муродова, О. Мусурмонова, Қ. Муфтайдинов, А. Мухсиева, Н. Нагметова, Д. Рахматуллаева, Ф. Хидирова, Б. Ходжаев, А. Худойкулов, З. Худойбердиев, Г. Шодиева, Ш. Қувондиқов, М. Қуронон, О. Ҳайитов, Р. Ҳакимов кабиларнинг илмий-тадқиқотлари, монография ва ўқув қўлланмаларида ўқувчиларда тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантиришнинг ҳуқуқий, иқтисодий, психологик ва педагогик жиҳатлари, мактаб ва оила ҳамкорлигини таъминлаш механизмлари, ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатиш, мустақил оилавий ҳаётга тайёрлаш масалалари ёритиб берилган.

Мактаб ўқувчиларининг асосий компетенцияларини шакллантиришнинг турли жиҳатлари ва улардаги бизнес ва тадбиркорлик компетенцияларини фарқлаш имконияти МДҲ олимларининг – Э.Ф. Зеер, И.А. Зимная, Г.П. Скамницкая, В.В. Сериков, Г.К. Селевко, С.Ю. Сенатор, О. Е. Лебедева, А.М. Осипова, В.Г. Зарубина ва бошқаларнинг асарларида келтирилган.

Хорижий педагогика ва амалиётда Д. МакКлелланд, Р. Боятцис, Ж. Равен, кичик Л.М. Спенсер, С.М. Спенсер, С. Уиддетт, С. Холлифорд, П. Маршал, Н. Баутлер, М. Дэлзиэл, Ж. Нил, Ж. Уэйтмен, П. Карстанье каби олимлар томонидан бизнес компетенциялари, етакчилик қобилиятлари, хусусиятлари ва умуман тадбиркорга, хусусан, ёш тадбиркорга қўйиладиган талаблар ўрганилади. Шунингдек, ёшларни ишда фаол иштирок этишга тайёрлаш ва ўз бизнесини ташкил этишда компетенциялар ва ижтимоий шериклик методологиясини қўллаш билан шуғулланишган.

Ўсмир қизларни тадбиркорлик фаолиятига йўналтириш, уларни касбий шакллантириш, умумтаълим мактаби ва оила интерпацияси каби масалалар тадқиқ этилган бўлса-да, оила, мактаб ва таълим муассасаси ҳамкорлиги асосида ўсмир қизларда креатив тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантиришнинг педагогик асослари яхлит тарзда тадқиқ этилмаган. Бу эса, ўсмир қизларда креатив тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантиришнинг миллий-маънавий омиллари, педагогик-психологик хусусиятлари, замонавий ёндашувлар асосида ўсмир қизларда креатив тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантиришнинг амалий-технологик тизимини такомиллаштиришни тақозо этади.

Шундан келиб чиқиб қуйидаги вазифалари аниқланди:

1. Ўқувчи-ёшларни тарбиялашда оила, маҳалла ва таълим муассасалари ҳамкорлигининг ўрни ва аҳамиятини аниқлаш.

2. Ўсмир қизларда креатив тадбиркорлик кўникмаларининг моҳияти ва мазмунини очиб бериш ва асослаш.

3. Тадбиркорлик фаолияти ва ўспирин қизларда креатив тадбиркорлик кўникмаларини шакллантириш.

4. Креатив тадбиркорлик ва ўсмир қизларнинг тадбиркорлик фаолиятининг

иқтисодий мазмунини аниқлаш

5. Оила, маҳалла ва таълим муассасасалари ҳамкорлигида ўспирин қизларда креатив тадбиркорлик кўникмаларини шакллантириш моделини ишлаб чиқиш ва экспериментал равишда синаб кўриш.

6. Ўсмир қизларда креатив тадбиркорлик кўникмаларининг шакллантириш даражасини аниқлашга имкон берадиган мезон ва кўрсаткичларни аниқлаш; улар асосида ўсмир қизларнинг тадбиркорлик саводхонлигини ошириш самарадорлигини назорат қилиш.

7. Оила, маҳалла ва таълим муассасасалари ҳамкорлигида ўспирин қизларда креатив тадбиркорлик кўникмаларини самарали шакллантиришни ташкил этиш бўйича таълим муассасалари ўқитувчилари ва ота-оналар, маҳалла фаоллари учун илмий, услубий ва амалий тавсиялар ишлаб чиқиш.

Илмий адабиётлар ва материалларни таҳлил қилиш асосида ўсмир қизларда креатив тадбиркорлик кўникмаларининг моҳияти, мазмуни, мезонлари ва кўрсаткичлари аниқланади:

– оила, маҳалла ва таълим муассасасалари ҳамкорлиги имкониятларидан фойдаланган ҳолда ўсмир қизларда креатив тадбиркорлик кўникмаларини ва фазилатларини шакллантиришга мақсадли ва комплекс ёндашув зарурлиги илмий асосланган;

– “таълимда оила, маҳалла ва таълим муассасасалари ҳамкорлиги”, “ёшлар тадбиркорлиги”, “ўсмир қизларнинг тадбиркорлик кўникмалари”, каби тушунчаларни аниқлаштириш ва белгилаш орқали тадқиқотнинг терминологик соҳаси кенгайтирилди.

Дастлабки позицияларнинг услубий асослиги, тадқиқотнинг мақсад ва вазифаларига мос келадиган материални таҳлил қилишнинг кенг усуллари; илгари сурилган мақсаднинг тўғрилигини тасдиқловчи тадқиқотнинг асосий назарий қоидаларини экспериментал текшириш ва мослаштириш билан таъминланади.

Хулоса қилиб айтганда, ўсмир қизларда креатив тадбиркорлик сифатларини ривожлантиришнинг аҳамиятли жиҳатлари сифатида қуйидагиларни ажратиб кўрсатиш мақсадга мувофиқдир: ўсмир қизларнинг тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиши оилаларнинг фаровонлик даражасини оширишда муҳим ўрин тутди; ўсмир қизларнинг тадбиркорлиги натижасида уларнинг хулқ-атворида эркакларга нисбатан ижобий ижтимоий-аҳамиятли меъёрлар шаклланади; ўсмир қизларнинг креатив тадбиркорлиги асосида улар томонидан амалга ошириладиган бизнес технологиялар замонавий ўзгаришларга тезкор мослашиши, инновацияларга бойлиги ва ижтимоий йўналганлиги билан аҳамиятли саналади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. “Таълим тўғрисида”. www.lex.uz
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 мартдаги “Худудларда аҳолини тадбиркорликка кенг жалб қилиш ва оилавий тадбиркорликни ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4231-сон қарори, www.lex.uz
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 мартдаги “Хотин-қизларнинг меҳнат ҳуқуқлари кафолатларини янада кучайтириш ва тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлашга оид чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4235-сон қарори, www.lex.uz
4. Ортиқова М. Умумтаълим мактаби ва оила ҳамкорлиги асосида ўқувчиларда тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантириш / п.ф.д. диссертацияси – Андижон., 2020.

O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISH TIZIMI VA TARKIBIY KOMPONETLARI

Pardaev Zafar

Samarkand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish markazi bo'lim boshlig'i

Annotatsiya. Maqolada olib borilayotgan islohotlarga mutanosib ravishda o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash va ularni kasb hunarga yo'naltirish tizimini takomillashtirish zarurligi yoritilgan. Shuningdek, muallif o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda amalga oshirishiriladigan ishlar takliflar berib o'tgan.

Tayanch so'zlar. O'quvchilarini kasbga yo'naltirish ko'nikmalari, takomillashtirish, professional maslahatchi, suhbatlashish, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish.

СИСТЕМА И СТРУКТУРНЫЕ КОМПОНЕНТЫ ПРОФИОРИЕНТАЦИИ УЧАЩИХСЯ

Пардаев Зафар

*Начальник отдела Центра обучения педагогов новым методикам
Самаркандской области*

Аннотация. В статье подчеркивается необходимость выявления интересов студентов и совершенствования системы направления их в профессию пропорционально проводимым реформам. Также автор дал предложения, что делать, чтобы ориентировать студентов в профессии.

Ключевые слова. Навыки ориентации студентов в профессии, совершенствования, профессионального консультанта, беседы, рационального использования трудовых ресурсов.

VOCATIONAL GUIDANCE SYSTEM AND STRUCTURAL COMPONENTS

Pardaev Zafar

*Head of the Department of the Samarkand Regional Center for teaching educators on
new methodologies*

Abstract. The article highlights the need to identify the interests of students and improve the system of directing them to the profession in proportion to the ongoing reforms. Also, the author gave suggestions on what to do to guide students to the profession.

Key words. Skills of guiding students to the profession, improvement, professional consultant, conversation, rational use of labor resources.

Dunyo amaliyotini chuqur tahlil qilgan holda ta'lim berish shakllari ham o'zgartirildi. Jumladan, sirtqi, kechki ta'lim shakllari bilan birgalikda masofaviy va dual ta'lim shakllari joriy etildi.

O'zbekistonda mehnat bozori talablaridan kelib chiqqan holda ishsizlikni kamaytirish, fuqarolarni ishga joylashishida duch kelishi mumkin bo'lgan byurokatik to'siqlarni oldini olish, inson kapitalini to'laqonli rivojlantirish, oliy va professional ta'limning sifatini oshirish, mehnat bozorining rivojlanishi tendensiyalarini inobatga olgan holda, aholining keng qatlamlarini talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish hamda malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish uchun shart-sharoitlarni yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Malakalarni baholash tizimini tub-

dan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 31-dekabrda PQ-4939-son qaroriga asosan "Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatori" yangi tarhda ishlab chiqildi. Mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha tegishli malaka darajasiga erishish yo'llarining moslashuvchanligi va xilma-xilligini ta'minlovchi Malaka darajalariga erishish sxemasiga asosan milliy malaka ramkasi yaratildi¹.

Olib borilayotgan islohotlarga mutanosib ravishda o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash va ularni kasb hunarga yo'naltirish tizimini takomillashtirish zarur. Bunda:

birinchidan, o'quvchilarni qiziqishlarini aniqlashda xorijiy mamlakatlar tajribasini jumladan, Germaniya tajribasini chuqur o'rgangan holda 7-sinfdan boshlab o'quvchilarni qiziqish va qobiliyatlariga qarab yo'naltirish;

ikkinchidan, barcha fanlar chuqurlashtirilib o'tiladigan ixtisoslashgan umumta'lim muassasalarining o'qishga qabulini bir xilda 7-sinfdan etib belgilash;

uchinchidan, o'quvchilarni qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash bo'yicha mavjud tizimni yangi zamonaviy metodlar yordamida takomillashtirish va uni onlayn tarzda barcha o'quvchilar foydalanishi uchun qulay shaklga keltirish zarur.

Shuningdek, ishsizlikni oldini olish, o'quvchilarni hayotga tayyorlashni samarali tashkil etish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

birinchidan, ta'limda izchillikni ta'minlash, boshqaruvda yagona tizim yaratish, bino va inshootlaridan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida barcha kasb-hunar maktablarini xalq ta'limi vazirligi tasarrufiga o'tkazish;

ikkinchidan, kasb-hunar maktablarida o'tiladigan kasblarni qayta ko'rib chiqish, zamonaviy kasblarni o'rgatishga moslashtirish;

uchinchidan, barcha kasb-hunar maktablarini hududdagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, agrotexnologik korxonalariga birlashtirish, korxonalariga ishchilarni faqat mazkur muassasa bitiruvchilari orasidan olish tizimini yaratish;

to'rtinchidan, kasb-hunar maktablariga yirik, katta mablag' talab etadigan jixozlarni xarid qilishni cheklash, o'quvchilarni asosan korxonalar va tashkilotlarda amaliyot o'tashlariga sharoit yaratish zarur.

Bugungi kunda umumta'lim maktablarining asosiy vazifalaridan biri – o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyatda faol ishtirok etish va faoliyatga tayyorlashdir. Kasb-hunarga yo'naltirish – o'quvchilarning kasb-hunar va mehnat bilan bog'liq rejalarini tuzish, kasb-hunar va mehnat faoliyati sohasini tanlash jarayoniga rahbarlik qilish demak. Bundan kelib chiqadiki, kasb-hunarga yo'naltirish maktab faoliyatining ajralmas qismidir. Bu na faqat maktabning, balki barcha o'quvchi yoshlar ta'lim-tarbiyasiga ma'sul ijtimoiy institutlar, shu jumladan, oila, mahalla, davlat tashkilotlari, yoshlar ittifoqi va boshqalarning asosiy vazifasidir.²

O'quvchi professional maslahatchi (maktab yoki uchinchi tomon mutaxassisi) bilan suhbatlashish imkoniyatiga ega. Ayniqsa, o'qish yo'nalishini tanlash kerak bo'lgan paytlarda maslahatchi bilan suhbatlashish imkoniyati dolzarbdir. Professional maslahatchi bilan muloqot barcha o'quvchilar uchun ochiq, mutaxassis har bir bolaga alohida vaqt ajratadi.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etishda 4 ta asosiy komponentlarga alohida e'tibor qaratish zarur.

O'quvchilarga zamonaviy kasblar haqida tushunchalar berish.

O'quvchilar qiziqishlari, qobiliyati va kasbga moyilligini aniqlash bo'yicha test.

Mehnat bozori haqida ma'lumot berish.

Kasbga yo'naltirish bo'yicha amaliy tadbirlar (ekskursiya, soha mutaxassislari bilan

¹ <https://lex.uz/docs/5203490#5205569>, PQ-3949, 2020.31.12

² P.Xolmatov, J.Orishev "Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilar kasbiy tarbiyasini shakllantirishning maqsad va vazifalari", <https://pshedu.jspi.uz/index.php/phys-tech/article/download/329/188>

uchrashuvlar va boshqalar).

O'quvchilarga zamonaviy kasblar to'g'risida tushunchalar berish maqsadida umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tiladigan umumta'lim fanlari bo'yicha Milliy o'quv dasturlari doirasida 1-11-sinflar uchun yaratilayotgan darsliklarga kasbga oid mavzular kiritilgan.

O'tgan yillar davomida umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish, kasb o'rgatishni tashkil qilish bo'yicha bir qancha me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilib, huquqiy asoslar yaratildi.

O'quvchi professional maslahatchi (maktab yoki uchinchi tomon mutaxassisi) bilan suhbatlashish imkoniyatiga ega. Ayniqsa, o'qish yo'nalishini tanlash kerak bo'lgan paytlarda maslahatchi bilan suhbatlashish imkoniyati dolzarbdir. Professional maslahatchi bilan muloqot barcha o'quvchilar uchun ochiq, mutaxassis har bir bolaga alohida vaqt ajratadi.

Xulosa qilib aytganda yurtimizda umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbga yo'naltirishning konseptual asoslari yaratilgan bo'lib, ular asosida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llagan holda kasbga yo'naltirishning takomillashgan zamonaviy mexanizmlarini joriy etish zaruriyati vujudga kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”. Prezident Qarori. 21.06.2022-yil, PQ-289.
2. “2022–2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”. Prezident Qarori. 06.07.2022-yil, PQ-307.
3. 3. Mamadaliyev A. va mualliflar jamoasi - Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'tiladigan kasbiy ta'lim fani uchun 27 turdagi kasblar bo'yicha o'quv dasturlar. 167 bet.
4. Akromov M – “O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda kinematografiyaning o'rnini”. Yangilanayotgan jamiyatda yoshlarning ijtimoiy faolligi: muammo va yechimlar Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami. 2019 yil 20 noyabr. 56-bet.
5. Абдиев К.С. Формирование ИТ-компетентности как основа подготовки будущих специалистов-статистиков: дис. ... док. пед. наук: 13.00.02. – Алматы: Каз. нац. пед. ун-т им. Абая, 2010. – 331 с.
6. Abduqodirov A. va boshqalar. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Iste'dod jamg'armasi – 2008.-145 b

NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TRANSVERSAL KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Saliboyeva Bibi Robiya Odilovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida transversal kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari bayon etilgan. Bunda asosan konstruktivizm nazariyasi, pragmatizm nazariyasi va gumanizm nazariyalari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Axborot-kommunikatsion, kompetentsiya, texnologiya, konstruktivizm, kompetentlik, pragmatizm, metodik, gumanizm.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ТРАНСВЕРСАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Салибаева Биби Робия Одиловна

Институт переподготовки и повышения квалификации директоров и специалистов дошкольных образовательных организаций базовый докторант

Аннотация. В данной статье изложены теоретические основы развития трансверсальной компетентности в негосударственных дошкольных образовательных организациях. В нем в основном излагаются теория конструктивизма, теория прагматизма и теории гуманизма.

Ключевые слова: информационно-коммуникативный, компетентность, технология, конструктивизм, компетентность, прагматизм, методизм, гуманизм.

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF TRANSVERSE COMPETENCE IN NON-GOVERNMENTAL PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Salibayeva Bibi Robiya Odilovna

Basic doctoral student of the Institute for retraining and professional development of directors and specialists of preschool educational organizations

Abstract. This article outlines the theoretical foundations for the development of transverse competence in non-governmental preschool organizations. It mainly outlines the theory of Constructivism, the theory of pragmatism and the theories of humanism.

Keywords: information-communicative, competence, technology, constructivism, competence, pragmatism, methodical, humanism.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda turli usullar qo'llaniladi. Bu usullar tarbiyachilarning bilimlari va malakasini oshirishga qaratilgan bo'lib, ularning amaliyotda qo'llanilishiga yordam beradi. Kasbiy kompetentlikni shakllantirishda qo'llaniladigan usullar tarbiyachi-

larning ta'lim jarayonida samarali faoliyat ko'rsatishlari uchun zarur bo'lgan bilimlar va ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Transversal kompetentliklarni rivojlantirish nazariy asoslari turli pedagogik va psixologik nazariyalarga asoslanadi. Ushbu nazariyalar transversal kompetentliklarni shakllantirish va rivojlantirishda turli yondashuvlar va usullarni qo'llashni tavsiya qiladi. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida transversal kompetentliklarni rivojlantirishda quyidagi nazariy asoslar qo'llaniladi: konstruktivizm, pragmatizm va gumanizm.

Konstruktivizm nazariyasi

Konstruktivizm nazariyasiga ko'ra, bolalar va tarbiyachilar bilimlarni o'z faoliyatlari va tajribalari orqali mustaqil ravishda shakllantirishi lozim. Ushbu nazariyaga ko'ra, ta'lim jarayoni faol ishtirok va mustaqil tadqiqot orqali amalga oshirilishi kerak. Bu yondashuv tarbiyachilarning transversal kompetentliklarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u ularning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini oshiradi.

Misol: Tarbiyachilarga turli muammolarni mustaqil ravishda yechish va yangi bilimlarni o'zlashtirish imkoniyati yaratiladi. Masalan, tarbiyachilar bolalarga yangi mavzuni o'rgatishda ularni muammoni mustaqil ravishda hal qilishga undaydi. Bolalarga birgalikda ishlash va turli g'oyalarni muhokama qilish imkoniyati beriladi, bu esa ularning ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Tarbiyachilar bolalarga yangi mavzularni o'rgatishda kreativ usullardan foydalanishi mumkin, masalan, bolalarga loyiha ishlab chiqish yoki rolli o'yinlar o'tkazish orqali yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish imkoniyatini beradi.

Pragmatizm nazariyasi

Pragmatizm nazariyasi esa ta'lim jarayonini amaliyot bilan bog'liq ravishda tashkil etishni taklif qiladi. Bu yondashuv tarbiyachilarning transversal kompetentliklarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u ularning amaliy ko'nikmalarini oshiradi. Pragmatizm nazariyasi asosida, tarbiyachilarga turli amaliyotlar va mashg'ulotlar orqali o'z bilimlarini mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Misol: Tarbiyachilar bolalarga turli amaliy mashg'ulotlar va tajribalar o'tkazib, ularning bilimlarini mustahkamlaydi va amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, bolalarga laboratoriya mashg'ulotlari o'tkazish, hududni o'rganish, turli loyihalar yaratish va ularni amaliyotda qo'llash orqali ta'lim berish mumkin. Pragmatizm nazariyasiga ko'ra, tarbiyachilar bolalarni real dunyoda uchraydigan muammolarni hal qilishga tayyorlaydi va ularga haqiqiy hayotda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ko'nikmalarni o'rgatadi.

Gumanizm nazariyasi

Gumanizm nazariyasi esa ta'lim jarayonida har bir shaxsning individual xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olishni tavsiya qiladi. Bu yondashuv tarbiyachilarning transversal kompetentliklarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u ularning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Gumanizm nazariyasi asosida, tarbiyachilarga ularning individual xususiyatlariga mos keladigan ta'lim metodlari va usullari taklif etiladi.

Misol: Tarbiyachilar bolalarning individual xususiyatlari va qiziqishlarini inobatga olib, ularga mos ta'lim metodlarini qo'llashadi. Masalan, bolalarning qiziqishlariga mos keladigan mavzularni tanlab, ularga qiziqarli va motivatsiya beruvchi mashg'ulotlar o'tkazish mumkin. Shu bilan birga, tarbiyachilar bolalarning individual rivojlanish sur'atini hisobga olib, ularga individual yondashuv ko'rsatishadi. Masalan, yuqori intellektual salohiyatga ega bolalarga qiyinroq vazifalar va loyihalar taklif qilinishi mumkin, shu bilan birga, qo'shimcha yordamga ehtiyoji bo'lgan bolalarga ularning ehtiyojlariga mos keladigan ko'mak beriladi.

Nazariy asoslarning amaliyotga tatbiq etilishi

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida transversal kompetentliklarni rivojlantirishda yuqorida keltirilgan nazariy asoslar amaliyotga tatbiq etiladi. Bu nazariy asoslar tarbiyachilarning kasbiy faoliyatida samarali qo'llanilib, ularning transversal kompetent-

liklarini rivojlantirishga yordam beradi.

Konstruktivizm nazariyasining amaliyotdagi tatbiqi: Tarbiyachilar bolalarga yangi mavzularni o'rgatishda faol tadqiqot va muammo yechish usullarini qo'llashadi. Masalan, bolalarga yangi mavzularni o'rganishda loyiha ishlab chiqish, tadqiqot o'tkazish yoki rolli o'yinlar o'tkazish orqali yangi ma'lumotlarni mustaqil ravishda o'zlashtirish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, tarbiyachilar bolalarni faol ishtirok ettirish va ularni mustaqil fikrlashga undash orqali ularning ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Pragmatizm nazariyasining amaliyotdagi tatbiqi: Tarbiyachilar bolalarga amaliy mashg'ulotlar va tajribalar orqali ta'lim berishadi. Masalan, bolalarga laboratoriya mashg'ulotlari, hududni o'rganish, turli loyihalar yaratish va ularni amaliyotda qo'llash orqali ta'lim berish mumkin. Bu yondashuv bolalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish va ularni real dunyoda uchraydigan muammolarni hal qilishga tayyorlash imkoniyatini beradi.

Gumanizm nazariyasining amaliyotdagi tatbiqi: Tarbiyachilar bolalarning individual xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olib, ularga mos keladigan ta'lim metodlarini qo'llashadi. Masalan, bolalarning qiziqishlariga mos keladigan mavzularni tanlab, ularga qiziqarli va motivatsiya beruvchi mashg'ulotlar o'tkazish mumkin. Shu bilan birga, tarbiyachilar bolalarning individual rivojlanish sur'atini hisobga olib, ularga individual yondashuv ko'rsatishadi. Bu yondashuv bolalarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi va ularning ta'lim jarayonida samarali ishtirok etishlarini ta'minlaydi.

Shu tariqa, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida transversal kompetentliklarni rivojlantirish nazariy asoslari turli pedagogik va psixologik nazariyalarga asoslanadi. Bu nazariy asoslar amaliyotda samarali qo'llanilib, tarbiyachilarning transversal kompetentliklarini rivojlantirishga yordam beradi. Tarbiyachilarning kasbiy faoliyatida yuqorida keltirilgan nazariy asoslarni qo'llash orqali ularning transversal kompetentliklari samarali rivojlantiriladi va ta'lim jarayonining sifatini yaxshilashga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mavlonov N.Sh. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining axborot texnologiyalarini o'zlashtirishda mustaqil qobiliyatlarni rivojlantirish. // Maktabgacha ta'lim sifatini oshirish tendensiyalari: Innovatsiya, ta'lim tajriba va kadrlar tayyorlash (Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya) 2023-yil 9-10-iyun
2. Mavlonov N.Sh. Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning axborot texnologiyalarini o'zlashtirishda mustaqil qobiliyatlarini rivojlantirish. // Maktabgacha ta'limda davlat va nodavlat sektorini rivojlantirish: yangi shakillari va ta'lim mazmuni (Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya) 2020-yil 13-may – B. 209-210
3. Olimov Q.T., Mavlonov N.Sh. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini pedagog kadrlar bilan ta'minlash va ularning kompetentsiyasini oshirish jarayonining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari. /– B. 21-23

NUTQ NUQSONIGA EGA BOLALARGA TA'LIM BERISHDA OLIB BORILADIGAN LOGOPEDIK ISHLAR

Voxobova Munira Sadrdinovna

Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Аннотация. Maqolada, alaliya nutq nuqsoniga ega o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi va ularning bosqichlari keltirib o'tilgan. Shuningdek, tanqidiy fikrlashning shakllanishi va rivojlanishiga yordam beruvchi muayyan muhit va shart-sharoitlar yaratilishi ham ko'rsatib berilgan.

Калит so'zlar. Tanqidiy fikrlash, zamonaviy pedagogika, analitik ko'nikma, talaba, pedagog,

ЛОГОПЕДИЧЕСКАЯ РАБОТА, ПРОВОДИМАЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ РЕЧИ

Вохобова Мунира Садрдиновна

Преподаватель кафедры педагогики и психологии Наманганского государственного педагогического института

Annotatsiya. В статье представлена технология развития навыков критического мышления учащихся в высшем учебном заведении и их этапы. Также показано создание определенной среды и условий, способствующих формированию и развитию критического мышления.

Ключевые слова. Критическое мышление, современная педагогика, аналитические навыки, студент, педагог

LOGOPEDIC WORK CARRIED OUT IN TEACHING CHILDREN WITH SPEECH IMPAIRMENTS

Vokhobova Munira Sadrdinovna

Teacher of the Department of pedagogy and psychology of Namangan State Pedagogical Institute

Abstract. The article cites the technology of developing students' critical thinking skills and their stages in higher education. It is also shown that certain environments and conditions are created that promote the formation and development of critical thinking.

Key words. Critical thinking, modern pedagogy, analytical skills, student, educator.

Kirish: O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "gumanitar va pedagogik yo'nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e'tiborni kuchaytirish, pedagogik ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish, mazkur yo'nalishda tahsil olayotgan talabalarda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash, hududlardagi barcha umumta'lim maktablariga xorijiy tillarni o'zlashtirgan, yuqori malakali professional pedagog kadrlarni etkazib berish" ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu bois talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishning optimal variantlarini tanlash va uning amaliy asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tanqidiy fikrlash bir qator sabablarga ko'ra ega bo'lish uchun juda muhim mahoratdir. Eng muhim sabablardan ba'zilari: Muammoni samarali hal qilish: tanqidiy fikrlash

talabalarni murakkab muammolarni tahlil qilish, asosiy sabablarni aniqlash va asosli va innovatsion echimlarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega. Shu sababli, bu talabalarga qiyin savollar va tushunchalar kabi to'siqlarni samarali engib o'tish va tushunishga imkon beradi. Qaror qabul qilish: hayot katta va kichik qarorlar bilan to'ldiriladi va tanqidiy fikrlash to'g'ri tanlov qilishda asosiy rol o'ynaydi. Ijobiy va salbiy tomonlarini tortib, mumkin bo'lgan oqibatlarni baholay oladigan va turli istiqbollarni ko'rib chiqa oladigan talabalar hayoti va ta'lim sayohatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan ma'lumotli va mas'uliyatli qarorlar qabul qilish uchun yaxshiroq jihozlangan. Yaxshilangan ta'lim: tanqidiy fikrlash samarali o'rganish bilan birga keladi.

Asosiy qism: Talabalar ma'lumotni tanqidiy tahlil qila olsalar, ular ishonchli manbalarni aniqlashda, noto'g'ri fikrlarni aniqlashda va haqiqatni fikrdan ajratishda yaxshiroq bo'lishadi. Bu mavzularni chuqurroq tushunishga olib keladi va umrbod o'rganishga bo'lgan muhabbatni kuchaytiradi. Analitik ko'nikmalarni rivojlantirish: tanqidiy fikrlash analitik ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, talabalarga murakkab muammolarni kichikroq, boshqariladigan tarkibiy qismlarga ajratishga imkon beradi. Ushbu ko'nikma turli xil o'quv fanlarida juda muhimdir va keyinchalik hayotda, ish joyida ham qo'llaniladi. Ijodkorlik va innovatsiya: tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish ijodkorlik va innovatsiyalarni rag'batlantiradi. Talabalar qutidan tashqarida o'ylashga, odatiy donolikka qarshi chiqishga va yangi g'oyalarni o'rganishga da'vat etilganda, ular hayotning barcha jabhalarida ixtirochi va muammolarni yaxshiroq hal qilishadi

Bugungi kunda tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxsga jamiyatimizda katta ehtiyoj mavjud: bildirilgan fikr va mulohazalarni tahlil qila oladigan, dialog o'tkaza oladigan, muammoning mohiyatini va uni hal qilishning muqobil usullarini aniqlay oladigan, har doim tekshirilishi mumkin bo'lgan haqiqatni ajrata oladigan, faraz va shaxsiy fikrdan kelib chiqqan holda to'g'ri xulosa chiqara oladigan shaxsni shakllantirish mamlakatimiz ta'lim tizimining yetakchi muammolaridan biridir.

Aynan mehnat bozorida raqobatbardosh bo'la oladigan mutaxassisni tayyorlash uchun uning chuqur bilim olishi, shu bilan birga o'z-o'zini tarbiyalash takomillashtirilishga ijobiy munosabatda bo'lishi uchun ijobiy motivatsiya va istiqbollarni yaratish muhimdir. Bundan tashqari, talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zarurati sifatida quyidagi sabablarni keltirish mumkin: 1. Axborot asrida undan cheksiz foydalanish sharoitida, uning oqimlarida harakatlana olish, tahlil qilish, asosiy va ikkilamchini ajrata olish, axborotni tanqidiy idrok etish va hokazolar muhim ahamiyatga ega. 2. Ta'lim jarayonidagi o'quv rejaga muvofiq, o'quv materialining doimiy hajmi bilan o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa soatlarining kamayishi munosabati bilan kognitiv mustaqillikni, o'z-o'zini tarbiyalash faoliyatini rivojlantirish, talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Kognitiv bilish faoliyatini, uning mustaqillikni rag'batlantirishning eng samarali usuli- ammoli ta'lim, talabalarlarning aqliy faoliyatini rivojlantirishga yordam beradigan muammoli vaziyatlar. O'quv jarayonida kognitiv faollikni rag'batlantirish va o'quvchilarning hissiy va irodaviy sohasini rivojlantirish usuli- bu talabaning mustaqil bilim faoliyatining muhimligiga ishonirish, unga qiziqishni uyg'otish, ularning mustaqilligining o'sishini kuza-tish, muvaffaqiyatlarini qayd etish va ushbu faoliyatdagi yutuqlar va natijalarni ko'rsatish qobiliyatidir.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi (TFRT) – “tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'qish va yozish” xalqaro loyihasi mualliflari C. Templ, K. Meredit, D. Still, S. Valter tomonidan taklif etilgan ta'lim texnologiyasi. Ushbu o'qitish texnologiyasining muhim xususiyatlarini tushunish uchun tanqidiy fikrlash atamasini tushunish kerak. TFRT axborot bilan ishlashda yuqoridagi ko'nikmalarni shakllantiradigan yaxlit tizimdir. Ushbu texnologiyaning maqsadi talabalarning ta'lim va kundalik hayotda zarur bo'lgan fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Ushbu ta'lim texnologiyasi

- bu birinchi navbatda o'quvchining qiziqishini uyg'otish, uning izlanish va ijodiy faol-

ligini uyg'otish, so'ngra unga materialni tushunish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash va nihoyat, olingan bilimlarni umumlashtirishga yordam beradigan strategiya va usullar majmuasidir. Siz an'anaviy darsning bir qismi sifatida texnologiyadan foydalanishingiz mumkin. TFRT ilmiy kontseptual asosga ega bo'lib, u axborot qidirishni tashkil etishda ham, diskret oqimli ma'lumotlarni qayta ishlashda ham

- o'quv va ilmiy matnlarni o'qishni o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Mantiqiy-axborot yondashuvi TFRT ilmiy kontseptual asosining elementlaridan biridir. D.Xelpern tanqidiy fikrlash mantiqiy va maqsadli ekanligini ta'kidlaydi. Mantiq qonunlari ma'lumotlar bilan ishlashga qaratilgan ba'zi TFRT texnikasi asosida yotadi.

Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini samarali rivojlantirish uchun ularni turli fanlar va fanlar bo'yicha integratsiya qilish muhimdir. Tanqidiy fikrlashni mustaqil kurs sifatida ko'rib chiqish o'rniga, uni turli ta'lim yo'nalishlari o'quv dasturiga kiritish o'quvchilarga tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini real dunyo sharoitida qo'llash imkonini beradi. Ushbu fanlararo yondashuv talabalarni muammolarni turli nuqtai nazardan tahlil qilishga undaydi va ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini kelajakdagi kasbiy faoliyatiga o'tkazish qobiliyatini oshiradi.

Talabalarda tanqidiy fikrlashni samarali rivojlantirish uchun o'qituvchilar qo'llab quvvatlash va kasbiy rivojlanish imkoniyatlariga muhtoj. O'quv dasturlari va seminarlar o'qituvchilarga tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini o'qitishga integratsiyalash uchun strategiyalar va resurslarni taqdim etishi mumkin. O'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlik ilg'or tajriba almashish va o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Tanqidiy fikrlash uchun asos bo'lgan ba'zi muhim ko'nikmalar aloqa va axborot qobiliyatlari, hamkorlik qobiliyatlari, fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlari va shaxslararo va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlari. Bu talabalar har qanday sohada va ta'limning barcha darajalarida zarur bo'lgan muhim ko'nikmalardir.

Pedagog turli xil samarali strategiyalarni qo'llash orqali talabani tanqidiy fikrlash rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shishi mumkin. Birinchidan, u o'ylantiruvchi savollar berish orqali qiziqishni rag'batlantirishi mumkin. Bu talabani turli nuqtai nazarlarni o'rganishga va chuqurroq tushunishga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirishi kerak. Shuningdek, faol ishtirok etish va g'oyalarni ifoda etishga ko'maklashish uchun interaktiv munozaralar va muammolarni hal qilish tadbirlarini o'tkazishlari mumkin. Bu mustaqil va analitik fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, konstruktiv geribildirim bilan, o'qituvchi kuchli tan va yaxshilash hidoyat tomonidan tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlash mumkin.

Yaxshi o'qituvchi, shuningdek, talabalarga maqolalar, videolar va amaliy tadqiqotlar kabi turli xil o'quv materiallaridan foydalanishni tavsiya qiladi, chunki bu talabani turli nuqtai nazarlarga duchor qiladi va ularni turli tomonlardan tanqidiy fikrlashga chorlaydi. Va nihoyat, pedagog ko'pincha o'quvchiga tanqidiy fikrlashni amaliy vaziyatlarda qo'llash, qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshirishga imkon beradigan darslarga real ssenariylarni kiritadilar. Xulosa qilib aytganda, tanqidiy fikrlash talabalar uchun juda muhimdir, chunki bu ularga akademik jihatdan ustun bo'lish, ongli qarorlar qabul qilish va hayotning murakkabliklarini samarali boshqarish imkoniyatini beradi.

Xulosa: Tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lmagan talabalar ko'pincha xabardorlikning etishmasligi, xurofot yoki noxolis bo'lish va hokimiyatga haddan tashqari ishonish kabi ba'zi xususiyatlarni namoyon etadilar. Shuning uchun, bu bolalar ko'pincha haqiqatni so'roq qilmasdan yoki mavzu yoki tushunchaning nuanslarini chuqurroq o'rganmasdan, ularga aytilgan narsalarni ko'r-ko'rona qabul qilishadi. O'z-o'zidan o'ylay olmaslik talabani o'qish yoki vazifalarni mustaqil bajarish irodasini namoyish qilishdan ko'ra, o'qitishni kutishga olib kelishi mumkin. Tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirmaganlar ham o'rganish paytida noqulay bo'lishi mumkin.

Misol uchun, bu talabalar, ba'zi hollarda, axborotga boy muhitda kognitiv ortiqcha

yukni boshdan kechirishlari mumkin. Shuning uchun ularga ma'lumotni samarali qayta ishlash va tahlil qilish qiyin bo'ladi. Bu talabalar, shuningdek, ijtimoiy bosim ichiga berish ehtimoli ko'proq bo'ladi. Bu guruh fikrlashi va ijtimoiy muvofiqlikning yuqori darajasidan kelib chiqadi, bu ularni turli xil fikrlarni bildirishdan yoki umumiy kayfiyatni so'roq qilishdan qaytaradi. Shuning uchun, ular do'stlari yoki bir guruh talabalar to'g'ri deb hisoblagan narsalar bilan birga borishga moyil. Bu jihatlarning barchasi talabalar xato qilishdan yoki xato qilishdan qo'rquvga olib kelishi mumkin. Bu qo'rquv ularni tavakkal qilishdan va yangi g'oyalarni o'rganishdan qochishga, tanqidiy fikrlashni yanada inhibe qilishga olib kelishi mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Xelpern D. Tanqidiy fikrlash psixologiyasi. Sankt-Peterburg: Pyotr, 2000 .
2. Olimovna, R. M. (2023). baynalminal oilalarning ijtimoiy psixologik xususiyatlarini organish ijtimoiy psixologik muammo sifatida. *pedagogs*, 48(2), 49-51. Кулишова М.С. Приемы развития критического мышления школьников при углубленном обучении математике. Научно-методическое обеспечение оценки качества образования. 2020; № 3: 76-80.
3. Немыкина Т.И., Дрягина Г.В., Блялина С.В., Ярославцева Н.А., Ярославцев А.С. Технология развития критического мышления. *Международный журнал экспериментального образования*. 2012; № 4-1: 73-74.
4. Притчина О.В. Роль технологии критического мышления в развитии творческих способностей обучающихся. Развитие творческих способностей обучающихся в современном образовательном процессе. 2015:
5. Mahmudov N. O'qituvchi nutq madaniyati. T: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.
6. Mahmudov N. Ma'rifat manzillari. Toshkent, Ma'naviyat, 1999.
7. Jumaniyozov R., Salimov S. G'oyaviy tarbiyada notiqlik san'ati. Toshkent, 2002.

MILLIY URF-ODAT, QADRIYAT VA AN'ANALAR — TARBIYA ASOSI

Xolliyeva Maftuna Baxtiyor qizi

Osiyo texnologiyalar universiteti" NTM o'qituvchisi

Annotasiya. Ushbu maqolada milliy tarbiyaning mazmun mohiyati, o'quvchi va farzandlarimizni tarbiyalashda sharq allomalarining fikrlari, tarbiyalash usullari haqida keng fikr yuritilgan. Maqoladan barcha ota –ona va o'rta maktab hamda oliy ta'limda faoliyat olib borayotgan professor o'qituvchilar foydalanishlari mumkin.

Kalit so'zlar: qadriyat, an'ana, marosim, urf-odat, bayram, axloq, navro'z bayrami, aqqa marosimi, ism qo'yish odati, hashar, mehmondorchilik, shaxs kamoloti.

НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОБЫЧАИ, ЦЕННОСТИ И ТРАДИЦИИ-ОСНОВА ВОСПИТАНИЯ

Холлиева Мафтуна Бахтиер кизи

Азиатский технологический университет, преподаватель

Аннотация. В этой статье широко обсуждаются сущность национального образования, взгляды учёных Востока на воспитание наших студентов и детей, методы воспитания. Статьей могут воспользоваться все родители и преподаватели, работающие в средних школах и высших учебных заведениях.

Ключевые слова: ценность, традиция, ритуал, традиция, праздник, мораль, праздник Навруз, церемония акика, обычай именованья, хашар, гостеприимство, личное совершенство.

NATIONAL CUSTOMS, VALUES AND TRADITIONS-THE BASIS OF UPBRINGING

Khollieva Maftuna Bakhtiyor kizi

Teacher of Asian University of technology

Annotation. This article widely discusses the essence of national education, the views of Eastern scientists on the education of our students and children, and methods of education. The article can be used by all parents and teachers working in secondary schools and higher educational institutions.

Keywords: Value, tradition, ritual, tradition, holiday, morality, Navruz holiday, aqiq ceremony, naming custom, hashar, hospitality, personal excellence.

Mamlakatimiz istiqlolining dastlabki kunlaridanoq, buyuk ma'naviyatimiz va qadriyatlarimizni, xalqimizning yaratgan boy madaniy merosini avaylab-asrash va keyingi avlodga yetkazish oldimizda turgan muhim masalalardan biridir. Ma'lumki, har qanday jamiyatning kelajagi yosh avlodni qanday ta'lim olishiga va qay tarzda tarbiyalanishiga bog'liq.

Qadriyatlar — inson uchun ahamiyatli bo'lgan millat manfaatlarini yo'lida xizmat qiladigan erkinlik, ijtimoiy adolat, tenglik, haqiqat, ma'rifat, go'zallik, yaxshilik, halollik, burchga sodiqlik singari fazilatlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Qadriyatlar o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi:

tabiiy qadriyatlar (yashash uchun zarur bo'lgan tabiiy shart-sharoitlar);

iqtisodiy qadriyatlar (ishlab chiqarish kuchlari va vositalari);

ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar (erkinlik, tenglik, adolat, tinchlik, hamkorlik);

ilmiy qadriyatlar (bilimlar, tajribalar, yutuqlar);
falsafiy qadriyatlar (g'oyalari, mafkuralari, konsepsiyalar);
badiiy qadriyatlar (san'at, adabiyot, madaniyat);
diniy qadriyatlar (iymon, e'tiqod, vijdon, savob).

Qadriyatlar — borliq va jamiyat, narsalar, voqealar, hodisalar, inson hayoti, moddiy hamda ma'naviy boylklarning ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Qadriyatlar bilan bog'liq masalalar hayotning eng asosiy mavzulari bo'lib hisoblanadi. Qadriyatlarni G'arbda aksiologiya fani o'rganadi. Ko'pchilik kishilar qadriyatdigan narsalar, hodisalar, masalan, qimmatbaho buyumlarni qadriyat deyishadi. Aslida esa ana shularning ijtimoiy ahamiyati qadriyatlarining haqiqiy bahosini aniqlaydi. Biror narsa, voqea yoki hodisaning qadri uning moddiy-iqtisodiy bahosidan katta farq qilishi mumkin. Masalan, ming yil ilgari buyumni hozir ishlatish mumkin emas edi. Uning iqtisodiy qiymati kam, ammo meros sifatida qadri ancha salmoqli bo'lishi mumkin. Qadriyatlar tarixiy va zamonaviy bo'lishi mumkin.

Qadriyatlarining xilma-xil shakllari bor:

moddiy va ma'naviy, umumbashariy, mintaqaviy, umuminsoniy qadriyatlar;
jamiyat hayotining sohalari bo'yicha iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy qadriyatlar;
ijtimoiy ong shakllariga mos keladigan axloqiy, diniy, huquqiy, ilmiy qadriyatlar;
hayotning ijtimoiy tuzilishiga mos keladigan, milliy, sinfiy, partiyaviy va boshqalar.

Qadriyatlar dunyoni bilishning maqsadi, bilimlarimizning haqiqatga mos kelish darajasini aniqlash mezonini yoki biror ideal tarzida ham namoyon bo'ladi. Qadriyatlarining asosiy vazifasi ham ana shular bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng qadriyatlarga e'tibor kuchaydi. Mamlakatimizda umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligi e'tirof qilindi. Milliy qadriyatlar hamda shaxs manfaatlarini umuminsoniy talabalarga moslashtirish va uyg'unlashtirish asosiy vazifa bo'lib qoldi. Qadriyatlar insoniyat tarixi davomida asta-sekin shakllanadilar. Ularning miqdori va sifatining ortishi insoniyat taraqqiyoti qanchalik ilgirilganligining ko'rsatkichidir. Qachonlardir, o'tmishda ba'zi qadriyatlar to'g'risida, masalan, ma'rifat to'g'risida, umuman tushuncha bo'lgan emas. Bunday yangi tushunchalar asrlar o'tgan sari shakllanib, qadriyatlar qatorini boyitib boradi. Ayni vaqtda, qadriyatlar mahalliy, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy bo'lishi tabiiydir. Chunki "Qadriyat" tushunchasi muayyan vaziyat va sharoitda shakllanadi. Jamiyat taraqqiy etgani sari jahonning barcha xalqlariga tegishli, ya'ni umuminsoniy qadriyatlar ko'payib boraveradi va bu o'zgarishlar insoniyat o'z rivojida qanday yangi cho'qqilarni egallayotganining belgisi bo'ladi (masalan, erkinlik, tinchlik, ijtimoiy tenglik, ijtimoiy haqiqat, ma'rifat, ma'naviyat, go'zallik, yaxshilik, insonparvarlik, insoniylik, demokratiya, huquqiy jamiyat, qonunning ustuvorligi, xotin-qizlar ozodligi va boshqalar). Qisqa qilib aytganda, qadriyatlar deganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalarni tushuniladi (masalan, erkinlik, tinchlik, yaxshilik).

Moddiy qadriyatlar haqiqiy qadriyatlarining namoyon bo'lish vositalaridir (masalan, hayotda kerak bo'ladigan turli buyumlar). Insoniyat tarixi unga xizmat qiladigan, o'zi yaratgan, suyanadigan va qo'llab-quvvatlaydigan qadriyatlar dunyosining kengayishi, boyish va takomillashish tarixidir. Insoniyat o'zining kundalik mehnati bilan yaratayotgan sun'iy narsalar dunyosida yashaydi. Biz yaratayotgan ushbu moddiy va ma'naviy boylklarni olamining gultojisi, sarasi qadriyatlardir.

Qadriyatlar va qadriyat mezonlari kishilarga, ularning xulq-atvorini tartibga solish va to'g'ri yo'naltirishga xizmat qiladi. Bunday o'ziga xos boshqarishning samaradorligi kishilarimizning qadriyatlar olamini bilishiga bog'liq. Shu bilan birga, fanda qadriyatlarining milliy va umuminsoniy turlarga ajratilishi an'ana tusiga kirgan.

Milliy qadriyatlar ma'lum bir millat, xalq va elatlarning o'z tarixiy taraqqiyotida yaratadigan barcha moddiy va madaniy-ma'naviy boylklari yig'indisidan iboratdir.

Qadriyatlar turli-tuman bo'lib, bular ichida "Eng oliy qadriyat — inson" hisoblanib,

qolgan barcha qadriyatlar unga xizmat qiladi. Inson qadriyatining ma'naviy, tarixiy hamda ta'limiy jihatlari o'ziga xos yangicha fikrlash va yondoshishlarga asoslanadi. Jamiyatda milliy qadriyatlarni o'z qalbida mustahkam saqlash, atrof-muhit, tabiat va hayotni go'zal, farovon qilish, demokratiya asoslari hamda jamiyatda amal qilayotgan progressiv g'oyalar buyuk qadriyat hisoblanadi. Inson qadriyati uning dastavval o'z-o'ziga va shu jamiyatga bo'lgan hurmati hamda munosabati, xulq-atvori bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Bu insonga o'z xulq-atvorini tartibga solishi, o'ziga nisbatan talabchanlik va nazoratni kuchaytirishga imkon beradi. Insonning shaxsiy qadr-qimmati milliy qadriyatlardan kelib chiqadigan ijtimoiy xususiyatlardan bo'lib, uni yuksaklikka olib boruvchi oliyjanob bir kuchdir. Shu jihatdan qadriyatlar insonning ijtimoiy erkinligini va ma'naviy pokligini ta'minlovchi bir buyuk manbadir. Bir so'z bilan aytganda, mutafakkir olimlar yuksak ma'naviy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar doirasida talqin etdilar va targ'ib qildilar, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ma'naviy omillarni yuksak baholadilar. Shu ma'noda o'sib kelayotgan yosh avlodda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarkib toptirish zaruriyati yuzaga keldi. Axloq kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyoti davomida vujudga kelib, tarkib topgan, takomillashib kelgan me'yor va qoidalaridan iborat bo'lib, ular kishilarning jamiyatga bo'lgan munosabatlarini tartibga soladi. Bu me'yor va tartib qoidalar kishilardan jamiyat uchun zarur bo'lgan axloqqa ega bo'lishlikni talab qiladi. Axloq insonning dunyoqarashi, xulqini belgilovchi insoniy fazilatdir. Shu boisdan, dunyoqarash o'zgarmaguncha inson ham o'zgarmaydi.

O'zbek milliy pedagogi Abdulla Avloniy axloqqa quyidagicha ta'rif beradi: "Axloq insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va isbotlar ila bayon qiladigan kitob axloq deyilur".

Axloq — inson hayotida o'z-o'zini idora qilish me'yorlarini, boshqalar bilan munosabatda bo'lish madaniyatini, halol ishlab, to'g'ri hayot kechirish mezonlarini o'rgatadi. Axloq — tarixiy hodisa. Axloqiy qonun-qoidalar barcha zamonlar uchun bir xil, o'zgarmas bo'lishi mumkin emas. Muayyan jamiyat uchun ayrim axloqiy qoidalar to'g'ri bo'lsa, boshqa davrga kelib noto'g'ri bo'lib qolishi mumkin. O'zbekona, milliy axloqda ota-bobolarimizning tarixiy tajribalari, davrlar sinovidan o'tgan saboqlari va bizga doimo madad bo'lib turgan ruhiy quvvatlari jamuljamdir. Mustaqil mamlakatimizning kelajagi uchun ma'naviyati yuksak, barkamol insonlar zarur. Barkamol insonni axloqiy tarbiyalash, voyaga yetkazish haqida mutafakkirlarimiz bir qator asarlar yaratishgan.

Chunonchi, Kaykovusning "Qobusnoma", Sa'diyning "Guliston", "Bo'ston", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqi muhsiniy" va boshqalarni ko'rsatishimiz mumkin. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng ta'lim-tarbiya sohasida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Ta'lim-tarbiyada milliy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish asosiy o'rinni egalladi. Tariximizga, madaniyatimizga, milliy urf-odatlarimizga e'tibor kuchaydi. Bugungi kun yoshlari mustaqilligimizni mustahkamlashda o'z e'tiqodi, g'ayrat-shijoati, madaniyati, bilimi va ularni tatbiq etish mahorati bilan ajralib turadilar. Ular jamiyatda, jamoada xalqlar va millatlar o'rtasida do'stlik, sog'lom turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan muhitni vujudga keltirishga intiladilar.

Komil insonni shakllantirishda maktabda, oilada sog'lom ma'naviy muhit barqaror bo'lishiga erishish muhim ahamiyatga ega. Chunki sog'lom muhit natijasidagina axloqiy fazilatlar tarkib topadi. Kishi o'z hayotida axloqiy kamolotga qanchalik ko'p intilsa, shunchalik o'z xato kamchiliklarini anglab boradi. Turon zaminimiz xalqlari axloqiy tarbiya sohasida boy an'analarga ega. Axloq-odob insonning jamiyatga bo'lgan munosabatining negizini tashkil etadi. Shuning uchun ham o'quvchida jamiyatga bo'lgan hurmatni yuksaltirish mustaqilligimizni mustahkamlashga, axloqiy madaniyat egasi bo'lishga, o'zini-

o'zi anglab yetishga, yaxshi insonlarga bo'lgan e'tiqodni rivojlantirishga olib keladi. Maktab o'quvchilari dars va darsdan tashqari jarayonlarda do'stlik, hamjihatlik, hamkorlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash, bironing dardiga darmon bo'lish kabi fazilatlar xalqimiz va millatimiz kuch-qudratining asosi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotning negizi ekanligini o'z o'quvchilariga tushuntirishlari darkor.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya — ma'naviy ongni bir maqsadni ko'zlab tarkib toptirish, axloqiy tuyg'ularni rivojlantirish hamda xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini hosil qilishdan iborat.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi, jamiyat talablariga bog'liq bo'lib, bu talablar, o'z navbatida, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va jamiyatda yoshlarni o'qitish hamda tarbiyalash ishlarining hammasi yosh avlodda ma'naviy axloq va e'tiqodni shakllantirishga, ularni Vatanga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishda boshlang'ich maktab muhim o'rin egallaydi. Insonning jamiyatga bo'lgan munosabatini shakllantirish, salbiy illatlarga qarshi nafrat uyg'otish, ongli intizomni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish kabilar axloqiy tarbiyaning vazifalaridir.

Xalq pedagogikasida yoshlar ma'naviyatini shakllantirish uchun turli xil usul va vositalar mavjud. Milliy urf-odatlar, an'analar, hasharlar, to'y-marakalar, sayillar, tug'ilgan kun, turli bolalar o'yinlari, ijodkorlik namunalari, sport musobaqalari yoshlar tarbiyasini to'g'ri tashkil etishda asosiy omillar sanalsa, milliy o'yinlar, qo'shiqlar, raqslar va ularda ilgari surilgan g'oyalar ham muhim ahamiyatga ega.

O'zbek xalqining urf-odatlari, an'analari, hasharlari, to'y-marakalari va marosimlari doirasiga kirib, turmushda ularning o'zaro munosabatlarini anglab keladi. Binobarin, urf-odatlar, an'analar, hasharlar, to'y-marakalar va marosimlar namoyon bo'lish shakli sifatida ko'zga tashlanadi.

Masalan, to'y, mehmon kutish, dafn qilish bilan bog'liq marosimlar va urf-odatlar o'zaro umumiy jihatlari bilan ajralib turadi. Bunday marosimlar O'rta Osiyodagi boshqa xalqlarda ham mavjud, lekin ular amalga oshirilishi jihatidan farqlanadi. Fikrimizni yanada aniqroq bo'lishi uchun urf-odatlar, an'analar, marosim, to'y-marakalar kabi tushunchalarga izoh berib ularning o'zaro farqini ko'rib chiqamiz.

An'ana — tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga kelgan, avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadigan, kishilar ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatadigan madaniy hodisa.

Urf-odat — kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari ko'nikmasi.

Marosim — inson hayotida muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik vaziyatida o'tadigan, umum qabul qilingan, tartib qoidalarga amal qilinadigan tadbir sanaladi.

Bayram — biror bir hodisa, voqea, soni ko'pchilik bo'lib, ko'tarinki ruhda, xursandchilik bilan nishonlash.

Bayram har bir xalqning o'ziga xos qadriyatlarini aks ettiradigan ko'zgu sanaladi. Biz o'zbeklarda ham boshqa xalqlar singari go'zal va takrorlanmas bayramlarimiz ko'p. Ular necha-necha asrlar davomida nishonlanib kelinmoqda. Ko'p ming yillik tarixga ega shunday bayramlardan biri — Navro'z bayrami alohida ahamiyatga ega. Navro'z — nav – yangi, ro'z – kun, ya'ni — “Yangi kun” degan ma'noni anglatadi.

Navro'z bayrami o'tkaziladigan vaqt quyoshning hamal burjiga kirish vaqti bilan belgilanadi. Navro'z bayrami arafasida hamma joyda hovlilar, uylar, ko'chalar tozalanib, bezatiladi. Kishilar bir-birinikiga mehmonga borib, keksalar ziyorat qilinadi, otanalar, ustozlar va tabarruk kishilardan xabar olinadi, o'zaro arazlashgan, gina-qudrat qilganlar yarashtiriladi. Navro'z bayrami o'tkaziladigan joyga o'yin-kulgular uyushtiriladi.

Navro'z bayrami turli viloyatlarda turlicha bo'ladi.

Bayramlar orasida islomiy bayramlarning o'zni nihoyatda katta. Ma'lumki, islom dini da asosan ikkita — "Qurbon hayiti" va kichik bayram — "Ro'za hayiti" bayramlari mavjud. Bu bayramlarda namoz o'qish, marhumlarni yod etib, duo-fotiha qilishdan iboratdir. Qurbon hayitida haj amallarini ado etish va qurbonlik qilish, ro'za hayitida esa ramazon oyi nihoyasida — og'iz ochish marosimi, fitr-sadaqa berish kabi amallar bajarilgan.

Iydi ramazon arafasida kishilar bir-birlariga muloyimlik bilan munosabatda bo'lishlari lozim. Erta tongdanoq hamma sidqidildan shunday kunlarga yetkazgani uchun Oллоhga shukronalar aytadilar, o'z yaqinlari, qarindosh-urug'lari, bemor va qariyalarni ziyorat qiladilar. O'zbeklarda bayramlar nihoyatda ko'p. Bayramlardan tashqari ommaviy marosimlar ham katta tantana bilan o'tkaziladi.

Aqqa marosimi — aqqa sunnatning odat qilish asosida yana bir necha sunnatlar farzandlarning kelajagi uchun yaxshi ahamiyatga ega. Rasululloh (a.s.v.) so'zlaridagi — yettinchi kunda qo'y so'yishdir. Chaqaloqning bosh-ko'zidan sadaqa qilish ma'nosini bildirgan. Uning sochini oldirib, soch og'irligicha mablag'ni kambag'allarga ulashib berish ham shu ma'noni ifodalaydi. Tug'ilgan chaqaloqning o'ng qulog'iga azon va chap qulog'iga takbir aytilishi, uni kelajakda iymonli, hayoli bo'lishiga katta ta'sir o'tkazadi. Aqqa 1-kun, 14-kun va 21-kunlarda qilinsa, ayni sunnatga muvofiq bo'ladi. Aqqa qilishning ma'nosi shukrona qilishdir. Oллоh bergan ne'matlar orasida farzand ko'rish faqat Oллоhning iroda-xohishi bilan beriladigan ulug' ne'mat bo'lgani uchun unga shukr aytmog'imiz lozim.

Ism qo'yish odati — qadimgi ota-bobolarimiz boshqa udumlar qatori ism qo'yish odatini ham tark etmaganlar. Dunyodagi barcha jonli-jonsiz narsalarning, hatto oliy voqeahodisalarning o'z nomi, ismi, atamasi bor. Ism qo'yish, odatda, qishloq, mahalla, guzarning kekxa, o'qimishli, donishmand kishilarning imtiyozida bo'lgan. Ba'zan, muayyan oilaning eng kekxa kishisi, buvisi zimmasida bo'lgan. Ayrim hollarda chaqaloq qulog'iga azon aytgan so'fi, mulla ixtiyorida bo'lgan. Bolaga ism qo'yish g'oyatda jiddiy, mas'uliyatli udum sanalib, bo'lajak fuqaroning kelajak taqdiri — amaliga, hayot yo'liga ta'sir qiladi, deb tushunilgan. Shuning uchun ham ulug', kasb-kori, sulola mavqeiga mos ism qo'yish kerak bo'lgan. Hashar — Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan udumlarimizdan biri bo'lib, qadimdan o'zbek xalqi hayotida muhim o'rin tutib kelgan. Hashar — bu ko'pchilikning bir yoqadan bosh chiqarib, bir maqsadda harakat qilishi. Hashar bahorda ko'chalarni tozalash, ko'chat ekish, ariq tozalash, yo'llar qurish, mozorlarni obodonlashtirish, ko'priklar qurish, jamoat joylarini tartibga keltirish, shifoxonalarni qurish borasida ham ko'pchilikka foyda keltirgan. Hasharning bosh xususiyati shundan iboratki, u beminnat, bepul, beta'ma bajariladi. Hashar ishi ko'pchilik tomonidan tekinga ado etiladi.

Mehmondorchilik — ya'ni, mehmon kutish va kuzatish odati dunyoda aksariyat xalqlarga xos xususiyat. O'zbek xalqining bu odati juda qadim zamonlarda ixtiyor qilingan. Shuning uchun, madaniyatimizning ko'hna manbalarida mehmondorchilik insonning, oilaning, qabila va xalqning, odamiylik, sahovat, madaniy va ma'naviy aloqasi — muloqot mezoni sifatida juda katta qadr bilan tilga olingan. "Mehmonxonang tor bo'lsa ham, mehru-diling keng bo'lsin" deyishadi. Ota-bobolarimiz mehmondorchilikda qanday qoidalarga rioya qilish haqidagi maxsus risolalar yozganlar.

Salom va alik — salomlashish qadimiy odat. Dunyoda barcha madaniy xalqlar o'zaro insoniy munosabat, muomala va muloqotni salomdan boshlaganlar. Har bir xalqning salomlashish bilan bog'liq bo'lgan o'z urf-odatlari bor. Biz o'zbeklar barcha islom dunyosi xalqlari singari — "Assalomu alaykum" deya qo'l olishib ko'rishamiz. Salomlashish odobi yosh va marosim bilan ham bog'liq.

Xalq qo'shiqlari — qo'shiqlarda xalqning orzu-umidlari va ezgu niyatlari aks etadi. Tarbiyada uning ahamiyati beqiyos. Qo'shiqlar etik, estetik va pedagogik g'oyalarni musiqiy hamda shoirona bezagi bilan qadrlidir. Go'zallik va ezgulik yaxlit ishtirok etadi. Xalq qo'shiqlariga ezgulikni, inson baxt-saodatini tarannum etuvchi milliy qadriyatlar singib

ketgan. Qo'shiqlarning bosh maqsadi, go'zallikka nisbatan muhabbat uyg'otish, estetik didni va dunyoqarashni charxlashdan iborat. Qo'shiqning ta'limiy qimmatini shundan iboratki, bolalarni chiroyli qo'shiq aytishga o'rgatishgan, u esa o'z navbatida, go'zallikka va nafosatga o'rgatadi. Bolaga ilk yoshida aytilgan allaning ahamiyati ham juda katta. Garchi beshikda yotgan bola uchun aytilayotgan qo'shiq mazmuni tushunarli bo'lmasa-da, unda ifoda etilgan erkalash ohanglari, ularning maroq bilan mayin kuylashi bolaga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Alladan keyingi o'rinda turadigan va tarbiyaga ta'sir etadigan omillardan yana biri bu — ertaklar. Ertaklar asrlar davomida sayqal topgan, xalq sinovidan o'tgan tarbiya vositasidir. Bolalar va ertaklar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Ular bir-biri uchun yaratilgan va shu boisdan, har bir bola o'z xalqining ertaklari bilan tanishmogi lozim. Ertaklarni esda saqlab qolishda, ularning fikriy teranligi, ma'rifiy va ma'naviy mazmunining mushtarakligi katta ahamiyat kasb etadi. Ota-bobolarimiz ertaklarida nafaqat urf-odatlar, balki axloq me'yori, ularning jamiyat hayotidagi ishtiroki ham ifodalangan. Ertaklar vositasida bolalarni mehnatsevarlik, kasb-hunar egasi bo'lishga, rostgo'y, zukko, jasur, hozirjavob bo'lishiga da'vat etiladi.

Maqollar ham xalq og'zaki ijodining eng ko'p tarqalgan janrlaridan biridir. Maqollar xalq hayotining badiiy tasviri, uning fikrlash qobiliyati, hayotiy tajribasi, kurash va mehnati jonli ifodalangan, jonli vositasidir. Ularda mehnatkash xalqning ulkan tajribasi mujassamlashgan, xalq maqollarining katta o'quv-uslubiy, ma'naviy ahamiyati bor.

Topishmoqlar ham xalq og'zaki ijodining ixcham turlarida biri bo'lib, bolalar ularni osonlik bilan yodda saqlab qoladilar. Topishmoqlar oqilona, shoirona, axloqiy g'oya bilan sug'orilgan bo'ladi. Binobarin, ular aqliy, axloqiy va estetik tarbiyaga ta'sir ko'rsatadi.

O'yin — insonning tabiatga qarab kashf etgan mo'jizalaridan biri hisoblanadi. O'yin bolalar hayotidagi hayratlanarli darajadagi rang-barang jihatidir. O'yin bilan birga bolalar hayotiga san'at, nafosat kirib keladi.

Xalqimizning "Ilgi to'q, baquvvat" degan purma'no iboralari bo'lgan. Yana tilimizda "Tagli-tugli", "Palagi toza" degan iboralari ham bor. Bu bir joyda muqim yashagan, o'z turmush tarziga, axloq-odob mezonlariga, aqidalari va tafakkur tarziga ega bo'lgan xonadonlarga nisbatan aytiladi. Butun ommani, bir necha yuz minglab, millionlab aholini birlashtirgan aqidalarga, mezon va qoidalarga ega bo'lgan xalqni qanday izohlash va ta'riflash mumkin?! Ana shu hayotiy va ijtimoiy mantiqdan kelib chiqsak, ta'rif va izoh bitta bo'ladi — milliy borlig'imiz, madaniyatimiz ildizi, tomiri o'troq bo'lgan".

Prezidentimiz o'z fikrini davom ettirib, "Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixining tag-tomirigacha nazar tashlaymiz", — deb yozadi. Demak, ana shu moddiy boylik va madaniyat yaratuvchi xalq qanchalik qadimiy bo'lsa, uning pedagogik tajribasi ham shunchalik qadimiydir, shuning uchun ham o'sha xalq yaratgan topishmoq, maqol, matal, qo'shiq, ertak va dostonlarda aks ettirib kelindi. Xalqimiz ma'naviyatining noyob durdonalari bo'lgan xalq pedagogikasining eng taraqqiyparvar va noyob fikr-mulohazalari o'z qimmatini hech qachon yo'qotmagan.

Birinchiidan, ana shu xalq pedagogikasi tufayli kamolotga erishgan ajdodlarimiz uzoq asrlar davomida butun jahon madaniyatiga o'z hissalarini qo'shib kelgan.

Ikkinchiidan, xalqimizning ko'p qirrali tarixiy va boy madaniyatining ajralmas qismi bo'lgan xalq pedagogikasini o'rganish orqali milliy tarbiyamizning o'ziga xosliklarini o'rganish imkoniyati paydo bo'ladi. Chunki har bir xalqda umuminsoniy fazilatlar bilan birga, hech kimnikiga o'xshamagan alohida qadriyatlar mavjud bo'ladi. Bunday qadriyatlar o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Aynan o'zbek xalqining yosh avlodni tarbiyalashdagi o'ziga xosliklari (bolani "Siz"lab gapirish, kattalar gapirganda "Xo'p" deyish va h.k.) u tomonidan yaratilgan pedagogik g'oyalarda o'z ifodasini topgan.

Uchinchiidan, xalq og'zaki ijodi manbalari asosida o'zbek xalqi pedagogikasini o'rganish — pedagogika fani tarixiy taraqqiyotining obyektiv qonuniyatlarini aniqlash,

belgilash uchun g'oyat muhim ahamiyatga egadir.

Xalq ertaklari folklorning boshqa janrlari kabi yozma adabiyotning shakllanishi va rivoji uchun muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Xalq tomonidan yaratilgan turli yo'nalishdagi ertaklar shu janrdagi zamonaviy san'at, yozma adabiyot janrlari, masalan, povest, novella, ocherk va romanlar yaratilishi uchun asos bo'lgan. Ma'lumki, inson fikrlash tarzi an'ana va novatorlik dialektikasiga muvofiq rivojlanadi. Adabiy ertaklar (badiiy mualliflik) ni xalq ertaklari bilan qiyosiy taqqoslash natijasida, biz bu ertaklardan foydalanishda ikki xil yo'l tutilganligini ko'rdik. Birinchidan, badiiy asarlar ertak janrining barcha belgilari aks ettirilgan holda yaratilishi mumkin.

Ikkinchidan, badiiy ertaklar an'anaviy uslublar shaklidangina foydalanib yaratiladi.

O'zbek mumtoz adabiyoti namoyondalari Navoiy, Lutfiy, Sakkokiy, Bobur, Gulxaniy va boshqalarning xalq ertaklari shakl va formalaridan, g'oya va obrazlaridan mohirlik bilan foydalanganliklari buning yorqin misolidir. Ularning uslubi va tilidan shuni sezish mumkinki, ular xalq orzu-umidlarini ifodalash yo'lida xizmat qiladilar. Masalan, A.Navoiy — "Xamsa" dostonlarini yaratishda xalq ertaklari syujetlaridan, g'oya va obrazlaridan foydalandi. "Farhod va Shirin" dostonining kirish qismida u, bu asarni yaratishda o'zidan oldin o'tgan kishilarning, xalq og'zaki ijodining boyliklaridan samarali foydalanib, rohatlanganligini tan oladi. Bu poema shoir ijodining original mahsuli bo'lib hisoblanadi. Unda xalq o'rtasida keng tarqalgan "Farhod va Shirin", "Xusrav va Shirin"da ertak, doston, afsona va masallarning mazmunidan keng va o'ziga xoslik bilan foydalanilgan. Buyuk mutafakkirning "Farhod va Shirin", "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy", "Lison ut-tayr" kabi dostonlarining ildizlari ham xalq ijodiga borib taqaladi, ertaklar Navoiy ijodiga kuchli ta'sir ko'rsatganligini shundan ham bilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Djurayeva S.N., N.S. Turdiyeva, A.I. Baxronova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi – o'quv qo'llanma. Buxoro-2021
2. Babayeva. D. Tarbiyaviy ishlar metodikasi — o'quv qo'llanma. Toshkent-2021
3. Ismatova N. va boshqalar. "1-2-3-4-sinflar uchun tarbiya fanidan darslik". Toshkent-2020

“MAHBUB UL-QULUB” ASARINING YOSHLAR ONGIGA PSIXOLOGIK TA`SIRI MASALALARI

Ismoilova Marhabo Boysarovna

Qarshi Davlat universiteti

Annotatsiya. Mir Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub» asarida o`sha davrdagi barcha ijtimoiy guruh va tabaqalarga, kasb egalariga tasnif berar ekan, xulq- atvorning yaxshi-yomonligi insoniylikka xos, xalqqa, mamlakatga foydali yoki nomaqbul fazilatlar haqida batafsil to`xtalib o`tadi. Hozirgi kun insonlari qiyofasini milliy(etno)psixologik jihatlarini teran idrok etgan holda sizni bizning «Men»imizni monizm tamoyillari asosida tasnif beradi. Umumpsixologik, umuminsoniy fazilatlar, xarakter belgilari, qalb, dil, kayfiyat va boshqa ruhiy jarayonlar to`g`risida chuqur mushohada yuritib, o`quvchini yanada teranroq anglashga inson qalbining cheksiz imkoniyatlarini tushunishga undaydi.

Kalit so`zlar: Psixologiya, Alisher Navoiy, metod, tahlil, muhokama, she`r, g`azal.

ВОПРОСЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЯ” МАХБУБ УЛЬ-КУЛУБ ” НА УМЫ МОЛОДЕЖИ

Исмаилова Мархабо Бойсаровна

Каршинский государственный университет

Аннотация. В произведении «Махбуб уль-Кулуб» Мир Алишер Навои, давая классификацию всем социальным группам и классам, людям профессий того времени, подробно останавливается на качествах поведения, присущих человечеству, полезных или нежелательных для народа, страны. Глубоко воспринимая Национальный(этнопсихологический)аспект образа людей современности, тизу дает классификацию нашего «я»на основе принципов монизма. Углубленное наблюдение за общепсихологическими, общечеловеческими качествами, чертами характера, душой, языком, настроением и другими психическими процессами побуждает читателя к более глубокому пониманию безграничных возможностей человеческой души.

Ключевые слова: психология, Алишер Навои, метод, анализ, обсуждение, поэзия, Газель.

ISSUES OF THE PSYCHOLOGICAL IMPACT OF THE WORK "MAHBUB UL-QULUB" ON THE CONSCIOUSNESS OF YOUNG PEOPLE

Ismailova Marhabo Boysarovna

Karshi State University

Abstract. Mir Alisher Navoi, in his work "Mahbub ul-qulub", gives classification to all social groups and classes of that time, to the people of the profession, talks in detail about the qualities inherent in humanity, useful or undesirable to the people, the country. With a thoughtful perception of the National(etno)psychological aspects of the image of people of the present day, sizni classifies our "I"on the principles of monism. Having made a deep observation about all -psychological, universal qualities, character traits, Heart, Heart, Heart, mood and other mental processes, he encourages the reader to understand the endless possibilities of the human soul to a more thoughtful understanding.

Keywords: Psychology, Alisher Navoi, method, analysis, discussion, poem, Ghazal.

KIRISH

Inson qalbining quvonchu qayg'usini ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan kam topiladi. Biz tadqiqot mulohazalarimizga asoslangan holda Alisher Navoiyni psixologiya ilmining zukko vakili, nazariy va amaliy tajribalar umumlashmasini yaratuvchi, xayol fenomenlari to'g'risidagi g'oyalarni yangi bosqichga ko'taruvchi shaxslararo munosabatlar negizi va manbasining bilimdoni, chin ma'nodagi psixolog olim deb atash maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR SHARHI

«Mahbub ul-qulub» asarining uchinchi qismi «Turli foydali maslahatlar va maqolalar» deb nomlanib, unda inson, ayniqsa hozirgi zamon shaxsi uchun nihoyatda zarur bo'lgan mehr-muruvvat, poklik, yaxshi xulq, ezgulik, ilmga tashnalik, zukkolik, ongillik, donolik, dilkashlik, nafislik, iffatlilik, xushmuomalalik, nazokatilik, beg'arazlik singari ko'plab yuksak insoniy umumpsixologik fazilatlarni ulug'lab, ayni vaqtda yomon, xunuk insoniylikka xilof xislatlarni, inson deb atalmish oliy zotga yarashisiz xulq-atvor sifatlarini o'z fikrlari bilan chuqur va purma'no satrlarda bayon etib psixologiya fanining obe'kti bo'lgan inson muammosi haqida chuqur o'ylashga majbur qiladigan bitiklar psixologiya fanining tezkor o'rganishi lozim bo'lgan dolzarb muammosidir [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Alisher Navoiy mazkur asarida «Hilm (muloyim tabiatlilik)» nomli hikoyatida «Hilm – inson vujudining xushmanzara mevalik bog'idir va odamiylik olamining javohirga boy tog'idir. Yumshoq ko'ngillilik–hodisalar to'la dengizdagi kishilik kemasining langari desa bo'ladi va insoniyat qadrini o'lchaydigan tarozining toshiga tenglashtirsa ham bo'ladi. Hilm–axloqli odamning qimmatbaho libosi va kiyim turlarining eng chidamli matosidir. U – yomon nafsni daydi shamol uchirishidan asraguvchi va ikkiyuzlama munofiqarning behuda harakatidan himoya qiluvchi. Hilm natijasida odam xaloyiqning izzat-hurmatiga sazovor bo'ladi; hilm tufayli kattalardan kichiklarga iltifot va marhamat yetishadi. Katta kishilar yoshlarni masxara va kulgi qilsa ular qoshida o'zi shuncha obro'siz va bachkana tuyiladi; yoshlar ham kattalarga nisbatan hazil va yengiltaklik qilsa uning qoshida uyatsiz va e'tiborsiz bo'ladi. Bu davr bog'ining xas-xashak singari odamlari, shamoldek betayin, yengiltak kishilar oldida hilm ahli guyo og'ir tabiatli va yomon fe'lli deb kamsitiladilar... [2]

Og'irlik vaznidindur sayldan g'amsiz Hiri tog'i

Yengillik fartidin barbod erur qamg'oq yafrog'i

Yel – agar ko'kka yetsa ham, baribir yengil qadrsiz; tog' – agar tuproqqa botsa ham salobatlidir. Yelning orasida o'tga yoqiladigan xas xashaklar bor; hilm mazmunida esa shoh tojiga qadalguday cho'q kabi qizil la'l bor.

Ma'lumki inson fazilatlarning shakllanishida muayyan psixik faoliyatda yaxlit obe'ktiv va sub'ektiv moyillik tarzidagi ko'rsatma berish psixologik mexanizm negizida yuzaga kelgan avtomatlashish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ustanovka (yo'nalganlik) odatlardan farqli o'laroq muayyan harakatlarga tayyor turishgina bo'lmay, balki bilish jarayonlariga hissiy va irodaviy reaksiyalarda ham tayyor turishdir.

Alisher Navoiyning yuqoridagi tanbihi(hikoyati)da inson ichki olami, motivlari xulq-atvorning nozik tomonlarini juda ustalik bilan ochib berganlar. Kattalarga hurmat kichiklarga izzat hissi ustanovka (yo'nalganlik)sini yaratadi har bir jamiyatda mavjud bo'lganidek, shamoldek yengiltak odamlar xarakter xususiyatlarini og'ir tabiatli va yomon fe'lli kishilar ekanligi xususida o'z xulosalarini aytish barobarida hilm (muloyim tabiat)li odamlarning hurmatli, didli, farosatli, o'ylab ish tutishlarini ko'rsatib beradi [3].

Xarakter xususiyatlarining hosil bo'lishida nizoli vaziyatlar, ayrim qarama-qarshiliklar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Inson xarakteri xulq- atvor shakllari faqat murakkab

va keskin vaziyatlarda aniq namoyon bo'lib qolmay, balki u mazkur holatlarda ham tarkib topadi. Odatda xarakter xislatlarining o'zgarishidagi individual farqlar shaxsning nizoli vaziyatdan chiqishi uchun qanday yo'l topishiga, binobarin, inson sharoitidan kelib chiqib, qanday xatti-harakatni amalga oshirishga qaror qilishiga bog'liq. Shaxs o'zining butun hayoti va faoliyati davomida o'z xatti- harakatlari odatlari bilan o'z xarakter xislatlarini o'zi yaratadi va ularni boshqarishga odatlanadi. Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub» asarida shu hodisotlarni shamolning betayinligi tog'ning viqori bilan shamolga qarshi turishi orqali o't (olov)ning xas-xashakni kuydirishi mumkinligi, lekin quyosh nuriga teng kelolmasligi yuqoridagi tanbihda qayd etadi.

Alloma shu asnoda inson xarakterdagi yaxshi fazilat belgilari ustun bo'lsa yomon illatlar o'z ta'sirini yo'qotishni ta'kidlaydi. «Maqsadga nomuvofiq, lekin shaxs uchun o'ziga xos harakat usullarini tanlashda moyillik kuchli irodaviy zo'r berish sharoitida, jiddiylik vaziyatlarida yorqin aks etadi». Bu xarakterning belgilaridan xisoblanadi. Adib o'sha zamon va makonda yashab hozirgi kun inson psixologiyasini aniq detallarda ko'rsata olgan.

NATIJALAR

Navoiy hikoyatlaridan nihoyatda nozik masalani anglagan olim M.Muhiddinov «Navoiy nazarida mayga ruju' qilish jaholat va nodonlikning nishonasi insoniy fazilatlardan mahrum. O'z qadr-qimmatini bilmagan odamgina bu yo'lga kirishi mumkin. Odatda, manman, kibru havo dimog'ini shishirgan nodon kishilar ko'proq sharobga o'ch bo'ladi. Ularning tabiati may ko'pigiga qiyos etgulik: ko'pik bir ko'tarilib, darrov yo'qolgani kabi sarxush kishining hovliqishlari, sherdil bo'lib xezlanishi bir dam xuruj qilib, keyin so'nib qoladi [5]. Mastlik paytida odamdagi hayvoniy kuchlar bosh ko'taradi, kishi o'zini idora qilolmay, nosha'niy qiliqlar ko'rsatadi. Shuning uchun A.Navoiy mayni barcha yaramasliklarning onasi-«ummul habois» deb e'lon qilgan «Jam'i yomonlik andin mutavvallid bo'lur» deb yozadi u Husayn Boyqaroga yozgan maktublaridan birida».

Navoiy «Ani ichmak-jigar qonini ichmakdir va mundin kechmak-bir jigar go'shasidan kechmakdir. Ul birin yutmoqdin zahr yutma, bu birin sochmoqdin nasling tuxumni qurutma» deb bashorat qiladi [6]. Bu ulug' bashoratning misoli sifatida qavmimizdagi ichkilikka moyilliklari ustun bo'lgan odamlarni ko'z oldingizga keltiring. Ichkilik tufayli nasling buzilishi oqibatida nogiron farzandning dunyoga kelishi, yosh oilalarning buzilishi, har xil kasalliklarga giriftor bo'lish, erta qarib qolish, aka- ukalar o'rtasidagi nifoq, farzandning yuzsizlarcha otaga qo'l ko'tarishi, onaga hurmatsizlik, ahli ayoli yoki sha'riy eriga xiyonat, jamiyat normal ijtimoiy- psixologik hayotiga rahna solish, millatimizga xos dilbandlik, bag'rikenglik, saxovatpeshalik, zakiylik, ziyraklik, oliyhimmatlilik singari ko'plab etnopsixologik xulq-atvorlarimiz darz ketishini keltirib o'tish bugungi kunning muammosidir.

Alisher Navoiyning daho ruhshunos olimligini har bir misra va asarlarida kuzatish mumkin, yuqorida tahlil qilishga harakat qilgan hikoyat asnosida Navoiyning ulug'vorligini yana bir bor his etamiz, chunki o'sha davridayoq bizning hozirgi ayrim jamiyatga yot ishlarimizni ko'rib turgandek (telepatiya) insonlarni ichkilik—bu qotillik, millatning badnom bo'lishi, kasallik, ruhiyatning sinishi, ma'naviyatning yo'qolishi, ma'rifatning izdan chiqishi, to'laqonli ijtimoiy-psixologik muhitning hamda sog'lom turmush tarzining buzilishi xulq-atvorining yomon tomonga og'ishini qayta-qayta ta'kidlashini anglaymiz.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, yuksak insoniy, umumbashariy his-tuyg'ular fuqarolar xatti-harakatlarning, fe'l-atvorlarning regulyatori (boshqaruvchisi) vazifasini bajara boshlagan daqiqalardan e'tiboran umumiy, ijtimoiy-psixologik negizlarga asoslanuvchi ommaviy harakatlar, qarashlar, g'oyalar, motivatsiyalar namoyon bo'ladi va har bir insonda shu umumiyat ishiga o'zining shaxsiy ulushini qo'shish istagi, mayli, xohishi vujudga keladi. Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asarining har bir qismida, hikoyatlarida insonga

xos umumpsixologik holatlarning va shaxs muammosi, komil inson muammosi to'lasincha mujassamlashgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Navoiy A. «Mahbub ul-qulub». -Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. 110 b.
2. E. G'oziev. Psixologiya. Toshkent: «O'qituvchi» nashriyot-matbaa uyi, 2008. 169-b.
3. M.Muxiddinov. Komil inson – adabiyot ideali. Toshkent: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2005. 109-b.
4. A. Navoiy. Asarlar. 15 tomlik. 13-tom. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi abadiyot va san'at nashriyoti, 1968. 79.
5. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Yo.Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari. –T.:O'qituvchi, 1992.
6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. O'n to'rtinchi tom: "Mahbub ul-qulub". –T.: Fan, 1998.
7. O'rinboev B., A.Soliev. Notiqlik mahorati. –T.:O'qituvchi, 1984.
8. www.ziyonet.uz
9. www.dislib.uz

MAKONIY YONDASHUV ASOSIDA UZLIKSIZ TA'LIMNI LOYIHALASH TEXNOLOGIYASI

Umarov Lutfillo Murodilloyevich

Qashqadaryo viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi, PhD, dotsent

Annotasiya. Maqolada uzluksiz ta'lim tashkil topishiga makoniy yondashuv, uzluksiz ta'limning tuzilishi va mazmunini yangilash; ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi; shaxs intellektual salohiyatining jamiyat intellektual kapitaliga aylanishi; mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish; innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalarini haqida fikryuritilgan.

Kalit so'zlar: Makoniy yondashuv, vorisiyligi, differentsiatsiyasi, variatizatsiyasi, gorizontol integratsiyasi, vertikal integratsiyasi

ТЕХНОЛОГИЯ ПРОЕКТИРОВАНИЯ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ПРОСТРАНСТВЕННОГО ПОДХОДА

Умаров Лутфилло Муродилоевич

Областной центр переподготовки и повышения квалификации работников народного образования кашкадарьинской области, доцент, PhD

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы пространственного подхода к организации непрерывного образования, обновления структуры и содержания непрерывного образования; интеграции образования, науки и производства; превращения интеллектуального потенциала личности в интеллектуальный капитал общества; повышения качества подготовки специалистов; развития инновационной деятельности.

Ключевые слова: преемственность, дифференциация, вариация, горизонтальная интеграция, вертикальная интеграция

TECHNOLOGY OF DESIGN OF CONTINUING EDUCATION BASED ON A SPATIAL APPROACH

Umarov Lutfillo Murodilloyevich

Regional Center for Retraining and Advanced Training of Public Education workers of Kashkadarya region, Associate Professor, PhD

Abstract: The article deals with the issues of spatial approach to the organization of continuing education, updating the structure and content of continuing education; integration of education, science and production; transformation of the intellectual potential of the individual into the intellectual capital of society; improving the quality of training specialists; development of innovation.

Keywords: continuity, differentiation, variation, horizontal integration, vertical integration

Dunyoda ta'limga va kasb egallashga bo'lgan talablarning makonga va shu makondagi ehtiyojlarga hamda o'zgarishlarga qarab ortib borayapti. Shu sababdan ta'lim

va kasbga yo'naltirishni tinimsiz innovatsion yondashuvlar asosida boshqa mamlakatlardagi ta'lim va kasblarga integratsiyalab borishni hamda kreativ yondashishni talab etmoqda. Jahonda yuzaga kelgan o'zgarishlar bilan bog'liq ravishda kasbiy ta'limning ta'lim holati, maqsadlari, mazmuni va tashkiliy shakllari ham o'zgargan; uning variativligi, ochiqligi, innovatsiyalarga yo'nalganligi kuchaydi.

O'zgarishlarning aks etishi A.M. Novikov, Ye.F. Saburov, I.A. Zimnyaya, Ye.V. Tkachenko, Ye.V. Bondarevskaya, A.T. Glazunov kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Uzluksiz ta'limni yanada rivojlantirish yo'llarini innovatsion tarzda izlagan amaliyotchipedagoglar "pedagogikaning insonga yo'naltirilgan mohiyatini" amalga oshirish bilan shug'ullangan. Ta'lim jarayonini fanlararolik va integrativlik tamoyillari asosida qurish; individual ta'lim trayektoriyasini kurish imkonini ta'minlaydigan shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlar; butun hayot davomida faoliyat usullarini egallash va kasbiy ta'limga motivatsiyani rivojlantirish o'zgarishlarning umumiy vektori sifatida tavsiflab berilgan. A.M. Novikov "kompetensiyaviy yondashuv" tushunchasining zamonaviy mazmuni kasbiy ta'lim uchun yangilik bo'lmagan, chunki u XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rossiyalik olimlar asarlarida rivojlantirib kelingan, deb ta'kidlaydi. Yangi sharoitlarda kompetensiyaviy yondashuv ta'lim amaliyotini qurish uchun yangi yo'nalishlarni belgilab beradi, kompetensiyaviy paradigmani nazariy konseptual anglash hamda ushbu yondashuvga asoslangan yangi o'qitish madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflash jarayonlari kechgan.

Sodir bo'lgan o'zgarishlar shaxsning o'z-o'zini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlash, kasbiy faoliyatning yangi texnologiyalariga o'rgatish va butun hayot davomida ta'limga ehtiyojni rivojlantirish, amalga oshirilayotgan faoliyatga mas'uliyatli munosabatda bo'lishga motivatsiyani rivojlantirishga qaratilgan edi. Ta'lim jarayoni maqsadlariga (natijalariga) nisbatan yondashuvlar, uni tashkil qilish va baholash shart-sharoitlari qayta anglangan edi, buning uchun barcha manfaatdor tomonlar bilan o'zaro ta'sirni qurish, jamiyat ehtiyojlarini muntazam o'rganib borish va kasbiy ta'lim uzluksiz tizimining makonini qurish zarur edi. Sodir bo'layotgan o'zgarishlar muallif tomonidan ijodkor-mutaxassis uzluksiz rivojlanishining shaxsga yo'naltirilgan paradigmasiga asoslangan uzluksiz ta'lim variativ muassasalarining vujudga kelishi misolida tadqiq qilingan.

Dasturiy va tashkiliy-tahliliy materiallar, ilmiy asarlar va ilmiy-metodik jurnallarda e'lon qilingan maqolalarni tahlil qilish; uzluksiz ta'lim tashkil topishi tajribasini rekonstruksiya qilish; uzluksiz ta'limni rivojlantirish bo'yicha alohida innovatsion loyihalarda shaxsiy ishtiroki; ta'limni boshqarish mintaqaviy organlarining tahliliy-tavsiyaviy hujjatlarini tahlil va sintez qilish; chiqarilgan xulosalarni tizimlashtirish va umumlashtirish jarayonlarida amalga oshirilgan uzluksiz ta'lim tuzilmalari shakllanishining retrospektiv tahlili uzluksiz ta'lim makonini modellashtirishning konseptual-metodologik asoslarini qurish imkonini bergan.

Uzluksiz ta'lim makonini konstruksiyalash va modellashtirishning qiyosiy tahlili jarayon o'zaro birikkanlik, vorisiylik, fanlararolik, darajalararolik, integrativlik kabi nazariy tamoyillar asosida bosqichma-bosqich amalga oshganligini tasdiqladi. Tadqiqot davomida "ta'limiy majmualar" sifatida talqin qilingan ta'limiy (universitetga oid, o'quv-ilmiy, o'quv-ishlab chiqarish, o'quv-ilmiy-ishlab chiqarishga oid) majmualar tanlangan tamoyillarning amalga oshirilishi shakllari hisoblangan.

XX asrning 1960-90-yillarida uzluksiz ta'lim nazariyasi va amaliyoti ta'lim muassasalarini yaratish va tashqi ta'limiy makonga integratsiya qilish g'oyasi bilan boyitildi. Yangi texnikaning noyob namunalarini yaratish uchun yirik politexnika OTMLari ilmiy-amaliy tarkibiy bo'linmalar (kam tonnajli va mayda seriyali zavodlar, texnologik parklar, inkubatorlar va b.) yaratadilar. Misol tariqasida Qarshi davlat universiteti bazasida universitet ilmiy-ishlab chiqarish majmuasini (kompleksi) yaratish tajribasi o'rganilgan, undan uzluksiz ta'lim makonini modellashtirish uchun qisman foydalangan.

Konseptual yondashuvlarning umumiyliги bilan bir qatorda majmuaning har bir turi muayyan tashkiliy-huquqiy shakli va amalga oshirishning aniq mexanizmi bilan tavsiflangan. Ta'lim muassasalari rivojlanishiga ta'lim tashkilotlarining (hududiy, tarmoqqa tegishli) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qayta qurilishining o'ziga xos xususiyatlari, demografik vaziyat va aholi hayotining standartlari kabi omillar ta'sir qilgan.

Uzluksiz ta'lim muassasalarini yaratish va ularning amal qilishining tashkiliy-pedagogik tajribasini tahlil qilish, tadqiq qilish natijalari ta'limiy majmualarni quyidagi asoslar bo'yicha guruhlariga (bo'limlarga) taqsimlash imkonini bergadi:

Maqsadlar va ishtirokchilar tarkibi bo'yicha: o'z tarkibida o'quv muassasalari va sherik-korxonalarni birlashtirgan o'quv-ishlab chiqarish majmualari; tarkibiga ta'limiy, ilmiy va ishlab chiqarish bo'linmalari kirgan o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmualari; ijtimoiy-ta'lim majmualari.

Tashkiliy-huquqiy aloqalar bo'yicha: tarkibidagi barcha ta'lim tashkilotlarining yuridik mustaqilligi saqlangan yuridik shaxslar assotsiatsiyasi; turli ta'limiy darajadagi tarkibiy bo'linmalarga ega bo'lgan yagona yuridik shaxs sifatidagi ko'p darajali ta'lim muassasi.

Ta'lim darajalari mazmunlarining o'zaro bog'lanishining xarakteri bo'yicha: kooperatsiya asosidagi; integratsiyalashgan; aralash, kooperatsiya va integratsiya munosabatlari birga qo'shilgan.

Bazaviy (asosiy) muassasa darajasi bo'yicha: oliy ta'lim ta'limiy majmualari; o'rta kasb-hunar ta'limiga tegishli ta'lim majmualari.

Variativ uzluksiz ta'lim muassasalarining samarali faoliyati ko'rsatkichlariga muallif tomonidan quyidagilar kiritilgan:

- uzluksiz ta'lim jarayonini amalga oshirishga nisbatan yondashuvlarning yagonaligi, bunda har bir ta'lim tashkiloti (bo'linma) yagona nazariy nuqtai nazarlarni (pozitsiyalarni) amalga oshirishga qaratilgan faoliyatining o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan;

variativ uzluksiz ta'lim muassasalari ta'lim jarayonining butunligini ilmiy va ilmiy-metodik ta'minlanishi darajasi;

variativ uzluksiz ta'lim muassasalari faoliyati natijalari diagnostikasining tizimliliги, ayniqsa, ta'lim oluvchilarning amalga oshirilayotgan darajalar bo'yicha harakatida;

vorisilyi, shakllar, usullar, ta'lim texnologiyalarining tuzatilishini (korreksiya qilinishi) ta'minlashga qaratilgan o'quv reja va ta'lim dasturlari modifikatsiyasining sifati;

variativ uzluksiz ta'lim muassasalari kadrlar salohiyatidan foydalanishning optimizatsiyasi;

faoliyatni ilmiy va axborot bilan ta'minlash, yagona axborot makonini shakllantirish (kutubxona yagona tarmog'ini yaratish, yangi mayoriy va uquv-metodik hujjatlarini almashish va birgalikda tahlil qilish, nashriyot faoliyatini muvofiqlashtirish);

-samarali davlat-ijtimoiy tashkiliy-boshqaruv tuzilmalarni yaratish;

umuman variativ uzluksiz ta'lim muassasalari uchun ham, har bir ta'lim tashkiloti uchun ham ahamiyatli bo'lgan tadbirlar va faoliyat yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlashning ta'sirchan iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirish.

Muassasalarning yaratilishi quyidagilarga imkon bergan:

ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarning sifat jihatdan yangi darajasini ta'minlash; g'oyani ilmiy ishlab chiqishdan uni amaliy amalga oshirish natijalariga erishishgacha bo'lgan yo'lni qisqartirish; noyob asbob-uskunalardan ta'lim maqsadlarida birgalikda foydalanish; olimlar va ta'lim amaliyotchilarining innovatsion hamkorligini amalga oshirish; talaba, aspirant, doktorant, o'qituvchi, konstruktor, tenolog va ishlab chiqarish mutaxassisi uchun yagona ijodiy muhitni yaratish; OTM amal qilishini kasbiy ta'lim va tarmoq iqtisodiyotini yuksaltirish va barqarorlashtirish markazi, ma'naviy va madaniy rivojlanish, tarmoq ijodiy kuchlarining jipslashishi markazi sifatida tashkil qilish. Ta'lim muassasalari faoliyati tajribasi va natijalarining tahlili salbiy natijalar bo'lganligidan ham dalolat beradi, bunda ta'lim

majmualari o'quv-metodik yondashuvlarda birlikka erisha olmagan.

Tanlangan ko'rsatkichlar asosida amalga oshirilgan ta'lim muassasalari tahlili ushbu ko'rsatkichlarning samaradorligi va istiqbolli ekanligini tasdiqladi, ular qatoriga quyidagilar kiradi:

ko'p darajali ta'lim jarayonini amalga oshirishga yondashuvlarning birligi, bunda har bir ta'lim tashkiloti yagona ilmiy-nazariy, psixologik-pedagogik va metodologik-texnologik nuqtai nazarlarni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatning umumiy konsepsiyasiga tayanish mumkin;

ilmiy va ilmiy-metodik ta'minotning ishlab chiqilganligi va muvofiqlashtirilganligi;

- faoliyat natijalarining tizimli diagnostikasi;

vorisiylik, shakllar, usullar, ta'lim texnologiyalarini tuzatilishini ta'minlashga qaratilgan o'quv reja va ta'lim dasturlarining modifikatsiyasi;

ta'limiy majmua tarkibiga kiradigan ta'lim tashkilotlari qadrlar salohiyatidan foydalanishning optimizatsiyasi;

ta'lim majmuasi faoliyatini axborot bilan ta'minlash, yagona axborot makonini shakllantirish;

- integratsiyaning quyidagi vektorlarini optimal ravishda tanlash: kasbiy ta'lim muassasalarining bir darajali ("gorizontal") integratsiyasi; turli darajadagi kasbiy ta'lim muassasalarining «vertikal» integratsiyasi.

Muallif ajratib ko'rsatgan tanlangan ko'rsatkichlar samaradorligini baholashning tipologik mezonlariga quyidagilar kirgan:

turli darajadagi kasbiy ta'lim dasturlarining shaxs ehtiyojlari, mehnat bozori talablari-ga, tarmoq, iqtisod va ijtimoiy soha rivojlanishi istiqbollariga moslik darajasi;

mutaxassislarining uzluksiz va izchil shaxsiy-kasbiy rivojlanishi va ularning harakatchanligini (mobilligini) ta'minlaydigan tayyorlash mazmunining muvofiqlashtirilganligi;

oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi standartlari kasbiy modullari mazmunining kasbiy ta'limni rivojlantirishning mahalliy va jahon tendensiyalariga muvofiqligi;

tahliliy-prognostik, loyihaviy-modellashtiruvchi, tashkiliy-boshqaruv, diagnostika-monitoring faoliyatini birgalikda amalga oshirish darajasi;

bitiruvchi asosiy kompetensiyalarining uzluksiz shakllantirilishi texnologiyalarning ishlab chiqilganligi;

- bitiruvchilar individual qobiliyatlarini ochishning shaxsiga yo'naltirilgan metodikalari-ga asoslangan psixologik-diagnostik faoliyat.

Ta'lim muassasalarini yaratish va ularning amal qilish tajribasini o'rganish, tahlil qilish va tizimlashtirish muallifga uzluksiz ta'limning yaratilayotgan muassasalarini tavsiflab beradigan umumlashtirilgan nazariy holatlarini aniqlash imkonini berdi.

Ta'lim muassasalari maqsadi fuqarolarga kasbiy ta'limning har qanday shaklini egallashga keng yo'l ochib berish hisobiga aholining ta'limga talab va ehtiyojlarini to'liq qondirish, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy barqarorlikni ta'minlash uchun dastlabki shartlarni yaratishdan iborat.

Ta'lim muassasalarining amal qilishi unda birlashtirilgan kasbiy ta'lim muassasalari faoliyatining sifatining ishonchli tahlilini amalga oshirish, rivojlanish istiqbollarini hamda butun ta'lim sohasini, ularning idoraviy va yuridik bo'ysunishidan qat'iy nazar, kadrlar bilan ta'minlashga ehtiyojni hisobga olgan holda ularning amal qilishini tartibga solish va oqilona tashkil qilish imkonini yaratadi.

Madaniyatli insonni hamda kompetentli, ijod qilish qobiliyatiga ega mutaxassisni uzluksiz shaxsiy rivojlantirishning shaxsiga yo'naltirilgan paradigmasiga asoslangan faoliyatning muvofiqlashtirilgan maqsadlari ta'lim muassasalarini muvaffaqiyatli rivojlanishi va yashovchanligini ta'minlagan.

Tadqiq qilingan ta'lim muassasalari faoliyatining qiyosiy tahlili natijalarini konstruksiyalash asoslarini mohiyat jihatdan tavsiflash, uzluksiz ta'lim muassasalarining namunali

(tipoviye) funksiyalari hamda konstruksiyalash algoritmlarini aniqlash va ta'riflab berish imkonini beradi.

Muassasalar namunali (tipoviye) funksiyalari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatgan: evristik – g'oyani ilgari surish va rivojlantirish; namoyish qilish – amal qilishini ochib berish; bilishga oid – innovatsion pedagogik jarayonni rivojlantirish xarakterini ochib berish, yangi pedagogik bilimlarni qayd qilish, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish.

Uzluksiz ta'limning variativ tuzilmalarini konstruksiyalash tipologik algoritimga muallif tomonidan quyidagi bosqichlar kiritilgan: konstruksiyalanadigan tuzilmaning sifat jihatdan tavsifi, konstruksiyalash vazifalarini qo'yish, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, ishtirokchilar doirasini muvofiqlashtirish, amal qilishining monitoringi, olingan natijalarni tahlil qilish va tuzatish (korreksiyalash).

Butunlik, komplekslilik tamoyillari asosida qurilgan muassasalar tuzilmalari quyidagilarni ta'minlagan:

funksional o'ziga xoslikka ega va ayni paytda bir butun ta'lim jarayonining elementlari hisoblangan turli darajadagi ta'lim faoliyatlarining o'zaro bir-birini to'ldirishini;

ta'lim standartlari mazmunining vorisiyligini;

amalga oshirilayotgan ta'lim darajalarining maqsad va vazifalarini integratsiyalashni; umumiy va maxsus o'quv fanlarini fanlararo va darajalararo integratsiyalashni;

ta'lim modelining amal qilish masadlari, mazmuni, ularga erishish vositalari va natijalarining bog'lanishini.

Konstruksiyalashning tizim tashkil qiluvchi tamoyillari sifatida muallif tomonidan darajalararolik va integratsiyalash ajratib ko'rsatilgan, ular ta'lim tizim osti tizimlarining (pod-sistem) o'zaro ta'siri orqali amalga oshiriladi, tizim osti tizimlarining har biri funksional o'ziga xoslikka ega va ayni vaqtda butunlik elementi hisoblangan, ular ta'lim mazmuni hamda tashkiliy shakllarning maqsad va vazifalari integratsiyasini, o'quv fanlar o'zaro bog'lanishini amalga oshirish mumkin.

Muassasalarni konstruksiyalashning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat bo'lgan: qiziqish, imkoniyat va qobiliyatlarga mos ravishda ta'lim olish usuli va yo'nalishini erkin va to'liq tanlashda shaxs ehtiyojini qondirish uchun zarur tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash; yuqori malakali mobil va raqobatbardosh mutaxassislariga ehtiyojni ta'minlash. Yuqorida ko'rsatilgan asoslar bazasiga qurilgan muassasalar ta'limiy faoliyati quyidagi vazifalarni hal qilish imkonini beradi:

birgalikdagi vazifalarni hal qilish uchun pedagogik va ilmiy-pedagogik jamoalarning ijodiy-shaxsiy salohiyatidan optimal foydalanish;

ta'lim sohasida innovatsiyalar tarmog'ini kengaytirish;

ta'lim dasturlari, ta'limning shakl va usullarini maksimal ravishda xilma-xilligini ta'minlash;

talabalar shaxsiy rivojlanishi dinamikasi, ularning o'qishdagi yutuqlari va kasbiy sifatlarini takomillashtirish dinamikasining pedagogik ekspertizasini amalga oshirish.

Monitoring natijalarining tahlili uzluksiz ta'lim muassasalari doirasida mutaxassislarni tayyorlash bitiruvchilar tayyorgarligi samaradorligining oshganligi, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish talablariga moslashuvchanligini ko'rsatdi hamda quyidagilarni ta'minlaydi:

kompetentli zamonaviy mutaxassisning tayyorgarligini;

zamonaviy ta'limda shaxs ehtiyojining sifatli ro'yobga chiqishini;

ta'limning barcha darajalarida yo'nalishli (profil) ta'lim tizimi mazmunining ishlab chiqilishini;

shaxs o'zini o'zi aniqlashi, ta'lim dasturlarining turli shakl va darajalarini tanlashining optimal imkoniyatini,

ta'lim mazmunining qo'shimcha ta'lim, kasbiy tayyorlash, boshqa yo'nalishlar imkoniyatlaridan egiluvchan tarzda foydalangan holda tabaqalanishi (differensiyatsiyasi) va

integratsiyasini;

turli darajadagi umumiy va kasbiy ta'lim (umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim) o'rtasida vorisiylikni.

Obyektiv ijtimoiy shart-sharoitlar, ijtimoiy munosabatlarning qayta qurilishi, qadriyatlarining o'zgarishi optimal strategiyani, uning amalga oshirilishi samarali vosita va usullarini aniqlash bilan bog'liq qiyinchiliklar tug'dirgan. Uzluksiz ta'limning ayrim yo'nalishlarini (tarmoqlarini) qayta qurish; ta'lim tizimi rivojlanishini konseptual jihatdan ko'rishga qaratilgan yangi yo'llarini izlash; yangi ijtimoiy kontekstni, ta'lim tashkilotlari o'zaro munosabatlari va ularning uzluksiz ta'lim rivojlanishidagi o'rnining o'zgarishini anglash darajasiga chiqishga ehtiyoj ortgan. Ta'limni yanda takomillashtirish, ta'lim muassasalari optimal tarmog'ini yaratish, kuchli salohiyatni shakllantirish, kadrlarni o'qitish va tarbiyalashning yetakchi an'alarini saqlab qolishga qaratilgan innovatsion faoliyat dolzarblashdi. Umuman ta'limda ta'limning yangi -metodologik yoki innovatsion paradigmasi rivojlandi, uning doirasida uzluksiz ta'limning nazariyasi va amaliyotining rivojlanish tajribasi, uning innovatsion rivojlanishi va integratsiyasini anglash jarayoni kechgan. Oqibatda bu "uzluksiz ta'lim" tushunchasini mohiyatan to'yinganligini, uning innovatsion rivojlantirish konsepsiyasini, yangilangan sharoitlarda uzluksiz ta'lim makonini yaratishning nazariyasi va metodologiyasini ochib beradigan uzluksiz ta'lim rivojlanishini ilmiy anglash va metodologik jihatdan refleksiya qilishga ehtiyojni oshiradi.

Mamlakatimiz pedagoglarining pedagogik qarashlari, g'oyalari va nazariy holatlari ta'limning o'ziga xos muammolarini tadqiq qilishning nazariy asosi bo'lib xizmat qildi, ular quyidagilarga asoslanadi:

asosini har qanday obyektini tizim sifatida ko'rish tashkil qilgan ilmiy bilish metodologiyasining yo'nalishi sifatidagi tizimli yondashuv;

o'quv jarayonini tashkil qilishga shaxsga yo'naltirilgan yondashuv;

kasbiy va umuman kasbiy ta'lim sohasidagi nazariy ishlanmalar;

psixologlar tadqiqotlari;

shaxs rivojlanishida ehtiyojlar, qiziqishlar, motivlar, ko'rsatmalar, maqsadlar, qadriyatlarga yo'nalganlikning shakllanish qonuniyatlari va o'z-o'zini anglashning shaxs rivojlanishidagi o'zni haqida mahalliy va xorijiy psixologiya holatlari.

Uzluksiz ta'limning makonini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish usullariga quyidagilar kiradi: tarixiy, tizimli va mantiqiy tahlil; tarixiy analogiyalar (o'xshashliklar) usuli; umumlashtirish va qiyoslash usullari; meyoriy hujjatlar va ilmiy adabiyotlar tahlili; to'plangan tarixiy-pedagogik tajriba, OTMLar bitiruvchilari faoliyati haqidagi taqrizlarni o'rganish va umumlashtirish; anketalash (so'rov o'tkazish), intervyu olish, suhbatlar.

Modellashtirilayotgan uzluksiz ta'lim makoni amal qilishining samaradorligini ta'minlaydigan imkoniyatlarini quyidagilar tashkil qiladi:

Umumkasbiy muammolarga yo'naltirilgan maktablarning mavjudligi, ular umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari, kasbiy ta'lim o'quv muassasalari – kollejlarni ham texnik yo'nalgan, ham kasbiy yo'nalgan o'qituvchilarining yuqori malakasini ta'minlab beradi.

Fundamental umumkasbiy, maxsus fanlarni o'rganishni kasbiy yo'naltiradigan hamda kasbiy faoliyatning har qanday ko'rinishiga nisbatan tizimli yondashuvni va tizimli tafakkurni shakllantiradigan zamonaviy fan yutuqlariga yo'naltirilgan kompyuterda ishlash bo'yicha tayyorlashning yagona uzluksiz tizimining mavjudligi.

Turmushning o'ziga xos xususiyatlari, rejaga oid o'quv mashg'ulotlari va majburiy, o'qishdan tashqari o'z-o'zini tayyorlashning birligi va uzluksizligi, o'z-o'zini tashkillashtirish, o'z-o'zini intizomga bo'ysundirish, mas'uliyatli va axloqiy jihatdan barqaror bo'lish ko'nikmalarining shakllanishiga yordam beradigan stajirovkalardan iborat mutaxassislarni tayyorlashning yaxlitligi.

Kasbiy ta'lim tizimi xususiyatlarining sanab o'tilgan majmuasi atrofidagi sotsiumga

o'z ta'sir doirasini yoyish potensialiga ega bo'lib, barcha darajadagi ta'lim tashkilotlari bilan ilmiy-uslubiy va innovatsion o'zaro ta'sirga kirishishga uslubiy jihatdan tayyor bo'lib, OTMlarning uzluksiz ta'lim markazi bo'lishiga imkon berdi.

Ta'lim tizimini isloh qilish konsepsiyasining maqsadi qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun mas'uliyatni oshirish sharoitida kadrlar tayyorlashning yuqori darajada samaradorligini ta'minlashdan iborat.

Ta'lim tizimini isloh qilish vazifasi kasbiy ta'limga qo'yilgan zamonaviy talablar majmuasiga javob beradigan hamda yuqori sifat darajasida va minimal xarajatlar bilan kasbiy ta'lim bilan birga tayyorlashni amalga oshirishga qodir bo'lgan kadrlar tayyorlashning yagona barqaror samarali ta'lim tizimini yaratishdan iborat.

Kasbiy ta'limning asosiy vazifasi kasbiy tayyorlashni yuqori sifat darajasida amalga oshirish, akademik mobillikni, kasbiy o'sishga qobiliyatni hamda ta'limni isloh qilish sharoitida kasbiy o'sish, ijtimoiy moslashish va integratsiyaga qobiyaliyatni ta'minlashga qodir bo'lgan kasbiy ta'limga qo'yilgan zamonaviy talablar majmuasiga javob beradigan kadrlar tayyorlashning samarali tizimini yaratish tashkil qiladi. Shu nuqtai nazardan asosiy funktsiya qadriyatlar va e'tiqodlar integratsiyasi orqali erishiladigan institutsializatsiyalashgan qadriyatlarning madaniy barqarorligini saqlashdan iborat.

Ilmiy-tadqiqotchilik, pedagogik, tarbiyaviy faoliyati kasbiy ta'limning fundamentalligining kuchayishi, uning amaliy yo'nalganligi va talabalar axloqiy-psixologik tayyorgarligining ortishi, ular tafakkuri va kompetentligi innovatsion yo'nalganligining rivojlanishi o'qitish jarayonining, shu jumladan kasbiy ta'lim makonini shakllantirishga qaratilgan OTMdan oldingi tayyorgarligi va kasbiy jamoa bilan birgalikda amalga oshirgan kasbiy faoliyatining butunligi (yaxlitligi) va uzluksizligi bilan ta'minlanganligini ko'rsatadi.

Yoshlarda oliy ta'lim muassasalariga kirishga anglangan va turg'un motivatsiyani shakllantirish zarurati uzluksiz ta'lim makonini modellashtirishning muvaffaqiyatli bo'lishining dastlabki va muhim sharti sifatida aniqlangan.

OTMga kirayotgan yoshlarning kasbiy motivlari shakllanishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishning dolzarbligi abituriyentlar ta'lim va amaliy tajribaning xususiyatlari haqida tasavvurga ega emasligi bilan ham bog'liq edi.

XX-XXI asrlarda kasbiy ta'limning rivojlanishi haqida dasturiy, meyoriy, huquqiy, mazmunga oid materiallar hamda muallifning kasbiy sohadagi amaliy tajribasining tahlili quyidagi xulosalar chiqarishga olib keldi.

Kasbiy ta'limni isloh qilishning samarali yo'llarini tanlashga ta'sir qiladigan muhim omillardan biri kasbiy ta'limning an'alariga tayanish hisoblanadi. Kasbiy ta'limning zamonaviy rivojlanishi ta'lim tizimini yaratish va isloh qilishning barcha bosqichlari mazmunini hisobga olgan holda vorisiylikni ta'minlashga asoslangan evolyutsion yo'ldan boradi.

Kasbiy ta'limning fundamentalligini kuchaytirish, uning amaliy yo'nalganligi va talabalar axloqiy-psixologik tayyorgarligining ortishi, ular tafakkuri va kompetentligi innovatsion yo'nalganligining rivojlanishi o'qitish jarayonining, shu jumladan kasbiy ta'lim makonini shakllantirishga qaratilgan OTMdan oldingi tayyorgarligi va kasbiy jamoa bilan birgalikda amalga oshirgan kasbiy faoliyatining butunligi (yaxlitligi) va uzluksizligi bilan ta'minlangan.

Uzluksiz ta'lim makonini modellashtirish va rivojlantirish jaminyatning barqaror rivojlanishi uchun fundamental asosni yaratadi; bo'lajak kadrlarda mutaxassis va tarbiyachiga zarur bo'lgan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar shakllanishini ta'minlaydi; OTM bitiruvchisiga qisqa muddatda yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish imkonini beradi.

Kasbiy ta'lim tizimida kasbiy ta'lim rivojlanishining barcha ijobiy va salbiy jihatlari jamlangan (konsentratsiyalangan) bo'ladi. Kasbiy ta'limning modellashtirilgan va yaratilgan makoni boshqa mutaxassisliklar talabalari parallel kasbiy ta'lim olishi jarayoni uchun

qo'shimcha imkoniyatlar ta'minlaydi.

Uzluksiz ta'lim makonini modellashtirish, tashkil qilish va yaratish ta'lim va tarbiya mazmuni va texnologiyalarini integratsiyalashga, muhandislarni umumiy kasbiy tayyorlashda gumanitar bilimlarni kuchaytirishga, professor-o'qituvchilar tarkibi ta'lim faoliyatining innovatsion yo'nalganligini kuchaytirishga, talabalarning kasbiy-ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan murakkab pedagogik jarayon hisoblanadi. Modellashtirish tabiiy-matematik, gumanitar, texnik va ijtimoiy-iqtisodiy fanlarning uyg'un aloqalari haqidagi konseptual holatlarga tayangan, ular o'quv rejalar, dasturlar va ta'lim jarayonini tashkil qilishda aks etgan, bu esa talabalarda qarashlarining kengligini, nostandart tafakkur, turli sohalar tutashganda yuzaga keladigan kompleks muammolarni hal qilish qobiliyatining shakllanishiga, fundamental tadqiqotlarning o'zaro aloqadorligini ko'rishga yordam beradi.

Yaratilgan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar talabalarni parallel tayyorlashning fundamental, umumiy muhandislik, umumiy madaniy va gumanitar tarkibiy qismlari integratsiyasini ta'minlaydi.

Uzluksiz ta'limning ko'p tomonga yo'nalgan (полинаправленного) makonini modellashtirish va yaratish kasbiy ta'limning hammabopligini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi, talabalarda boshqaruv, psixologiya, iqtisodiyot, axborot va telekommunikatsiya tizimlaridan professional darajada foydalanish muammolari bo'yicha mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi, pedagogika fani va amaliyotini variativ innovatsiyalarga yo'naltirilgan tuzilmalar va innovatsion faoliyat yo'nalishlarini modellashtirishning konseptual-metodologik asoslarini ishlab chiqish tajribasi bilan boyitadi.

Yetakchi konseptual-metodologik holat quyidagilardan iborat. Uzluksiz ta'lim makoni – bu modellashtiriladigan va tashkillashtirilgan integrativ makon-zamonga oid model, ta'lim makonida bo'lajak mutaxassisning ko'p o'lchovli harakatlari va uning o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyatlarga ega bo'lishi uchun ta'limiy shart-sharoitlar va mazmunga oid resurslarni yaratish bo'yicha innovatsion pedagogik faoliyatga qaratilgan ta'lim institutlari va tashkilotlarining majmuasidir.

Tajriba-sinov rejimida aprobatsiyadan o'tgan darajalararo, turlararo va ko'p tomonga yo'naltirilgan integratsiya asosida qurilgan uzluksiz ta'lim makonini modellashtirish tamoyillaridan kasbiy ta'limni modernizatsiya qilish jarayonida foydalaniladi. Mutaxassislarni tayyorlash integratsiya tamoyilidan foydalanish misoli bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kasbiy ta'limning yangi tizimini qurishda darajalararo integratsiya tamoyili bir necha darajadagi kadrlarni tayyorlashda amalga oshiriladi. Bunda tizim tashkil qiluvchi OTM OT-Mgacha tayyorlash, o'rta kasbiy, oliy kasbiy, qo'shimcha kasbiy va OTMdan keyingi kasbiy ta'lim dasturlarini amalga oshirish bilan shug'ullanadi.

Kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish muammolardan biri hisoblanadi, u, mohiyatan, ilgari mavjud bo'lgan intizomiy yondashuvga qaraganda prinsipial jihatdan yangi narsa emas. A.G. Bermusning "zamonaviy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv muammo hisoblanadi", degan fikriga qo'shilamiz. Bu shu bilan shartlab berilganki, 90-yillar oxirigacha DTS mutaxassislarni tayyorlash tizimini belgilab beradigan asosiy hujjat sifatida mavjud bo'lmagan. Ta'lim standartlari didaktik birliklar va o'zlashtirish darajalari («bilish», «qila olish», «ega bo'lish») orqali ishlab chiqilgan.

OTMlarda amalga oshirilgan bir qator tadqiqotlar mazmunining tahlili asosida quyidagicha xulosa qilish mumkin.

Professional kadrlarni tayyorlash mazmunining ustuvorligi mutaxassis shasining ma'naviy (axloqiy, psixologik) va sof kasbiy (ko'nikmalar, malakalar, kasbiy kompetensiyalari) xususiyatlari majmuining shakllanishi bilan ta'minlanishi shart.

«Kasbiy ta'lim» tushunchasi talabalarda birinchi navbatda quyidagilarning shakllan-

ishiga qaratilishi maqsadga muvofiq:

- qadriyatlar tizimi va ideallar, iroda, intizom kabi shaxsiy axloqiy sifatlar;
- kasbiy faoliyatning turi va xili bo'yicha mutaxassis sifatleri; boshqaruvchi sifatleri;
- pedagog sifatleri;
- jismoniy sifatlar.

Ishlab chiqilgan metodologiya tarkibiga kirgan mazkur tamoyillar va yondashuvlarga rioya qilgan uzluksiz ta'limning modellashtirilgan makoni axloqiy tarbiya tizimini, standarning barcha fanlarini o'zlashtirish jarayonida talabalarni kasbiy va maxsus o'qitishni ta'minlaydi, integrativ ta'lim metodologiyasi esa integratsiyalash, parallel o'qitish va masofaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish hisobiga kasbiy ta'lim muammosini hal qilish imkonini beradi.

Xulosa o'rinda shuni takidlash lozimki, makoniy yondashuv asosida uzluksiz ta'limni loyihalash shu zaminda ta'limni rivojlantirish bilan bir qatorda shu makonni rivojlantirish imkonini beradi.

SHAXS HISSIY BILISH VA HARAKAT BIRLIGI JARAYONI – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Parmonova Laylo Ilxomovna

Qarshi davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya. Insonning tug‘ilganidayoq dunyodagi ilk munosabatlaridan biri bilish jarayoni hisoblanadi. Inson yashash jarayonida faqat tabiat va jamiyatni bilib qolmasdan, balki o‘zini hamda o‘zining ruhiy-ma’naviy dunyosini anglab boradi. Bilish jarayonida inson predmet va hodisalarni to‘liq va mukammal aks ettirish uchun muhim jarayonni basib o‘tadi.

Kalit so‘zlar: Bilish, bilish nazariyasi, shaxsni hissiy bilish, tashqi bilish, aqliy bilish, ichki bilish, ilmiy bilish.

ПРОЦЕСС ЕДИНСТВА ЧУВСТВЕННОГО ПОЗНАНИЯ И ДЕЙСТВИЯ ЛИЧНОСТИ-КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Пармонова Лайло Ильхомовна

Докторант Каршинского государственного университета

Аннотация. Одним из первых отношений человека в мире с самого рождения считается процесс познания. Человек в процессе жизни познает не только природу и общество, но и осознает себя, свой духовно-духовный мир. В процессе познания человек проходит важный процесс полного и совершенного отражения предметов и явлений.

Ключевые слова: Знание, теория познания, эмоциональное знание человека, внешнее знание, интеллектуальное знание, внутреннее знание, научное знание.

THE PROCESS OF EMOTIONAL COGNITION AND UNITY OF ACTION OF THE INDIVIDUAL-AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Parmonova Laylo Ilxomovna

Qarshi State University doctoral student

Abstract. One of the first relationships of a person in the world at birth is the process of cognition. In the process of living, a person not only learns about nature and society, but also realizes himself and his own spiritual and spiritual world. In the process of cognition, a person underlies an important process for a complete and perfect reflection of objects and phenomena.

Key words: Knowledge, theory of knowledge, emotional knowledge of a person, external knowledge, intellectual knowledge, internal knowledge, scientific knowledge.

Bilish tafakkurning o‘rganilayotgan predmetga yaqinlashuvidan, fikrning bilmaslikdan bilishga qarab, to‘la va mukammal bo‘lmagan bilimdan to‘la va mukammal bilimga harakat qilishidan iborat cheksiz jarayonni tashkil etadi. “Bilish eskitirib qolgan nazariyani yangi nazariyalar bilan almashtirib, eski nazariyalarni aniqlab, olg‘a qarab boradi hamda voqelikning tobora yangidan-yangi jihatlarini ochib beradi”.

“Bilish nazariyasi (gnoseologiya, epistemologiya)— falsafa bo‘limidan biri hisoblanib, u bilish qonuniyatlari va imkoniyatlari, bilimning obyektiv reallikka munosabatini o‘rganadi, bilish jarayonining bosqichlari va shakllarini, bilishning ishonchliligi va haqqoni-

yligi shartlari va mezonlarini tadqiq qiladi". Bilish nazariyasi zamonaviy fanlarda tatbiq qilinadigan usullar (tajriba, modellashtirish, analiz, sintez va h.k.)ni umumlashtirgan bo'lib, uning falsafiy metodologik negizi sifatida o'z aksini topadi. "Bilish jarayonida tajriba va amaliyotning ahamiyati katta. Bu yerda amaliyot (praktika) keng ma'noda bo'lib, insonning jamiyatga ta'siri, tabiat hodisalarini yangilashi, o'zgacha narsalar, jamiyatning yashashi uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratishi tushuniladi. Insonlarning tabiat qonunlari haqidagi bilimiga asoslangan amaliy faoliyat turlari bilish taraqqiyotini, fan va texnika ravnaqini belgilaydi. Sezgi, tasavvur va tushunchalarimizning obyektivligini tekshirish bilish jarayonining eng muhim vazifasi hisoblanadi". Amaliyot — haqiqat mezonidir. Olgan bilimlarimizning haqqoniyligi amaliyot bilan tekshiriladi va tasdiqlanadi. "Bilish jarayoni jonli mushohada (hissiy bilish)dan abstrakt (mavhum) tafakkurga, undan esa amaliy tajribaga o'tish bilan harakterlanadi. Jonli mushohada, deganda biz sezgi, idrok, tasavvur kabilarni, ya'ni sezgi organlari orqali tashqi olamning miyaga ta'siri natijasida paydo bo'ladigan in'ikos shakllarini tushunamiz. Sezgi dunyoni in'ikos qilishning boshlang'ich shakli demakdir". Demak, sezgi — obyektiv dunyoning subyektiv in'ikosi. U sezgi organlari orqali borliq hodisalari, buyumlarning xususiyatlari hamda sifatlarini bog'lanmagan tarzda akslantiradi. Idrok etish hissiy bilishning murakkabroq shaklini tushunilib, u sezgi organlariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi predmetni butun holda aks ettiradi. Kishi miyasining umumlashtiruvchi faoliyatiga asoslangan aks ettirish jarayoniga insonning avvalgi tajribalari, abstrakt tafakkurning faoliyati va boshqalar ham qo'shiladi. Shularga asoslangan idrok etish narsalarning zarurroq, chuqurroq tomonlarini aqlan (fikran) ajratishga va bilib olishga imkon yaratadi. Miya inson ilgari idrok qila olgan narsani o'z xotirasida saqlab qola olish qobiliyatiga ega a'zodir. Sezgi organlariga ta'sir qilmayotgan buyumning mana shunday qayta tiklangan qiyofasi tasavvur deya nomlanadi. Kishi his qilish bosqichida to'xtamaydi. U bu bosqich doirasidan chiqib keta olishi, narsalarning umumiy, zaruriy hamda muhim xususiyatlari va munosabatlarini, ularning bevosita hissiy mushohada qilmaydigan qonuniy aloqalarini bila olishi mumkindir. Unga abstrakt tafakkur — bilishning mantiqiy bosqichi bilan erishib keladi. Bilish jarayonining sifat tarafdin yangi va oliy bosqichi bu — mavhum bo'lgan tafakkur jamiyatdan va tildan tashqarida bo'lmaydi. U amaliyotning, tarixiy taraqqiyotning mahsuli hisoblanadi. Tafakkur voqelikning umumlashtirilgan, ya'ni bilvosita aksi. Tafakkur hamda til bir-biri bilan uzviy holda bog'langan. Til bo'lmas ekan — unda umumlashtirish jarayoni ham bo'lmaydi. Hissiy bilish kabi mavhum tafakkur ham muayyan shakllarda ro'y beradi. Bu shakllar tushuncha, muhokama va aqliy xulosalardir. Tushuncha narsa va hodisalarning umumiy va muhim taraflarini o'zida aks ettiradi. Masalan, "inson" tushunchasi hamma shaxslarga xos eng asosiy belgilarni o'zida jamlaydi. Muhokama qilgan paytda buyumlarda muayyan xususiyatlar borligi ta'kidlanadi yoki rad etiladi. Tilda muhokamalar fan orqali ta'riflanadi. Bir yoki bir nechta muhokama vositasi bilan yangi muhokama qilish imkonini beradigan tafakkur shakli aqliy xuloosa deyiladi.

Tasavvuf falsafasi vakillari shaxsning hissiy bilishi — tashqi bilishni, aqliy bilish — ichki bilishni tashkil etishi, ularning o'zaro bog'liqligini uqtirganlar. Inson dunyoni va o'zini anglashi uchun o'qib o'rganish, bilim va hunarlarni egallash jamiyatda boshqa shaxslar bilan o'zaro muloqotda va munosabatda bo'lishi orqali kamolotga erishmogi lozim: "Odam Xudoni bilish uchun o'z-o'zini [bilishi kerak ekan](#), o'z-o'zini bilish o'zi haqida axborot yig'ishigina emas, balki ayni paytda emotsional o'zgarib borib nopok xususiyatlaridan tozalanish, shu yo'sinda ichki dunyosini boyitib oliy bilishga o'tiladi. O'z-o'zini, shuningdek, tabiatni bilish — bu odamning o'ziga, qobiliyatiga, niyatiga, xatti-harakatiga va sharoitiga bog'liq. Bu — Allohni bilishning, oliy bilish yo'lining bir qismidir. Ya'ni substratidir. Shu substratga tabiat bilimlaridan tashqari arifmetik bilimlar, huquq bilimlari, har xil ilmiy munozaralar kiradi". Bizningcha ham, bilimdonlik ichki dunyoning pokligi bo'lib, insonning ichki holati tashqi xatti-harakatiga mos bo'lgani ma'qul. Yangi davr (XVI — XVIII asrlar)

Yevropa falsafasida ilm bilim sohalari orasidagi farqlanish va tizimlarni osonlashtirish maqsadida insonning malakalari hamda sezgisiga muvofiq ravishda turlarga bo'lingan edi. Unga ko'ra, "tashqi belgilari ko'rinib turadigan, zehn orqali idrok qilinadigan makon" materiyadir. Olimlar idrok qilinadigan makonni "ilm" deb atashdi.

Fransuz faylasufi Dekartga ko'ra, birdan-bir to'g'ri bilish tafakkurdir. Shaxs bilishning haqiqatligi tajriba emas, balki aql bilan belgilanadi. Demak, u bilishda sezgi a'zolari faoliyatiga ishonmaydi.

Fransuz ma'rifatparvarlari: Didro, Golbax, Gelvesiy, Volter va Lametrilar esa sezgi a'zolari tafakkurning negizi, ular inson bilishining boshlang'ich bosqichi, tafakkur esa eng yuqori, murakkab bosqichi ekanligini ta'kidlashadi.

Nemis klassik falsafasi namoyondasi Gegel: inson bilishi mutlaq ruhning shaxs qiyofasida o'z-o'zini anglashidir, deydi. L.Feyerbax fikricha, "inson bilishi tabiatning uning sezgilar va tafakkuridagi to'g'ri in'ikosi. Sezgilar bilish jarayonining boshlang'ich bosqichi, ular insonni tashqi dunyo bilan bog'lab turadi, insonni tabiat bilan tanishtiradi, lekin tabiatni tushuntirmaydi. Inson bilishining yuqori bosqichi tafakkurning asosiy ishi ma'lumotlarni to'plash, qiyoslash, tahlil qilish, izohlash, umumlashtirish asosida xulosalar chiqarishdir"

Yuqoridagi ta'riflarni umumlashtirib, quyidagicha talqin qilish mumkin: Insonning bilish jarayoni va usullari sezgi, aql hamda qalbgga bog'liq. Bilim esa bilishning natijasidir. Modomiki, jarayon turlicha ekan, uning hosilasi ham turlichadir. Bilim – muayyan bir narsaning holi, xususiyati, siri haqidagi qaysidir darajada miya ilg'ab olgan ma'lumot bo'lib, ma'lum bir vaqt davomida yaratilgan in'ikosdir. Uning nazariylashgan shaklini ilm deyish mumkin. Nazariya inson fikrida mujassamlashgan amaliyot bo'lib, uning voqelikni real aks ettirishi kuzatish, tajriba, eksperiment, o'zgartirish, yaratish (ya'ni amaliyotning shakllari) yordamida aniqlanadi.

Demak, ijtimoiy amaliy tajriba [shaxs bilishning negizi](#), manbai, harakatlantiruvchi kuchi va maqsadi hamdir. Inson bilishning darajasi doim jamiyat ishlab chiqarishi amaliyotining darajasi va imkoniyatlari bilan belgilanib keladi. Jamiyat ehtiyojlariga javob berish natijasida yangi-yangi bilimlar paydo bo'ladi, ularni ma'lum guruhlariga ajratib, sistemalashtirib borish sababli har xil fanlar vujudga keladi.

Inson bilishining turlari va shakllari. Shaxs bilish sistemasini bir nechta guruhlariga ajratib o'rganishimiz mumkin. Avval oddiy va ilmiy bilishlarga bo'lib o'rganishdan boshlaymiz.

Oddiy bilish hamma insonlarga xos odatdagi, kundalik hayotlarida borliqdagi predmet-hodisalarni o'zaro o'z sezgi a'zolari va oddiy idrok qilishlari orqali bilishdir. U insonlarning hayotiy tajriba, malaka va amaliy ishlari bilan hosil bo'lib, odatda «sog'lom fikrlar»da o'z ifodasini topgan bo'ladi.

Ilmiy bilish borliqdagi predmet-hodisalarning qonuniyatlari, ularning mazmunini bilish, odatda ilmiy tadqiqot va ilmiy izlanishlar olib borish negizida vujudga keladi. Ilmiy bilish uzoq davom etadigan, muayyan usullar bilan amalga oshiriladigan murakkab ziddiyatli holatdir. Shu bois ilmiy faoliyat bilan hamma emas, balki alohida kishilar: tadqiqotchi olimlar shug'ullanadilar.

Bilishning paydo bo'lishiga ko'ra, hissiy bilish, mantiqiy bilish, intuitiv bilish, g'oyibona bilish kabi ko'rinishlari farqlanadi.

"Hissiy bilish, odatda, insonning his qilishi, sezgi a'zolari orqali predmet-hodisalar, ularning tashqi tomon, belgi va xususiyatlarini bevosita idrok qilish. Bu deyarli barcha tirik mavjudotga xos xususiyatdir.

Mantiqiy bilish insonning predmet-hodisalarni tafakkur orqali umumlashtirib, mahumlashtirib va konkretlashtirib, fikrda anglashidir.

Intuitiv bilish hech bir to'siqsiz bevosita hissiy idroksiz va mantiqiy muhokamasiz biror yangi tasavvur yoki fikrning birdaniga, kutilmaganda vujudga kelishidir.

Xulosa o'rinda umumiy qilib aytadigan bo'lsak bilish bilmaslikdan bilishga, sayoz bil-

ishdan chuqur bilishga, to'la bo'lmagan bilimdan mukammalroq bilimga ega bo'lishga qarab harakat qilib, mashaqqatli izlanishdan iborat uzluksiz jarayondir. Bilish yana o'z navbatida ziddiyatli jarayon bo'lib, bunda odamzot tarixiy jarayonlarni boshidan kechirib, o'z ethiyojlarini to'laroq qondirish imkoniyatiga egadir. Haqiqatdan bilish faoliyati 2 turda - hissiy hamda aqliy (mantiqiy) bilishda sodir bo'larkan, bunda, haqiqat ham subyektda, ham subyektdan keyin mavjud deya izohlanadi. Hozirgi zamonda ilmiy bilish-muammoni anglab yetish, uni qo'yish va hal qilishga kirishish jarayoni bo'lib topilmoqda.

“Psixologiya fanida inson zotiga xoslik masalasi individ (lotincha individ - ajralmas, alohida zot degan ma'no anglatadi), shaxs, individuallik (yakkahollik) tushunchalari orqali akslatiriladi. Katta yoshdagi ruhiy sog'lom (esi-hushi joyida) odamlar ham, chaqaloq ham, nutqi yo'q, oddiy malakalarni o'zlashtira olmaydigan aqli zaiflar ham individlar deb nomlanadi. Biroq bulardan birinchisinigina shaxs deb atash an'anaga kirib qolgan, chunki o'sha zotgina ijtimoiy mavjudot, ijtimoiy munosabatlar mahsuli, ijtimoiy taraqqiyotning faol qatnashchisi bo'ladi. Individ sifatida yorug' dunyoga kelgan odam ijtimoiy muhit ta'sirida keyinchalik shaxsga aylanadi, shuning uchun bu holat ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egadir. Ilk bolalik chog'idayoq individ muayyan ijtimoiy munosabatlar tizimi doirasiga kiritiladi, bunday shaxslararo munosabatlar tarzi tarixiy shakllangan bo'lib, u yoshligidanoq shu tayyor (ajdodlar yaratgan) ijtimoiy munosabat, muomala, muloqot tizimi bilan tanishib boradi. Ijtimoiy qurshov (oila a'zolari, mahalla ahli, jamoatchilik, ishlab chiqarish jamoasi), ijtimoiy guruh ichida (kishilarning og'ushida, ularning qalb to'rida) odamning bundan keyingi rivojlanishi uni shaxs sifatida shakllantiruvchi, uning ongi va irodasining xususiyatlariga umuman bog'liq bo'lmagan har xil xususiyatli munosabatlar majmuasini paydo qiladi”

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Beruniy Abu Rayhon. “Ruhiyat va ta'lim-tarbiya haqida”. – Toshkent, 1992. 130 bet.
2. Boboyeva D.G. Tevarak-atrofnı o'rganishda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirish. 13.00.02. Ped. fan. nomzodi ... diss. avtoreferati. – T., 2001. – 25 b.
3. Богуславская З.М., Смирнова Е.О. Развивающие игры для детей младшего дошкольного возраста: Кн. для воспитателей детского сада. - М.: Просвещение, 1991. - 206 с.
4. Венгер Л.А. Педагогика способностей. М., «Знание», 1973. - 117 стр.
5. Выготский Л.С. Психология развития человека. — М.: Изд-во Смысл; Эксмо, 2005.
6. Ковалев А.Г. Психология личности. <http://window.edu.ru/resource/179/76179/files/psichollichn.pdf>
7. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. T.: Yangi asr avlodi, 2016. – 311 b.
8. Psixologiyadagi bilish jarayonini o'rganishda falsafiy yondoshuv – тема научной статьи по наукам об образовании читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка <https://cyberleninka.ru/article/n/psixologiyadagi-bilish-jarayonini-o-rganishda-falsafiy-yondoshuv>

THE ROLE OF EDUCATIONAL MANAGEMENT IN THE GLOBAL ECONOMY

Nabiyev G. A.

Associate Professor of Tourism and Marketing Department of Karshi State University

Abstract. In this article, the need for education management in the global economy today and the importance of education on a global scale, the role of education management in economic development and its impact on the international level, how education management shapes national and global economies, The impact of the quality of education on international trade and production, approaches to how digital technologies and globalization bring new opportunities and challenges to educational management are highlighted.

Keywords: Global Economy, Education Management, Global Importance of Education, International Impact, How Management Shapes National and Global Economies, Digital Technologies and Globalization

JAHON IQTISODIYOTIDA TA'LIM MENEJMENTINING ROLI

Nabiyev G. A.

Turizm va Marketing kafedrasi dotsenti Qarshi Davlat Universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Global iqtisodiyotning bugungi kunda ta'lim menejmentiga bo'lgan ehtiyoji va ta'limning global miqyosdagi ahamiyati, Ta'lim menejmentining iqtisodiy rivojlanishdagi roli va uning xalqaro miqyosdagi ta'siri, Ta'lim menejmenti qanday qilib milliy va global iqtisodiyotlarni shakllantiradi, Ta'lim sifatining xalqaro savdo va ishlab chiqarishga ta'siri, Raqamli texnologiyalar va globalizatsiya ta'lim menejmentiga qanday yangi imkoniyatlar va chaqiriqlar keltirish bo'yicha yondashuvlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: global iqtisodiyot, ta'lim menejmenti, ta'limning global miqyosdagi ahamiyati, xalqaro miqyosdagi ta'siri, menejmenti qanday qilib milliy va global iqtisodiyotlarni shakllantiradi, Raqamli texnologiyalar va globalizatsiya

РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО МЕНЕДЖМЕНТА В МИРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

Набиев А. Г.

Доцент кафедры туризма и отдела маркетинга Каршинский Государственный Университет

Аннотация. В этой статье рассматривается необходимость управления образованием в глобальной экономике сегодня и важность образования в глобальном масштабе, роль управления образованием в экономическом развитии и его влияние на международном уровне, как управление образованием формирует национальную и глобальную экономику, Освещены влияние качества образования на международную торговлю и производство, подходы к тому, как цифровые технологии и глобализация привносят новые возможности и вызовы в управление образованием.

Ключевые слова: глобальная экономика, Управление образованием, Глобальное значение образования, Международное влияние, Как менеджмент

формирует национальную и глобальную экономику, Цифровые технологии и глобализация

Introduction. Describe the current state of the global economy and the role of education management in this context and discuss how management education can contribute to economic development and innovation. We can see the impact of global economic factors such as a change in educational management through cooperation and integration between systems.

Participation of our country as an active participant in international economic relations in the conditions of globalization is one of the priority tasks in the Strategy of Actions on five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021, signed by the President of the Republic of Uzbekistan Sh. M. Mirziyoyev. For developed countries, the benefits of this are visible, but in some cases, this cannot be said about developing countries. It can be recognized that most of them participate in internationalization as suppliers of raw materials and labor resources and become dependent on developed and more powerful countries. Fundamental improvement of the system of working with the appeals of individuals and legal entities to the state bodies and organizations responsible for the implementation of the measures provided for in the state program, the introduction of new, effective mechanisms and methods of establishing open communication with the population, the reporting of officials to the population implementation of the system of giving, and on this basis, special attention was given to strengthening the trust of the people in the state power. In the decree, it was noted that bureaucratic barriers and pitfalls should not be created when considering the appeals of individuals and legal entities, and the process of communication with the population should not be turned into campaigning. In addition, the openness of events held within the framework of the state program, in which citizens, deputies of representative bodies of state power at all levels, non-governmental non-profit organizations, self-government bodies of citizens, luminaries, women, youth, representatives of creative and scientific institutions to ensure broad participation. Currently, special attention is being paid to the further development of the economy of our republic and for this purpose to the development of small business and private entrepreneurship. Because the development of small business and private entrepreneurship is considered a strategic task of the economic policy of our country. Because the more the economy of our country develops and reaches its highest peaks, that is, if it reaches its intended goal, the living standard of the population of our country will be higher.

Analysis of literature on the topic. The real chronological history of management begins with the movement led by a group of Western engineers at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century. They are F. Taylor, A. Fayol, G. Emerson, and others. Their focus was on improving labor productivity and renewing social relations in the enterprise. With time, management is becoming a higher branch of politics. Abdurahmanov K. Kh., a famous economist from Uzbekistan. Explained clearly in Labor Economics: Theory and Practice. In this article, the need for education management in the global economy today and the importance of education on a global scale today, the content of the approach with digital technologies is highlighted.

Analysis and results. Educational management includes comprehensive methods and approaches for managing and improving educational systems, and as the main directions of educational management, we have identified the following main areas.

The two main foundations of globalization are information and innovation, and they, in turn, provide a highly educated education system based on rapidly developing knowledge of information. it should also have a profound effect on the transfer of knowledge.

Globalization in the education system, especially, increases the demand for education and increases its high quality.

Globalization is usually interpreted using economic, political, and cultural terms. Globalization leads to the decline of the role of nation-states in the management of education, the loss of their sovereignty, and the emergence of the global hegemony of transnational media and entertainment corporations. As a result, standardization in economics, politics, and culture has become the new norm for competitive corporations, ideas, and media. Educational systems are responding differently to changes in the new economic, political, and cultural world order. Globalization has influenced the social reforms of nation-states as educational sectors adapt to a new global environment characterized by flexibility, diversity, increased competition, and unpredictable change. Understanding the impact of globalization on teaching and learning is essential for any policymaker, reformer, or education leader. In the research of scientists, according to them, the way governments approach the reform of the education sector and its response to globalization depends on three main factors:

- the objective financial situation of the government,
- interpret this situation,
- his political-ideological position about the state sector in the field of education.

These three factors are usually expressed in macroeconomics through structural adjustment policies and related large-scale education reform strategies as countries adjust not only their economies but also their education systems to new realities. The main goal of the policy of structural change in the field of education was the transition to "global education standards". This is often done by comparing all the systems of less developed countries with those of economically developed countries. Unfortunately, governments often assume that there is only one right approach to education reform and that certain "global education standards" must be met if the system is to function internationally competitively.




Figure 1. Digital technologies and globalization, in the field of educational management

Digital technologies and globalization create new opportunities in educational management and help to increase the global competitiveness of educational institutions. These two factors play an important role in adapting educational systems to the requirements of modern society and ensuring the effectiveness, convenience, and global integration of education.

Conclusions and suggestions. In conclusion, we must say that Educational Management is the main factor of competitiveness and innovative development in the global economy. A well-organized education system has a direct impact on the economic growth of the country and the overall well-being of the society, and Digital technologies and globalization are bringing about great changes in the field of education. These changes make education more efficient, accessible, and globally integrated, so modern approaches to Education Management, including distance learning, digital learning methods, and international collaborations, are gaining importance. Through these methods, educational institutions can be flexible and competitive in the global economy. Based on the conclusion made in this article, we offer the following. Educational institutions should introduce global standards, use international accreditation and certification systems, introduce digital educational tools and platforms, organize digital skills development programs for teachers and students, expand international cooperation programs, especially students and exchange of teachers, participation in international research projects, promotion of lifelong learning in the Education Management system, provision of opportunities for professional development and professional development, etc. The role of management is very important because it is the main factor in economic growth, innovation, and social development. The educational management system must be constantly updated to be flexible, efficient, and competitive in modern global economic conditions. Digital technologies, international cooperation, and the adoption of global standards will be important in this process. It is also necessary to pay attention to cultural diversity in the education management system, to promote lifelong learning, and to apply innovative approaches to strengthen the position of educational institutions in the global economy.

LIST OF USED LITERATURE

1. Law of the Republic of Uzbekistan "On Education". Adopted by the Legislative Chamber on May 19, 2020, and approved by the Senate on August 7, 2020. Tashkent city, September 23, 2020, ORQ-637 / National database of legal documents, September 24, 2020, number 03/20/637/1313.
2. Abdurakhmanov K.X., Personnel management training manual - T.: Teacher NIMU-2008- 656b
3. Djurayev R.H., Turgunov S.T. Educational management. - Tashkent., "Voris-Nashriyot", 2006.
4. Khojiahmedov G., Yakhyaeva I. Quality management. Textbook. TDIU.: 2012-200b
5. www.TDIU.uz
6. www.Lex.uz
7. www.ziyonet.uz

PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA DASTURLASHNI O'QITISHDA ZAMONAVIY USULLARDAN FOYDALANISH

Bobomuxamedova Shoira Agzamdjani qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, PhD, v.b.dotsent

Аннотация. Ta'lim tizimini raqamlashtirish o'quv maqsadlariga erishishga qaratilgan zamonaviy texnologiyalarning ta'limiy afzalliklarini o'zida aks ettiradi. Ushbu maqolaning maqsadi pedagogika Oliy ta'lim muassasalarida dasturlash tillarini zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanib o'qitishga qaratilgan bo'lib, dasturlash tillarini o'qitishda talabalarning kognitiv vizual ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi kouching (coaching) usuli, algoritmik fikrlashga yo'naltiruvchi bosqichma-bosqich (step by step) usuli hamda ularning motivatsiyasini oshiruvchi geymifikatsiya (gamefication) usullari yoritilgan.

Калит so'zlar: zamonaviy usullar, dasturlash tillari, kouching (coaching) usuli, kognitiv vizual ko'nikmalar, bosqichma-bosqich (step by step) usuli, algoritmik fikrlash, geymifikatsiya (gamefication) usuli, motivatsiya.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ ПРОГРАММИРОВАНИЮ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ

Бобомухамедова Шоира Агзамджан кизи

Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами, PhD, и.о.доцент

Аннотация. Цифровизация системы образования отражает образовательные преимущества современных технологий, направленных на достижение образовательных целей. Целью данной статьи является обучение языкам программирования с использованием современных образовательных технологий в педагогических вузах, выделены метод коучинг, служащего развитию когнитивно-визуальных навыков студентов при обучении языкам программирования, пошаговый метод ведущий к алгоритмическому мышлению, а также повышения мотивации обучающихся на основе метода геймификации.

Ключевые слова: современные методы, языки программирования, метод коучинга (коучинга), когнитивные визуальные навыки, пошаговый (постепенный) метод, алгоритмическое мышление, метод геймификации (геймификации), мотивация.

USING MODERN METHODS OF TEACHING PROGRAMMING LANGUAGES IN PEDAGOGICAL UNIVERSITIES

Bobomukhamedova Shoira Agzamdjani kizi

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, PhD, Doctor of Philosophy

Abstract. The digitalization of the education system reflects the educational advantages of modern technologies aimed at achieving educational goals. The purpose of this article is to teach programming languages using modern educational technologies in pedagogical universities, highlighting the coaching method that serves to develop the cognitive-visual skills of students when teaching programming languages, a step-by-step method leading to algorithmic thinking, as well as increasing student motivation based on the gamefication method.

Key words: modern methods, programming languages, coaching method, cognitive

visual skills, step-by-step method, algorithmic thinking, gamification method, motivation.

Jahon ta'lim muassasalarining hozirgi manzarasida o'qitishga yangicha yondashuvlarni o'zida jamlagan ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. YUNESKONing "Ta'lim-2030" xalqaro forumining ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash istiqbollari asosida ta'lim sifati va darajasini oshirish, ommaviy ochiq onlayn kurslar, ta'lim olish va boshqarishda qulayliklar yaratuvchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari strukturasi va platformasini takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda [1].

Respublikamizda so'nggi yillarda raqamli texnologiyalar sohasida raqobatni kuchaytirish orqali milliy dasturlash maktablarini rivojlantirish, ta'lim olish jarayonini takomillashtirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda.

Dasturlash tillarini o'qitish metodik tizimiga bag'ishlangan ilmiy ishlar Ye.Deykstra [2], T.Cormen [3], M.S.Shapovalova [4], M.M.Aripov [5], N.A.Otaxanov [6], M.X.Lutfullayev [7] kabi olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, Ye.S.Pavlova [8], O.G.Nelzina [9], M.A.Pavlichenko [10] va boshqa olimlar ta'limni raqamlashtirish sharoitida dasturlash tillarini zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanib o'qitish kerakligini ta'kidlaydilar.

D.Polcin [11], L.Snajdar [12], J.Gunislar [12]. ta'kidlashlaricha, bo'lajak informatika o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda dasturlash tillarini o'qitish usulik tizimi komponentlari hisoblangan yangi mazmun, shakl, usullar muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika Oliy ta'lim muassasalarida so'nggi yillarda zamonaviy ta'lim texnologiyalari negizida dasturlash maktablarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Ushbu masalani yechishda dasturlash tillarini o'qitishda zamonaviy usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasida, dasturlash tillarini o'zlashtirish uchun dastlabki ko'nikma va kompetensiyalarni hosil qilishda dasturlash tillarini mazmuni, maqsadi, shakl, usul va vositalarni joriy qilish muhim sanaladi.

J.K.Nurbekova [13] tadqiqot ishida "dasturlash tillarini o'qitishning dasturlar (algoritm)ni qo'lda aylantirish usuli; dasturlarni targ'ib qilish usuli; dasturlash usuli, ma'lum bir bo'limni o'qitish usuli; misollarni namoyish qilish usuli; loyiha metodlarini" taklif qilgan.

Dasturlash tillarini o'qitishda amaliy ishlar asosiy o'rinni egallab, masalani yechishda talabalarning mantiqiy fikrlashlari muhim rol o'ynaydi. O'qituvchining roli aniq ko'rsatma, ishning maqsadini belgilash, topshiriqlarni bajarish jarayonini nazorat qilishni tashkil qiladi.

M.P.Lapchik [14] "dasturlash tillarini o'qitishda tanlangan vazifalar usuli, loyihalar namoyishi usuli va loyiha usulidan foydalanishni tavsiya qilgan". Talabalarning mantiqiy fikrlashlarini tartiblashtiruvchi tanlangan vazifalar usuli ma'ruza mashg'ulotlarida qo'llaniladi.

Loyihalar namoyishi usuli talabalarga zamonaviy dasturiy kodni ishlab chiqish jarayoniga kirishish imkonini beradi. Bu jarayon dasturiy kodni dastlabki tahlil qilish, mumkin bo'lgan xatolarni aniqlash, dasturiy mahsulotni o'zgartirish va takomillashtirish orqali amalga oshiriladi.

Biz "Dasturlash tillari" kursidan nazariy mashg'ulotlarda talabalarning kognitiv-vizual ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi "kouching (coaching)" usulini qo'llashni tavsiya etamiz. Ushbu metod talabalarga dasturlash tillarini o'qitish natijaviyligini ko'tarishga yordam beradigan san'at bo'lib, maksimal samarali natija olish maqsadida ijtimoiy, shaxsiy va ijodiy salohiyatni joriy etish tizimidir.

Kognitiv-vizual ko'nikmalar talabalarning dasturlash tillaridan bilimga ega bo'lish, tashqi ma'lumotni aqliy idrok etish va qayta ishlash qobiliyati, muammolarni har tomonlama o'rganish orqali yechimini topa olish qobiliyati, ko'plab ma'lumotlar oqimini o'z ongida

tartibga solish, fikrlari va harakatlarida umumiylikka erisha olishga olib keladi.

“Kouching (coaching)” usuli “talabalarga dasturlash tillarini o’qitish natijaviyligini ko’tarishga yordam beradigan san’at bo’lib, maksimal samarali natija olish maqsadida ijtimoiy, shaxsiy va ijodiy salohiyatni joriy etish tizimidir” [15].


“Kouching (coaching)” usuli o’qituvchi tomonidan talabaga aniq bir maqsadga erishishga yordam beradigan o’qitish usulidir. “Kouching (coaching)”-maksimal natijaga erishish uchun ishtirokchilarning salohiyatini ochishdir. Kouch-mutaxassis, mashq o’tkazuvchi trenerdir. Ta’limiy kouching muvaffaqiyatli talabani “o’sish” imkoniyatini namoyish etadi. “Kouching (coaching)” ning bevosita natijalari har bir odamni va umuman guruhning faoliyatini yaxshilash, kritik vaziyatlarda tez va samarali ta’sir etish qobiliyati, o’zgarishlarga egiluvchanlik va moslashishdan iborat.

“Kouching (coaching)” usulida o’qituvchi talabalarga masalalarning yechimlarini izlash va hayotga joriy qilish jarayonini samarali tashkil etadi, kommunikativ rivojlanishini rag’latlantiradi va darajasini ko’tarilishiga istak bildiradi. “Kouching (coaching)” talabalarga nafaqat kommunikativ faoliyatda, shuningdek o’zining bo’lajak kasbida rivojlanishiga, yangi ko’nikmalarni egallashga va yuqori natijalarga erishishga yordam beradi.

“Kouching (coaching)” usulining ahamiyatli tomoni shundaki, o’zlashtirishi past, uyatchan va tortinchoq talabalar ham o’z fikrlarini bildirishlari uchun vaqt topa oladilar, bahs-munozara boshlanishidan oldin talabalar muamma bilan oldindan tanishib olishlari, tayyorgarlik ko’rishlari mumkin.

O’qituvchi muhokama qilinadigan mavzu, ajratilgan vaqt, talablar hamda kutilayotgan natija haqida ko’rsatmalar beradi. Shuningdek, doimiy ravishda talabalarni nazorat qilish natijasida ularni maqsad sari to’g’ri yo’naltirib boradi.

Yangi mavzuni o’rganayotganda nimani va qanday o’rganish, nimani muhokama qilish, mustaqil ish uchun nimani qoldirish mumkinligini belgilab olinadi. Shundan so’ng, muvozanat g’ildiragini chizish uchun aylana chiziladi (Jamboardda) va uni 8-10 ta teng qismga ajratiladi. Bu qismlar turli xil mazmun bilan to’ldirilishi mumkin (mavzuni o’rganishdagi bo’limlar, dars elementlari, loyiha bosqichlari va boshqalar).



1- rasm. Muvozanat g’ildiragi

Loyiha muhokamalari talabalarga auditoriya soati tugagandan keyin ham kursni muhokama qilishni davom ettirish imkonini beradi. Bu esa, talabalar uchun auditoriyadagi ma’ruzalarda olgan bilimlarini onlayn munozaralarga integratsiya qilishning usuli bo’lishi mumkin.

“Dasturlash tillari” kursidan olib borilgan amaliy mashg’ulotlarda yetti qadamdan

tashkil topgan “bosqichma-bosqich (step by step)” usulini qo'llash talabalarni dasturlash tillari orqali masalani yechishda algoritmik fikrlashga o'rgatish imkoniyatini yaratadi.

Algoritmik fikrlash- bu qadamlarning chekli soniga ega bo'lgan masalani bosqichma-bosqich yechish texnologiyasiga asoslangan maxsus fikrlash usuli bo'lib, dasturni tuzishda ko'rsatmalarni bosqichma-bosqich bajarish natijasida masalani yechimiga olib keluvchi tafakkur jarayonlari hisoblanadi. “Bosqichma-bosqich (step by step)” usulidan foydalanish orqali har bir talaba o'z fikrini bildirish, faktlarni muhokama qilish hamda yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish, muammoni tahlil qilish va uni hal qilish yo'llarini topish imkoniyatiga ega bo'ladi.

“Bosqichma-bosqich (step by step)” usulining mohiyati, materialni bosqichma-bosqich o'zlashtirib borishdan iborat bo'lib, kichik guruhlarda birdaniga bir nechta masalani muhokama qilish mumkin. Bunda guruhning har bir a'zosi barcha taklif etilgan masalalar muhokamasida ishtirok etishi va o'z hissasini qo'shishi mumkin.



2-rasm. “Bosqichma-bosqich (Step by step)” usuli.

Ta'lim jarayonida “Geymifikatsiya (gamefication)” Oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlar mazmuniga bosqichma-bosqich kirib borish imkonini beradi [17,18].

Oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlarni “Geymifikatsiya (gamefication)” usuli orqali o'qitishda talabalarning o'z-o'zini rivojlantirishga motivatsiya olish, faoliyatidan zavqlanish, muammolarni birgalikda hal qilish kabi ko'nikma va kompetensiyalari rivojlanadi.

Ushbu usuldan foydalanishda mukammal dasturiy ta'minot, dinamik o'quv muhiti hamda kasbiy bilimga ega o'qituvchilar talab qilinadi. “Geymifikatsiya (gamefication)” usulida topshiriqlar ketma-ketligi, teskari aloqa, darajalar va ijodkorlik kabi o'yin elementlaridan foydalaniladi. O'yinchilar ochko va ball yig'adi, bu esa o'z navbatida mavzu va materialni yanada yaxshiroq o'zlashtirishni ta'minlaydi.

“Geymifikatsiya (gamefication)” usulini qo'llashda “Dasturlash tillari” kursidan talabalarning o'quv-bilish faoliyati natijalarini aniqlashda “Geymifikatsiya (gamefication)” usulida Algotica mantiqiy o'yin dasturidan foydalanamiz.


Algotica- bu “to'rtinchi devor” ni buzadigan hikoyalar bilan dasturlashni o'rganishga bag'ishlangan sarguzasht va boshqotirma, interfaol formatda algoritmlash va dasturlash asoslarini o'rgatuvchi mantiqiy o'yindir [16].

Algotica o'yin dasturidagi turli murakkablikdagi bosqichlardagi vazifalarni bajarib borish orqali dasturlash tillariga doir bilimlar muntazam ravishda mustahkamlanib boriladi. O'yin davomida o'yinchi birin-ketin, yangi funksiya va buyruqlardan foydalanish huquqiga ega bo'ladi.

Kichik robotni kodlar yordamida harakatlarini dasturlash orqali boshqariladi. Har bir darajada robot ma'lum miqdordagi xotira yacheykalarini egallaydi. Har bir katakda bitta buyruq bo'lishi mumkin. Buyruqlar ekranning chap tomonidagi sohaga kiritiladi. Command tugmachasini bosish orqali yangi qator paydo bo'ladi, unga buyruq kiritiladi. Run buyrug'i yordamida kiritilgan buyruqlar ishga tushiriladi. Buyruq kiritilgan so'ng, robot harakatlana boshlaydi.

1-jadval

Algotica- o'yinida bajariladigan darajalar namunalari

| | | |
|---|--|--|
| <p>1-daraja</p> <p>Juda oson daraja. Shunchaki forward buyruqni kiritiladi va robot qizil teleportga o'tadi.</p> | <p>2-daraja</p> <p>Avval forward buyrug'i berilishi kerak, shunda robot oldinga, keyin esa backward orqali qizil teleportga qaytish uchun harakat qiladi.</p> | <p>3-daraja</p> <p>Ushbu darajada Forward buyrug'i bo'yicha robot oldinga siljiydi va keyin aylanadi. Kiritgan dastur sikllanadi, ya'ni oxirgi satrdan keyin birinchisi yana bajarila boshlaydi. Birinchisiga forward kiritilgan, shuning uchun uni qayta kiritish shart emas.</p> |
|  |  |  |
| <p>7-daraja</p> <p>To'rtta panel mavjud bo'lib, navbatma-navbat burilishlar va oldinga harakat bajariladi. Robot yangi buyruq-sakrash ya'ni, jump ni o'rganadi.</p> | <p>11-daraja</p> <p>Ushbu darajada qaysi yo'l bilan harakat qilishni tanlash mumkin. Kompyuter rezidentlari ularga qandaydir qiyin masalada yordam berishni so'rashadi. Buning uchun birinchi "chorrahadan" o'ngga burilish kerak bo'ladi.</p> | <p>15-daraja</p> <p>Robot skanerga ega bo'lib, ulanish portallari paydo bo'ladi. Bir xil rangli portallar bir-biriga bog'langan. Bu vazifa faqat bitta oldinga yurish buyruq bilan bajariladi. Avval X tugmasi bilan soha skanerlanadi.</p> |
|  |  |  |

| 16-daraja | 19-daraja | 20-daraja |
|---|--|---|
| Chiqish oldinda - faqat oldinga siljish va kerakli joyga sakrash kerak. Biroq, teleport o'chirilgan. Pastki platformada porlab turgan kub bilan uni yoqish mumkin. Shunday qilib, orqaga (backward), keyin qaytib oldinga o'tish (forward) va sakrash lozim | Ushbu darajaning boshida robot moda dubulg'asiga ega. Moviy bog'lovchi portallar chiqishga olib boradi. Lekin avval uni faollashtirish kerak. Avvalo, chiqishga teleportni faollashtirish uchun kublarni yig'ish kerak.. | Ushbu darajada sandiq paydo bo'ladi. Unda chiqish teleporterini faollashtirish uchun miltillovchi kub mavjud. Robot sandiqni ochadigan yangi- active buyrug'ini o'zlashtiradi. Kubni olgandan so'ng, chiqishga o'tish kerak. Foydalaniladigan buyruqlar: forward, activate, backward, turn-left, forward. |
|  |  |  |

Xulosa qilib aytganda, o'qishni an'anaviy tarzda tashkil etishda, mashg'ulotlarda vaqt yetishmasligi va o'quv kurslarining hajmi cheklanganligi sababli, barcha talabalar ham o'z fikrlarini bildirish va eshitishtirish imkoniyatiga ega emaslar. Dasturlashni o'qitishda talabalarining vizual ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy usullardan foydalanish talabalarga bahs-munozaralarda qatnashish, o'quv jarayoniga qiziqishni kuchaytirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. YUNESKO BMT oilasi, fuqarolik jamiyati tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va IT-sheriklari o'rtasida loyixalashtirish uchun ko'p tarmoqli 2020-yil mart oyidagi "COVID-19 global ta'lim koalitsiyasi". URL: <https://en.unesco.org/covid19/educationresponse/globalcoalition>
2. Дейкстра Е. Дисциплина программирования / Э. Дейкстра [пер. с англ]. – М. : Издательство «Мир», 1978. – 274 с.
3. Kormen T., Leyzerson Ch., Rivest R., Shtayn R. Алгоритмы: построение и анализ, 2-е издание //– М. Издательский дом «Вильямс», 2013. – 1296 с.
4. Шаповалова М.С. Организация модульного обучения программированию в техническом колледже // Известия РГПУ им. А.И.Герцена. – 2008. – №67. – С. 505-509.
5. Aripov M. va boshqalar. Informatika axborot texnologiyalari. – Toshkent: Universitet, 2007. - 264 b.
6. Otaxanov N.A. Ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash texnologiyalarini o'qitish uslubiyoti (Oliy o'quv yurtlari misolida): ped.fan.nom...diss.- T: Namdu, 2009. – 168 b.
7. Lutfullayev M.H. Oliy ta'lim o'quv jarayonini takomillashtirishda axborot texnologiyalarini integratsiyalash nazariyasi va amaliyoti (Informatika va tabiiy fanlar misolida) // Ped.fan.dok. ...diss. –Toshkent, 2007. – B 246.
8. Павлова Е.С. Методика формирования одаренности при подготовке к олимпиадам по информатике. Академия естествознания. – 2013. – № 10-6. – С. 1360-1362.
Нелзина О.Г. Проблемы обучения программированию по курсу информати-

O‘ZBEK TILIDAGI O‘SIMLIK ATAMALARINING SEMANTIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Muhammadiyeva Shohsanam Mansur qizi

Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyot universiteti 2-kurs doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilida uchraydigan flora komponentiga doir iboralar tarjimasini bilan qiyosiy tahlil qilingan. Tarjimada shakl va mazmun birligi, obrazlar, badiiy detallar, o‘xshatishlar, qofiya va radiflarning qayta ifodalanishi kabi masalalar yoritilgan. Yaqin tillardan tarjima qilishdagi qulayliklar va qiyinchiliklar misollar bilan izohlangan. O‘zbek tilidan ingliz tiliga bevosita tarjima qilish lozimligi ta’kidlanadi. Bundan tashqari aynan flora komponentiga oid idiomalar semantik va pragmatik jihatdan ham chuqur o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: idiomalar, qiyosiy tahlil, ekvivalent, shakl va mazmun, badiiy detal, o‘xshatish, flora, semantik, pragmatik .

СЕМАНТИЧЕСКИЕ И ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕРМИНОВ РАСТЕНИЙ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Мухаммадиева Шохсанам Мансур кизи

Алишер Навои Узбекский университет языка и литературы 2 курс докторант

Аннотация: В этой статье был проведен сравнительный анализ с переводом фраз, относящихся к компоненту флоры, встречающемуся в узбекском языке. Перевод затрагивает такие вопросы, как единство формы и содержания, образов, художественных деталей, аналогий, переосмысления рифм и рифм. Удобства и трудности перевода с близкородственных языков объясняются примерами. Подчеркивается необходимость прямого перевода с узбекского языка на английский. Кроме того, идиомы, относящиеся именно к компоненту флоры, также глубоко изучены семантически и прагматически.

Ключевые слова: идиомы, сравнительный анализ, эквивалент, форма и содержание, художественная деталь, аналогия, флора, семантика, прагматика.

SEMANTIC AND PRAGMATIC FEATURES OF PLANT TERMS IN THE UZBEK LANGUAGE

Mukhammadieva Shokhsanam Mansur kizi

Alisher Navoi Uzbek Language and Literature University 2nd year doctoral student

Abstract: In this article, a comparative analysis was carried out with the translation of phrases related to the component of flora found in the Uzbek language. The translation touches on issues such as the unity of form and content, images, artistic details, analogies, reinterpretation of rhymes and rhymes. The convenience and difficulties of translating from closely related languages are explained by examples. The need for direct translation from Uzbek into English is emphasized. In addition, idioms related specifically to the flora component are also deeply studied semantically and pragmatically.

Keywords: idiom, comparative analysis, equivalent, form and content, artistic detail, analogy, flora, semantics, pragmatics.

Kirish (Introduction). Til bu har qaysi millatning o'ziga xos madaniyatini ko'rsatib beruvchi bir vositadir. Tilda mavjud bo'lgan har bir birlik qay darajada bo'lsa ham milliy va madaniy o'ziga xosliklarni kashf etadi. Milliy-madaniy o'ziga xoslikni o'zida mujassam etgan mana shunday til birliklari benihoya betakrorlik timsolidir. Ana shunday til birliklari qatorida frazeologizmlar millat madaniyati, turmush tarzi, hamda uzoq yillik kuzatuvlarning jamlanma ifodasidir.

Dunyo miqyosida tilshunoslikka oid til birliklarining milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berish, ularda uchraydigan shakily-mazmuniy tuzilishning o'ziga xosliklarini aniqlash tilshunoslar oldida turgan murakkab bir masalaga aylandi. Xususan, frazeologizmlarning semantik va pragmatik jihatlarini ko'rsatish va ularni okkazional asosda model-lashtirish kabi masalalar tilshunoslar e'tiboriga molik edi.

O'zbek tilshunosligida ham frazeologik birliklar tadqiqiga oid masalalar ko'p yillardan buyon mutaxassislar e'tiborini tortib kelmoqda. Frazeologik birliklarning shakllanishi, etimologiyasi, uslubiy jihatlari, o'ziga xos birliklari, boshqa tilda mavjud bo'lgan iboralar bilan qiyoslanishi singari masalalar ustida atroflicha ishlar olib borildi va bu muammoga yechim sifatida ko'plab monografik qo'lyozmalar yaratildi. Bu izlanishlar pirovardida Sh.Rahmatullayev, M.Husainov, A.Mamatov, Ya.D.Pinxasov, B.Yo'ldoshev, A.Isayev, M.Sodiqova, Sh.Usmanova, K.Bozorboyev, B.Jo'rayeva, Sh.Almamatova, M.Vafoyeva kabi tilshunoslarning xizmatlari yetibdi.

Sh.Rahmatullayev olib borgan izlanishlar natijasi bu "O'zbek tilidagi frazeologik birliklarning izohli lug'atlari" nomli risolaning yaratilishidir. A.Mamatova va B.Yo'ldoshev birgalikda frazeologizmlarning uslubiy xususiyatlari, hamda, iboralarning tarixiga oid ilmiy ishlari bilan o'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning taraqqiy etishiga munosib ravishda o'z hissalarini qo'shdilar.

Xususan, Sh.Rahmatullayev o'tgan asrning 90-yillarida aynan o'zbek tilidagi til birliklarini modellashtirish g'oyasini ilgari surdi va frazeologizmlarning shakily tuzilishini ifoda etuvchi misollarni ham ko'rsatib bera oldi. Lekin tilshunosning modellashtirish muammosiga bag'ishlangan qarashlari yetarlicha emas edi, chunki hozirga qadar o'zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning struktur tahlili hamda modellashtirish ishlari monografiya shaklida maxsus tarzida o'rganilmagan.

Shu o'rinda, o'zbek tilidagi flora idiomalarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu tadqiqot til birliklarining semantik va pragmatik jihatdan bog'liqliligi va ularni tarjima qilish usullari haqidagi tushunchamizni kengaytiradi.

O'zbek tilida flora idiomalari, ya'ni o'simliklarga doir iboralar, o'zbek xalqining tabiiy muhitdagi o'simliklarga bo'lgan munosabatini, madaniyatini va an'alarini aks ettiradi. Ushbu idiomalar ko'pincha o'simliklarning xususiyatlari yoki ularning hayotdagi rollari bilan bog'liq ravishda shakllanadi. O'simliklar bilan bog'liq iboralar nafaqat lug'at boyligini oshirish, balki milliy meros va madaniyatni ham saqlab qolish uchun muhim ahamiyatga ega.

O'zbek tilidagi flora idiomalarning ko'pchiligi qadimiy turkiy tillardan kelib chiqadi. Tarixiy jarayonlar, madaniy almashuvlar va til o'zgarishlari natijasida bu iboralar shakllangan. O'zbek tilida o'simliklar bilan bog'liq bo'lgan ko'plab iboralar turli dialektlar va mintaqalar orasida farq qiladi.

O'simliklar o'zbek xalqining an'anaviy hayot tarzida muhim rol o'ynaydi. Ular oziq-ovqat, dori-darmon, qo'shiqlar va folklor asarlarini yaratishda, shuningdek, turli marosimlar va bayramlarda ishtirok etishadi. Boshqa mamlakatlarda shakllangan madaniyatlar bilan solishtirganda, o'zbek tilida flora idiomalari bog'lanishlar, hurmat va qadrlashni ko'rsatadi.

O'zbek tiliga xos o'simliklarga oid iboralar tarkibini asosan "olma", "qoqi", "qovun",

“g'uncha”, “tayoq”, “tarvuz”, “qovoq”, “daraxt”, “ildiz” va boshqa ko'plab komponentlar tashkil etadi.

Quyida tanlangan flora idiomalarining o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjimasining qisqacha lug'ati keltirilgan:

| № | O'zbek tilida | Ma'nosi | Tarjimasi |
|----|--|---|--|
| 1. | Olma bilan o'rik bo'larmidi | Yoshi o'tgan, qari | An old person |
| 2. | Jinnini jinni desang arpa bo'yi o'sadi | Yomonni yomonlasang shuncha yomonlashadi | The worse you speak about a person the worse she/he can be |
| 3. | Ko'z bilan olma termog | Anqaymoq, tikilib qarash | To stare |
| 4. | Tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq | Umidi puchga chiqmoq, hafsalasi pir bo'lmoq | To be disappointed |
| 5. | Oq oltin | Paxta | White gold, cotton |
| 6. | Dala malikasi | Makkajo'xori | The queen of fields, corn |

O'zbek tilidagi flora idiomalari ko'p hollarda o'simliklarning o'ziga xos xususiyatlari, ramziy ma'nolari bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, “tug'yonli gul” iborasi turli xil ma'nolarni anglatuvchi metafora sifatida ishlatilishi mumkin. Bunday iboralar, xalq ongida o'simliklarning qadrini va ularning hayotdagi rolini aks ettiradi. O'zbek tilida flora idiomalarini o'rganish jarayonida uning semantik va pragmatik xususiyatlarini ham ko'rib chiqish zarur.

Semantik va pragmatik xususiyatlar tilshunoslikda o'rganiladigan asosiy bo'limlaridan bo'lib, ular tildagi ma'no va ifoda jarayonlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Semantik jihatdan tilning ma'nosini, so'zlar va iboralarni ortida yashiringan mazmunlar o'rganilsa, pragmatik jihatdan esa, asosan, muloqotda vositalar sifatida ishlatilayotgan iboralarning mahalliy muammolari va kontekstual o'zgarishi tahlil qilinadi. Bu ikki bo'lim o'rtasidagi bog'lanishlar nafaqat tilning nazariy jihatlarini, balki uning amaliy qo'llanilishlarini ham tashkil etadi.

Yuqoridagi jadvalda berilganidek, o'simlik atamalariga doir iboralarni semantik va pragmatik jihatdan birma-bir tahlil qilib chiqamiz. Eng avvalo, “meva” nomlariga oid iboralarni ko'rib chiqamiz:

Olma:

Olma nomi bilan bog'liq iboralar o'zbek tilida ko'plab ma'nolarni aks ettiradi. Olma o'zining shirin va ta'mi bilan tanilgan bo'lib, bunday iboralarda ko'plab madaniy, hissiy va amaliy jihatlari kontekstlarda mavjud. Quyida olma bilan bog'liq ba'zi iboralar va ularga oid semantik hamda pragmatik tahlillar keltirilgan:

“Olma bilan o'rik bo'larmidi” iborasi

o'zbek tilida qiziqarli semantik va pragmatik jihatlarni o'z ichiga olgan idiomadir. Ushbu ibora ikki turli o'simlikni — olmalarni va o'riklarni — birlashtirgan holda, muayyan ma'no va kontekstda ishlatiladi. Bu iborani lingvistik jihatdan semantik tahlil qilsak, “olma” va “o'rik” so'zlari individual ravishda turli xil mevalarni anglatuvchi so'zlardir. Ular bir-biri-

ga nisbatan ochiq ko'rinishda farqlanadi, ularning o'ziga xos xususiyatlari va ta'mlari bor. Bu ibora ko'proq metaforik ma'noda ishlatiladi. Uning konnotatsiyasi, ehtimol, qandaydir ikki narsaning, insonlar yoki holatlarning bir-biriga mos kelishi yoki kelmasligini, o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Odatda, bu ibora ikki xil fikr, til, o'zaro munosabat yoki hodisani solishtirishda yoki ularni bir-biriga bog'lashda ishlatiladi. *"Olma bilan o'rik bo'larmidi"* iborasi odatda ijtimoiy kontekstdagi muhokamalar, bahslar yoki munozaralarda ishlatilishi mumkin. U ko'pincha hazil mutoyiba ma'nosida qo'llaniladi. Shunday qilib bu ibora o'zbek tilida nafaqat kulgili yoki engil taassurot qoldirish, balki og'zaki nutqda muhim rol o'ynaydigan san'atchilik jihatlarini o'z ichiga oladi. U tillararo bog'lanish va insonlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish uchun ham qiziqarli bir misol hisoblanadi.

"Ko'z bilan olma termoq":

"Ko'z bilan olma termoq" iborasi o'zbek tilida keng tarqalgan metaforik iboralardan biridir. Ushbu ibora aslida ko'z bilan olingan olma yoki meva emas, balki ko'proq figurativ ma'noda ishlatiladi. Bu ibora, asosan, biror joyda yoki vaziyatda bir narsani ko'rasiz (o'zingizga ma'qul yoki yoqimli narsani) va uni tasavvur qilishingizni, lekin uni olish imkoniyatingiz yo'qligini anglatadi. Iborada ko'z (yoki ko'rish) va olma (yoki o'ziga xos biror narsa) o'rtasida ma'nolar bog'lanadi. "Ko'z" bu yerda ko'rish, tajriba va hissiyotning ramzi sifatida ishlatiladi, "olma" esa o'zini o'zi baholash yoki qiyoslash uchun ma'qul bo'lgan narsadir. Shu tariqa, ushbu ibora ko'p hollarda erishilmaydigan, ammo juda qidirilayotgan narsa yoki imkoniyatlarni ifodalaydi. Ushbu ibora ko'p hollarda achinish, haya yoki g'azab kabi salbiy his-tuyg'ularni yaratadi.

6. Залевская А.А. Вопросы психолингвистической теории двуязычия / А.А. Залевская // Вопросы психолингвистики. – 2009. – № 2 (10). – С. 10-17.
7. Легостаева О.В. (n.d.). ИСКУССТВЕННЫЙ БИЛИНГВИЗМ КАК УСЛОВИЕ АДАПТАЦИИ В ПОЛИЛИНГВАЛЬНОМ МИРЕ. *НОВЫЙ ВЗГЛЯД. МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК*
8. Леонтьев А.А., Т.В. Рябова, «Психологические вопросы обучения иностранцев русскому языку», 1972 г;
9. Нелюбин Л.Л. Толковый переводческий словарь. – 3-е издание, переработанное. [Текст] / Л.Л. Нелюбин // М.: Флинта: Наука, 2003;
10. Словарь социолингвистических терминов. — М.: Российская академия наук. Институт языкознания. Российская академия лингвистических наук. Ответственный редактор: доктор филологических наук В.Ю. Михальченко. 2006.
11. Черничкина Е.К. Искусственный билингвизм: лингвистический статус и характеристики: автореф. дисс. ... д-ра. филолог. наук: на правах рукописи / Е.К. Черничкина. – Волгоград, 2007. – С. 11-12.
12. Чудинов А.Н. Словарь иностранных слов, вошедших в состав русского языка, 1910. http://dic.academic.ru/dic.nsf/dic_fwords (дата обращения 18.04.2017);
13. Alexandrova, N. (2017). Can natural bilingualism be harmful? *RUDN Journal of Language Education and Translingual Practices*, 14(2), 211-216. doi:10.22363/2312-8011-2017-14-2-211-216;

14. Hoff E., Core C. Input and Language Development in Bilingually Developing Children // *Semin Speech Lang.* 2013; 34: 215—226. doi: <http://dx.doi.org/10.1055/s-0033-1353448>; Александрова Н.Ш. Почему Лера не заговорила по-немецки? К вопросу организации двуязычных детских садов / *Curriculare und soziale Aspekte der Bildung und Erziehung bilingualer Kinder.* Band 6; Berlin 2015; 273—275.
15. Калашникова, Л., & Жилина, Л. (n.d.). *Проблемы билингвизма*; Александрова Н.Ш. Почему Лера не заговорила по-немецки? К вопросу организации двуязычных детских садов / *Curriculare und soziale Aspekte der Bildung und Erziehung bilingualer Kinder.* Band 6; Berlin 2015; 273—275;
16. Халеева И.И. Основы теории обучения пониманию иноязычной речи: (Подготовка переводчиков): дисс ... д.п.н... – Москва, 1990;

PSIXOLOGIK HIMOYANING IJTIMOY OMILLARI

Fayziyeva M.X.

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor v.b

Annotatsiya Maqolada shaxsda psixologik ximoya mexanzmi shakllanishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari xususidagi fikrlar bayon etilgan. Unda eksperimental ta-dqiqotlarni amalga oshirish shart-sharoitlari: psixologik himoya tizimi haqidagi bilimlarni assimilyatsiya qilish, ayniqsa, shaxs va psixologik himoya tizimining ishlash talabalarini psixologik himoya tizimining turli yo'nalishlarda o'zgarishiga olib kelishi taxlillarda orqali ifodalangan.

Kalit so'zlar : psixologik ximoya, diagnostik, nazariy va tashkil etilgan tajriba blokla-ri, himoya tizimining umumiy kuchlanishi, psixologik himoya, koping xulq-atvor.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ

Файзиева М.Х.

Доктор психологических наук (DSc), и.о.профессор

Аннотация . В статье представлены взгляды на анализ программной эффективности формирования конструктивного механизма психологической защиты. В нем условия для проведения экспериментального исследования: усвоение знаний о системе психологической защиты, в частности, о характеристиках личности и системе психологической защиты, побуждают студентов менять систему психологической защиты в разных направлениях.

Ключевые слова: конструктивная психология, диагностические, теоретические и организованные экспериментальные блоки, анкета Плутчика - Келермана-Конте, общая напряженность защитной системы, психологическая защита, компенсаторное поведение.

SOCIAL PSYCHOLOGICAL FACTORS OF PSYCHOLOGICAL PROTECTION

Fayzieva M.Kh.

Doctor of Psychology (DSc), Professor

Abstract This article presents the views on the analysis of software effectiveness of the formation of a constructive psychological defense mechanism. In it, the conditions for conducting experimental research: the assimilation of knowledge about the system of psychological protection, in particular, the performance of the individual and the system of psychological protection lead students to change the system of psychological protection in different directions.

Key words and concepts: constructive psychology, diagnostic, theoretical and organized experimental blocks, Plutchik-Kelerman-Conte survey, overall voltage of the protective system, psychological protection, coping behavior.

Kirish Psixologik himoya hodisasi psixologiya fanida eng munozarali hodisalardan biridir. Zamonaviy psixologiyada shaxs rivojlanishini belgilaydigan psixologik himoyan-ing roli haqida yagona nuqtai nazar mavjud emas. Bir qator mualliflar psixologik himoya tushunchasini moslashishning yetarli bo'lmagan usullarini, shaxsning atrof-muhit bilan real aloqasini susaytiruvchi, uning rivojlanishini qashshoqlashtiruvchi va deviant xulq-atvor shakllanishiga yordam beruvchi patologik kommunikatsiyalar sifatida baholaydilar.

Boshqalar "Men" -shaxsining ijobiy tasvirini saqlab qolish uchun himoyani qo'llash zaruriyatini, asabiylashish vaziyatini boshdan kechirish, dezorganizatsion xulq-atvorning oldini olish uchun zarur imkoniyatlar sifatida baholaganlar.

Mavzuning dolzarbligi Bugungi kunda jahonda sodir bo'layotgan jiddiy o'zgarishlar shaxslararo munosabatlar psixologiyasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi va buning natijasida ma'lum bir ziddiyatlarning yuzaga kelishi ham sir emas. Bunday ziddiyatlarning mavjudligi shaxsni psixologik himoya qilishning turli yo'nalishlarini yuzaga keltiradi. Ulardan biri psixologik himoya mexanizmlarining konstruktiv faoliyatini ta'minlash shart-sharoitlari, mezonlari va xususiyatlarini aniqlashni maqsad qiladi. Bu ulardan foydalanish samaradorligi muammosini oydinlashtirishga yordam beradi bu esa bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, psixolog olimlarimiz tomonidan talabalarda psixologik himoya mexanizmining ijtimoiy jixatlari yetarli o'rganilmagan.

Maqsad Shaxsni psixologik himoya qilish faoliyati uning maxsus mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Psixologik himoya mexanizmlari ostida "kelib tushadigan axborotlarni ongli ravishda qayta ishlash hisobidan shaxsning intrapsixik moslashuv jarayonlari" yuzaga keladi, deb tushunish mumkin. Bu operatsiyalarda barcha ruhiy jarayonlar va funksiyalar ishtirok etadi: his-tuyg'ular, fikrlash, tasavvur, diqqat, xotira, idrok. Psixik shikastlanish vaziyatida himoya mexanizmlari axborot filtrlari sifatida o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'ladi; axborotni tartibsizlashtirish yoki rad etish yoki buzib tashlash yoki boshqa bir ma'qulrog'i bilan almashtirish tarzida ifodalanadi. Holatning bunday ichki o'zgarishi atrofdagi voqelikka moslashuvning maxsus shakliga (himoya mexanizmi-ga) sabab bo'ladi.

Eksperimental tadqiqotlar, psixologik himoya tizimi va uning faoliyat ko'rsatish xususiyatlari turli shaxslar uchun bir xil emasligini ko'rsatadi. Ba'zilar himoya zaif bo'ladi va kerakli narsalardan himoya qilmaydi, boshqalarda esa shaxsni rivoj topishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni idrok etmaydigan darajada shunchalik intensiv himoya shakllanadi.

Mavzu bo'yicha boshqa olimlar ilmiy asarlari qisqacha tahlili

Yuqorida aytib o'tilganlar profilaktik funksiyalarni va jamiyatda shaxsning buzilishiga olib keladigan patologik himoyani bajaradigan normal, doimiy harakatlanadigan zaruriyatni farqlash talab qilinadi. Himoya mexanizmlarini normal va patologik tasniflashga o'rinlashlar zamonaviy psixologiyada tasvirlangan (I.M. Granovskaya, G.V. Grachev, L.R. Grebennikov, YE.L. Dotsenko, B.V. Zeygarnik, V.G. Kamenskaya, F. Kramer, V.F. Morgun, I.M. Nikolskaya, YE.S. Romanova, R. Plutchik, A. Freud, T.S.). Ushbu tadqiqotlarda psixologik himoyani tasniflash uchun turli yondashuvlar qo'llaniladi: 1. Klinik-neyropsixik buzilishlarning yetakchi belgilariga asoslangan; 2. Ontogenetik-alohida himoya turlari shakllanishining vaqtiga asoslangan; 3. Evolyutsion-emotsional- moslashuv tabiatiga ega bo'lgan alohida asosiy his-tuyg'ularni nazorat qilish tamoyiliga asoslangan. Birinchi yondashuv patopsixologiyada, tibbiyotda va psixiatriyada keng qo'llaniladi. Ikkinchisi 4dan 36gacha bo'lgan ibtidoiy (bolaning aqliy va ijtimoiy rivojlanishida birinchi bo'lib shakllangan va namoyon bo'lgan) va undan yuqori (rivojlanish jarayonida ibtidoiy o'zgartiriladi)ga ajratiladi. Uchinchi yondashuv R. Plutchik tomonidan ilgari surilgan hissiyotlarning psixoevolyutsion nazariyasiga asoslangan. Birinchi marta himoya mexanizmlarining tasnifi A. Freydning monografiyasida berilgan

Muallif quyidagi mezonlarni taklif qiladi: "men" tahdidining lokalizatsiyasi, ontogenezda shakllanish vaqti. Bundan tashqari, A. Freyd rivojlanish jarayonlarining normaligi muayyan himoya jarayonlari va tendensiyalarning hukmronligiga bog'liq ekanligini ta'kidlagan. Agar shaxs bir himoya usulini qunt bilan qo'llasa va boshqa odamlarga bo'lgan munosabatlar ham shu himoyaga asoslansa, bu hodisani meyorimi yoki patologik, qay darajada ko'rib chiqilishini aniqlash qiyin. Keyinchalik, so'ngi mezon psixologik himoya mexanizmlarining zamonaviy bo'linmalarida birlamchi va ikkilamchi, ibtidoiy va rivojlan-

gan, adaptiv va moslanmaydigan, yetarli va kam, samarali va samarasiz bo'lgan holda ishlatilgan.

Psixologik himoya mexanizmlarining asabiylashish sharoitida namoyon bo'lishini M.A. Mkrtyan ko'rib chiqqan. Shaxs bunday vaziyatlarda hech qanday yagona ajratilgan mexanizm bilan emas, balki ulardan biri yetakchi va strukturaviy rol o'ynaydigan himoya reaksiyalari butun majmuasi bilan reaksiyaga kirishadi. Himoya majmualarining shakllanishiga shaxsning o'tmish tajribasi, uning qadriyatlari va munosabatlari ta'sir etadi. Muallif himoya mexanizmlarini ikki asosiy guruhga ajratadi: faol va sust ko'rinishlarga. Faol himoyalar frustratorni, nizoli vaziyatni bevosita hujumni bartaraf etish orqali nizolarni bartaraf etishga olib keladi. Sust himoya reaksiyalari to'siqlarni bartaraf etish orqali ziddiyatni bartaraf etishga olib keladi. Shaxsning yoshga oid rivojlanish bosqichida intrapersonal himoya mexanizmlarining tobeligiga asoslanib, bilim jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini R. Plutchik primitivlik-yetuklik mezoniga ko'ra himoya tasnifini tuzadi. Ontogenetik jihatdan dastlabki himoyalar perseptual jarayonlarga asoslangan holda paydo bo'ladi: diqqat, sezgilar, idrok, ularni faoliyatda ko'rmaslik, axborotni rad etish bilan bog'liq. Bu guruhga R. Plutchik rad etishni, loyihalashni, orqaga qaytishni va ularning analoglarini tegishli, deb hisoblaydi. Mazkur himoyalar eng ibtidoiy, va ulardan foydalanadigan odam esa hissiy va chala shakllangan shaxs sifatida ifodalanadi. Keyinchalik, xotira jarayonlariga asoslangan himoyalar paydo bo'ladi: o'rnini egallash va o'rnini almashtirish. Ushbu mexanizmlarning ta'siri axborotni unutishga asoslangan. Eng murakkab va yetuk himoyalarga o'rnini almashtirish, kompensatsiya va ratsionalizatorlik kiradi. Ular tasavvur va fikrlashning rivojlanishi hajmiga ko'ra shakllanadi va axborotni himoyali qayta ishlash va qayta baholashga yordam beradi. Biz sakkizta asosiy himoya mexanizmlarining konstruktivlik darajasini belgilaydigan va ularning ishlash xususiyatlarini ko'rsatadigan holda tasvirlaymiz.

Inkor etish - dastlabki ontogenetik va eng ibtidoiy himoya mexanizmidir. Voqelikdagi narsa va hodisalar idrok qilinayotgan vaqtda axborot filtri faoliyat ko'rsatadi. Shaxsning tasavvur mazmuni va dunyoqarashiga qarama-qarshilik qiladigan ma'lumotlar qabul qilinmaydi. Inkor etish mavjud voqelikni infantil almashtirishni nazarda tutadi va har qanday salbiy jihatlar bloklanadi va ijobiy tizimga ruxsat etiladi. Natijada, shaxs travmatik vaziyatni bosqichma-bosqich boshdan kechirish imkoniga ega bo'ladi. Yangi sharoitlarga moslashish sust xarakterga ega bo'lib, konstruktivlikning quyi darajasi ifodalanadi.

1-jadval.

Psixologik himoya mexanizmlarining ichki xususiyatlari

| Psixologik himoya anizmlarining ichki xususiyatlari | Inkor etish | oyihalashtirish | Orqaga qaytish | O'rin almashtirish | Siqib chiqarish | Ratsionalizatsiya | Kompensatsiya | Giperkompensatsiya |
|---|---------------|-----------------|----------------|--------------------|-----------------|-------------------|----------------------|----------------------|
| Yetakchi bilim jarayoni | O'zlashtirish | O'zlashtirish | Xotira | Fikrlash | Xotira | Fikrlash | Fikrlash | Fikrlash |
| Kechirgan his-tuyg'ular | Rad etish | Yoqimsizlik | Jur'atsizlik | G'azab | Qo'rquv | Xavfsizlik | G'am, qayg'u, xorlik | G'am, qayg'u, xorlik |
| Moslashish tabiati | Sust | Faol | Faol | Aralash | Sust | Sust | Tobe emas | Tobe emas |
| Konstruk-tivlik darajasi | Quyi | Sust | Quyi | O'rta | O'rta | Yuqori | Yuqori | Yuqori |

Loyihalashtirish - psixologik himoya shakli bo'lib, bu tushuncha dastlab Z.Freyd tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Loyihalashtirishning funksiyasi subyekt tomonidan uning shaxsiy fikrlari, kechinmalari, siqib chiqarilgan motivlari va xarakter xislatlarini o'zi anglagan va anglamagan holda boshqa odamlarga ko'chirilishida namoyon bo'ladi. Ba'zan o'z qilmishlari uchun javobgarlikni o'tkazish maqsadida qo'llaniladi. Bunda atributiv loyihalashni ham farqlaydilar (o'z salbiy sifatlarini ongsiz rad etish va ularni atrofda qilarga tarqatish); ratsionalistik o'ziga tegishli fazilatlarini anglash va ("hamma shunday qiladi" formulasiga ko'ra loyihalash); xushomadgo'y (o'zgalarning haqiqiy yoki xayoliy kamchiliklarini yaxshi fazilatlar sifatida talqin qilish); similyativ (kamchiliklarni o'xshashlik bilan moslashtirish, masalan, ota – bola). Ushbu mexanizm ijtimoiy moslashishning faol turiga ega bo'lgan shaxslar uchun xosdir. Konstruktivlikning quyi darajasi ifodalanadi.

Orqaga qaytish – Zigmund Freyd nazariyasi bo'yicha psixologik himoya mexanizmlaridan biri bo'lib, inson tahlikali holatlarda odatda bolaligida o'zlashtirgan xulq-atvor shakllariga murojaat etadi. Orqaga qaytish inqiroz, tanazzul, chekinish ma'nolarini ham ifodalaydi, rivojlanishning ancha oldingi darajalariga qaytish. Har bir katta yoshdagi kishi hatto juda yaxshi moslashib olgan bo'lsada, "yengil tortib olish" uchun vaqti-vaqti bilan himoyalashning bu usuliga qaytib turadi (bolaligida odatlangan ish-harakatlarini takrorlaydi). Orqaga qaytish ko'proq hulq-atvorning va qoniqishning yetilmagan usullariga qaytishni taxmin qiladi. Regressiv xulq odatda bolaning infantilizatsiyasi va hissiy simbioziga munosabatda bo'lgan kattalar tomonidan rag'batlantiriladi. Orqaga qaytish-ijobiy o'z-o'zini his qilish uchun qabul qilinishi mumkin bo'lmagan va tajovuzkorga bevosita tobekka tushib qolish xavfi bo'lgan qo'rquv hisini jilovlash uchun ishlatiladi. Qo'rquv haqiqiy rag'batni, shuningdek, u bilan bog'liq barcha narsalar, faktlar va holatlarni unutish bilan bloklaydi. Mexanizm moslashuvning sust turiga ega bo'lgan shaxslar tomonidan qo'llaniladi. Konstruktivlikning quyi darajasi ifodalanadi.

O'rin almashtirish - g'azab tuyg'usini jilovlash uchun amal qiladi. Shaxs ko'proq zaifroq jonli yoki jonsiz obyektga yoki o'ziga tajovuz qilinganligiga e'tibor bergan holda keskinlikni yo'qotadi. O'rin almashtirish ham faol va ham sust shakllarga ega bo'lib, shaxslar tomonidan ularning ziddiyatli munosabat turlaridan va ijtimoiy moslashishidan qat'iy nazar shaxs munosabatlarida foydalaniladi. Mazkur mexanizm faol moslashish turiga ega bo'lgan shaxslar uchun xosdir. Bu holatda konstruktivlikning o'rtacha darajasi namoyon bo'ladi.

O'rnini egallash (siqib chiqarish) – bu psixologik himoya mexanizmini dastlab Zigmund Freyd o'rganib chiqqan (uning analoglari "bostirish"). Vahima yoki vasvasaga qarshi tura olmaydigan har bir kishida siqib chiqarish "o'zini" himoya qilishning asosiy usuli hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, "repressiya" - bu shaxs uchun qabul qilinadigan impulslar: istak, fikr, tashvish uyg'otadigan his-tuyg'ular ongsiz namoyon bo'ladigan himoya mexanizmi hisoblanadi. Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bu mexanizm shaxsning boshqa himoya mexanizmlarining harakati ta'sirida ham namoyon bo'ladi. Xulq-atvorda hali shakllanmay, repressiya qilingan (tushkunlikka tushgan) impulslar, ularning hissiy va psixovegetativ qismlarini saqlab qolishadi. Misol uchun, psixotravmatik vaziyatning mazmunli tomoni tushunilmaydigan odatiy holat bo'lib, inson har qanday noto'g'ri xatti-harakatlarning amalga oshirishini bekor qiladi, ammo intrapsixikada mojaro davom etadi va uning oqibatida paydo bo'lgan hissiy tanglik subyektiv ravishda tashqi ko'rinishdagi tashvish sifatida yuzaga chiqadi. Shuning uchun yuzaga kelgan istaklar nevrologik va psixofiziologik alomatlarida namoyon bo'lishi mumkin. Yuzaga kelgan sharoitlarga moslashish sust xarakterga ega bo'lib, konstruktivlikning o'rta darajasi ifodalanadi.

Ratsionalizatorlik - stressli holatlarda yuzaga keladigan psixologik himoya mexanizmlaridan biri. Bunda yaqinlashib kelayotgan salbiy hodisa har tomonlama tahlil qilinadi, uning noaniqlik darajasi pasaytiriladi, hodisaning ichiga kirib, unga oldindan

moslashib boriladi, kutilmaganlik (to'satdanlik) effekti bartaraf qilinadi. Muammoning yechimiga erishish oqilona tashkil etiladi. Bu mexanizm, moslashuvning sust turiga ega bo'lgan shaxslar tomonidan qo'llaniladi. Konstruktivlik darajasi yuqori bo'ladi.

Kompensatsiya - psixologik himoya mexanizmlaridan biri. Bunda, ruhiy yoki jismoniy funksiyalarni maqsadga muvofiq rivojlantirish hisobiga adekvatlik hisining kechinilishi ro'y beradi. Kompensatsiya insonning muayyan sohadagi biror bir kamchiligi, nuqsoni yoki ojiz tomonini boshqa sohalarida o'zini namoyon qilish orqali bекitishga harakat qilishidir. Ushbu psixologik himoya mexanizmi ontogenetik jihatdan eng so'nggi va kognitiv jihatdan murakkab mudofaa mexanizmidir. Haqiqiy yoki xayoliy yo'qotish, yetishmovchilik va xorlik sababli g'am va qayg'u kabi his-tuyg'ularni jilovlash uchun mo'ljallangan. Kompensatsiya-o'rnini qoplamoq, o'rnini to'ldirmoq ma'nolarida kelib, bu kamchiliklarni tuzatish yoki yaxshi sifatlarga o'rnini almashtirishga urinishni o'z ichiga oladi.

Kompensatsiya klasteriga ideal darajadagi kompensatsiya deb tushunish mumkin bo'lgan **giperkompensatsiya** mexanizmi ham kiradi. Giperkompensatsiya-haddan tashqari, oqilona yoki mahorat bilan o'rnini qoplamoq, o'rnini to'ldirmoq ma'nolarini ifodalaydi. Mexanizmdan foydalanish ijtimoiy moslashuvning individual turiga bog'liq emas. Konstruktivlikning yuqori darajasi amal qiladi.

Talabalarda psixologik himoya mexanizmlarining konstruktiv usullarini shakllantirish bo'yicha eksperimental izlanish natijalarini statistik qayta ishlash Vilkokson T-mezoni yordamida amalga oshirildi. Bu borada statistik jihatdan ahamiyatli o'zgarishlar psixologik himoya mexanizmlaridan: repressiya, regressiya, rad etish, kompensatsiya, giperpensatsiyalarda aniqlandi.

Psixologik tadqiqotimizning diagnostik natijalarini muhokama qilishning navbatdagi bosqichiga o'tamiz. Ikkinchi jadvalda taqdim etilgan psixologik himoya mexanizmlarining talabalar guruhlaridagi sezilarli farqlarini tahlil qilish Styudent mezon yordamida amalga oshirildi.

2-jadval.

1-kurs talabalarini psixologik himoya qilish mexanizmlarining keskinligini taqqoslash Tg-1 va Ng-1 o'zaro ta'sirdan keyin

| Psixologik himoya mexanizmlari | Tg-1kursda psixologik himoya mexanizmlarining kuchlanishi (%) | Ng-1kursda psixologik himoya mexanizmlarining kuchlanishi(%) | t< P |
|---|---|--|-------|
| O'rnini egallash | 38 | 50 | 2,12 |
| Orqaga qaytish | 43 | 54 | 2,55 |
| O'rin almashtirish | 41 | 46 | 2,01 |
| Rad etish | 44 | 60 | 2,15 |
| Loyihalatirish | 56 | 60 | 2,02 |
| Kompensatsiya | 69 | 60 | 2,80* |
| Giperkompensatsiya | 42 | 33 | 2,78* |
| Ratsionalizatsiya | 54 | 51 | 1,99 |
| Psixologik himoya usullarining keskinligi | 48 | 50 | 1,83 |


Izoh: 1,11-0,05 (2.04) darajasida muhim ahamiyatga ega.

1,11* - muhim ahamiyatga ega bo'lgan 0,01 (2.75).

$t < P$ - Student mezonining ahamiyatli ko'rsatkichi.

Ibtidoiy himoya guruhida mexanizmlarning keskinligi statistik jihatdan sezilarli darajada kamayib bordi: "o'rnini egallash" (farq-12%), "orqaga qaytish" (farq-11%), "rad etish" (farq-16%). Psixologik himoyaning yuksak mexanizmlari guruhida "kompensatsiya" (farq-9%), "giperkompensatsiya" (farq-9%) dan foydalanish chastotasining oshishi qayd etildi.

Ta'kidlash joizki, Tg-1 va Ng-1 talabalarida himoya mexanizmlarining umumiy keskinligi (PHUK) ning ko'rsatkichlari statistik jihatdan sezilarli farq qilmaydi, ammo hosil qiluvchi o'zaro ta'sir natijasida har ikki guruh subyektlarining qiyinchiliklarni bartaraf etishlari uchun sifat jihatidan turli mexanizmlar ko'rsatkichlari farqlandi (1-rasm).




1-rasm. 1-kurs psixologiya yo'nalishi talabalarining tajriba guruhida koping xulq-atvor strategiyasini taqsimlanishi.

Talabalarining koping xulq-atvor xatti-harakatlaridagi o'rta guruh o'zgarishi faqat "muammoni yechish" strategiyasini qo'llashda (tajribagacha-73%, keyin-88%; farq-15%). Talabalarining qiyinchiliklarni yengib o'tish yo'llarini mustaqil izlashga bo'lgan intilishlari kuchayib borgan.

"Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash" strategiyasiga amal qilish intensivligi (tajribagacha -60%, keyin-60%), "qochish" mexanizmidan foydalanish (tajribagacha -58%, keyin-58%) o'zgartirani yo'q.

O'z-o'zini anglashning xususiyatlari va psixologik himoya tizimining samaradorligi mezonlari sifatida ifodalangan "baholash", "kuch", "faoliyat" omillari o'rganilganda, tajriba-tadqiqot ishlari natijalarida o'zgarishlar yuz berdi (2-rasm).



2-rasm. Psixologiya yo'nalishi 1-kurs talabalarida (Tg-1da) o'z-o'zini anglash xususiyatlarining ifodalanish ko'rsatkichlari.

"Baho" omilining guruhviy o'rtacha ko'rsatkichlari (tajribagacha-43%, keyin-57%; farq-14%) sezilarli ortganligi kuzatildi (3-rasm), bu o'z-o'zidan ularning qobiliyatlari ijobiy namoyon bo'lishiga ko'ra, imkoniyatlari oshib borayotganligini ko'rsatdi.

"Kuch" omilining qiymatlari ham sezilarli ortganligi aniqlandi (tajribagacha- 33%, keyin-43%, farq-10%), bu talabalar shaxsining irodaviy sifatlarini kuchayib borish nazoratini oshirishni, qiyinchiliklarni yengib o'tishga moyilligini ko'rsatadi.

"Faollik" omili birinchi kurs talabalarida (tajribagacha- 10% gacha; keyin-24%; farq-14%) ancha yuqori baholanganligini ko'rish mumkin, bu muammolarni hal qilishda qat'iylik, dadillik, jur'atlilik va tadbirkorlik sifatleri shakllanayotganligini ko'rsatadi (3-rasm).

Shunday qilib, olib borilgan tadqiqotlarimizga tayanib quyidagi xulosalarga kelindi

- konstruktiv psixologik himoyani shakllantirish bo'yicha tajriba-eksperiment ishlari davomida birinchi kurs talabalarida psixologik himoya mexanizmlari va o'zligini anglash strategiyalari munosabatlarida ijobiy o'zgarishlar yuz berdi.

- psixologik himoyaning funksional jihatlarida umumiy zo'riqish ko'rsatkichi saqlanib qolsa-da, ibtidoiy himoya qiymatlarining pasayishi kuzatildi (o'rnini egallash, orqaga qaytish, rad etish) va yuksak himoya mexanizmlari (kompensatsiya, giperkompensatsiya) kuchayganligi aniqlandi.

- Yuqoridagi o'zgarish talabalarning maqsadga erishishlarida faol bo'lishga, shaxs xususiyatlarining namunali va meyoriy namoyon bo'lishini ta'minlashga imkon berdi.

- aniqlangan o'zgarishlar talabalarni psixologik himoya tizimining samaradorligini oshirishga va ularning yangi faoliyat darajasiga osonlik bilan o'tishiga olib keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Фрейд А. Эго и механизмы защиты. – М.: Изд-во Эксмо, 2003. –256 с.
2. Мкртчян М.А. Проблема фрустрации и защитные механизмы личности: автореф. дис. ... канд. психол. наук. – Ереван, 1975. – 26 с.
3. Фрейд З. Психология бессознательного. – М.: Просвещение, 1989. 448 с
4. Файзиева М. Шахсинг психологик химоя механзмлари. Монография. – Қарши: "Насаф", НМИУ. 2021. - 143 бет

АСПЕКТЫ ТОЛЕРАНТНОСТИ В ТРУДАХ МЫСЛИТЕЛЕЙ ВОСТОКА

Уразова Марина Батыровна

Д.п.н., профессор кафедры педагогики Ташкентского государственного университета имени Низами

Жамолдинова Одинахон Расуловна

Главный научный сотрудник Национального института педагогического воспитания имени Кори Ниязи, д.п.н., профессор

Аннотация. В научной статье освещается отражение «идеи толерантности» в мировоззрении и творчестве восточных мыслителей. Также в данной статье исследуется научно анализируется проблема формирования понятия толерантности в историческом контексте. В эпоху современной глобализации чрезвычайно важно место и роль фактора толерантности, основанного на взаимной доброте, доверии, сотрудничестве и мире. Толерантность является неотъемлемой частью жизни общества и государства и играет важную роль в истории человека и его развития. В последние годы изучение категории толерантности и ее важного места в системе современных международных отношений стало актуальным научным направлением, стоящим перед современными социально-философскими, политическими и историческими науками.

Ключевые слова: толерантность, мыслители Востока, терпимость, диалог культур.

SHARQ MUTAKKAKARLARI MEROSIDA BAG'RIKENGLIK MASALALARI TALQINI

Urazova Marina Batirovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, p.f.d.

Jamoldinova Odiraxon Rasulovna

Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti bosh ilmiy xodimi, p.f.d., professor

Annotatsiya. Ilmiy maqolada "bag'rikenglik g'oyasi"ning Sharq mutafakkirlari dunyoqarashi va ijodida aks etishi yoritilgan. Ushbu maqolada ham tarixiy sharoitda bag'rikenglik tushunchasini shakllantirish muammosi o'rganilib, ilmiy tahlil qilingan. Zamonaviy globallashuv davrida o'zaro mehr-oqibat, ishonch, hamkorlik va tinchlikka asoslangan bag'rikenglik omilining o'rni va roli nihoyatda muhim. Tolerantlik jamiyat va davlat hayotining ajralmas qismi bo'lib, inson va uning taraqqiyoti tarixida muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda bag'rikenglik kategoriyasini va uning zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi muhim o'rnini o'rganish zamonaviy ijtimoiy-falsafiy, siyosiy va tarixiy fanlar oldida turgan dolzarb ilmiy yo'nalishga aylandi.

Kalit so'zlar: bag'rikenglik, Sharq mutafakkirlari, bag'rikenglik, madaniyatlar muvoqot

ASPECTS OF TOLERANCE IN THE WORKS OF ORIENTAL THINKERS

Urazova Marina Batyrovna

Professor of the Department of Pedagogy of Tashkent State University named after Nizami

Jamoldinova Odinakhon Rasulovna

Chief Researcher of the National Institute of Pedagogical Education named after Kori Niyazi, DSc, professor

Annotation. The scientific article highlights the reflection of the "idea of tolerance" in the worldview and creativity of Eastern thinkers. This article also explores and scientifically analyzes the problem of forming the concept of tolerance in a historical context. In the era of modern globalization, the place and role of the factor of tolerance based on mutual kindness, trust, cooperation and peace are extremely important. Tolerance is an integral part of the life of society and the state and plays an important role in the history of man and his development. In recent years, the study of the category of tolerance and its important place in the system of modern international relations has become an urgent scientific direction facing modern socio-philosophical, political and historical sciences.

Keywords: tolerance, thinkers of the East, tolerance, dialogue of cultures/

Основной задачей системы образования Республики Узбекистан становится формирование личности гражданина, готового жить и трудиться на благо своей страны, а также обеспечивать реализацию собственных потребностей в области развития и образования. Следовательно, требуется обеспечить успешную социализацию подрастающего поколения, создать условия для их развития в коллективе, а также навыков коммуникации как в профессиональном, так и в личном аспекте. Сказанное нашло свое отражении в Постановлении Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева от 20 апреля 2017 года № ПП-2909, в котором отмечено: «необходимо усиление духовно-нравственного содержания высшего образования, проведение широкой просветительской и воспитательной работы по глубокому укоренению среди студенческой молодежи преданности идее независимости, верности национальным традициям гуманности и высокой духовности, укреплению критического мышления и иммунитета к чуждым идеям и идеологиям» [3].

Государственная политика Республики Узбекистан направлена на «обеспечение межнационального согласия и толерантности в обществе, укрепление атмосферы дружбы и чувства единой большой многонациональной семьи, воспитание молодежи в духе любви и преданности Родине, уважения к национальным и общечеловеческим ценностям, расширение культурно-просветительских связей с зарубежными странами» [4]. Популяризация идей толерантности в Республике Узбекистан в последнее время нашла свое подтверждение в Указе Президента Республики Узбекистан Мирзиёева Ш.М. №УП-5876 от 15.11.2019 «Об утверждении концепции государственной политики Республики Узбекистан в сфере межнациональных отношений». Согласно определению, представленному в этом документе, «толерантность - социальная норма гражданского общества, проявляющаяся в терпимости к не противоречащим общечеловеческим ценностям взглядам, верованиям, обычаям, традициям и культуре представителей других наций и народностей» [1]. Данный нормативный документ является подтверждением того, что в Республике к вопросу толерантности уделяется пристальное внимание и решается на государственном уровне.

Необходимо отметить, что воспитание толерантности у народов Центральной Азии и Ближнего Востока имеет долгую историю. Наши предки с ранних лет прививали своим детям такие качества, как терпимость к другим религиям и народностям, уважение к культуре, языку и обычаям других народов. В то же время они способствовали воспитанию толерантности для будущих поколений. Народные легенды, сказки и эпопеи прославляют легендарную любовь и дружбу между людьми разных религий и национальностей. В частности, работы Фирдавси, Джалалиддина Руми, Ибн Сино, Бируни, Навои, Бабура способствовали межрелигиозной и межэтнической толерантности. Великий полководец Бабур был по-настоящему терпимым человеком.

Вопросы толерантности рассматриваются в философских и просвещенных взглядах на Востоке: наши великие ученые Абу Иса Термези, Абу Наср Фароби, Абу Али ибн Сино, Абу Райхан Бируни, Юсуф Хас Гаджиб, Абдулхалик Гиждувани, Мухаммед Темур, Мирзо Улугбек, Алишер Навои, Захириддин Мухаммед Бабур и другие в своих работах выразили свои взгляды и учения о толерантности. Аль-Джами аль-Сахих, Абу Исы аль-Термизий, подчеркивают, что доброта и братство являются важными признаками духовной зрелости человека: «Не ссорьтесь друг с другом, не ненавидьте друг друга, не завидуйте друг другу. Это близко к Аллаху, раю и людям, и далеко от ада» [5].

Узбекский народ обладает рядом качеств, которые составляют основу национальных ценностей, которые являются фактором проявления толерантности. Например, скромность, целомудрие, уважение к взрослым, уважение к малышам, гостеприимство, уважение к родителям, не навязывание собственных интересов, терпимость (бағрикенглик) к действиям других и так далее.

Эти идеи должны эффективно использоваться для обучения студентов в духе терпимости. Благодаря дружбе, солидарности и сотрудничеству сближение человека с человеком, народов с народами, наций с нациями, дружеских отношений, социально-экономического, культурного и духовного развития может стать основой универсальной ценности учений великого ученого Абу Али ибн Сины. Передача взглядов Ибн Сины на толерантность студентам в учебное время имеет важное практическое значение.

Толерантный характер исторических и философских мыслей и взглядов Ибн Сины заключается в том, что они понятны людям разных рас и религий.

Идеи Ибн Сины об использовании качеств толерантности, наряду с высокими человеческими качествами в формировании зрелого сообщества и воспитании гармонично развитого человека, не утратили своей актуальности даже сегодня.

Духовное и научное наследие Абу Рейхана Бируни может быть эффективно использовано в воспитании терпимости. В духовном и просветительском учении Бируни равенство и братство народов, народов и народов прославляются как универсальные ценности. Он не прославил ни нацию, ни веру без причины и не обвинил другого в отсталости. Уважение ко всем народам мира, уважение к их истории, культуре, образу жизни, нравственности, языку, национальным обычаям и ценностям - это высокая духовность, в современных условиях терпимость. В своей книге «Индия» ученый сетует на войны, которые мешают дружбе, солидарности, союзу, культурному и образовательному сотрудничеству и солидарности народов. [7].

Он выдвинул идею о том, что национальные и религиозные границы должны быть удалены для установления надлежащих отношений между народами. Бируни решительно осуждает некоторые националистические, местные взгляды на индейцев. «Глупость - неизлечимая болезнь, потому что они верят, - говорит ученый, - что в мире нет земли, кроме их собственной земли, нет людей, отличных

от их пола, нет царей, кроме их вождей, нет науки, отличной от их собственной, и нет религии, отличной от их религии. Они держат себя высоко, ведут себя глупо, становятся высокомерными и невежественными [Там же].

Подчеркивая, что общество формируется на основе соглашения между людьми, мыслитель показывает, что это общество доверило своим лидерам право принимать меры против насилия. Вот почему он неоднократно говорил в своих трудах, что лидеры также должны бороться с насилием от имени общества. Мудрые слова ученого побуждают людей идти по правильному пути, быть справедливыми и знающими, добрыми, верными, не предавать, не делить нацию, любить страну, людей, родину, ценить науку и труд, быть честными.

Другой великий ученый в Центральной Азии - Абдулхалик Гиждувани, считает, что терпимость - это признание разнообразия, рассматривая их как аспект общей красоты, уважая их и живя в гармонии с ними. Суть учения Абдула Халика Гиждувани - терпимость. И путь секты Ходжагон, основанной Абдухоликом Гиждувани, и идеи в его работах - «Максад как соликин», «Маслак аль орифин», «Рисолай сохибия», «Васиятнома» проникнуты призывом выработки каждым человеком такого качества как терпимость. Анализ произведений показывает, что Абдулхалик Гиждувани понимал терпимость в очень широком смысле и уважал ее как универсальную ценность. Доктор философских наук Г.Наврүзова, основываясь на трудах Абдулхалика Гиждувани, сгруппировала следующие проявления толерантности: «человеческая терпимость - это любовь и гармоничное поведение человека по отношению ко всему существу. Семейная терпимость - это открытость двери семьи и сердца членов семьи, гостеприимство, доброта и забота. Местная терпимость - это сосуществование родственников, соседей, людей разных религий и национальностей в солидарности и сотрудничестве» [Там же].

Рассматривая толерантность в учении Абдулахалика Гиждувани, включающее следующие области: этнопсихологическая толерантность - это признание, оценка, уважение, принятие духовной идентичности каждой нации, племенной традиции, ценности; национальная терпимость - это сосуществование разных народов на основе равенства и дружбы; расовая толерантность - это признание равных прав разных рас и жизнь в гармонии с ними; религиозная терпимость - это сосуществование и примирение людей разных вероисповеданий с благими намерениями в одном месте; экономическая терпимость - это экономическая помощь, сотрудничество, основанное на равном обращении; универсальная терпимость - это уважение, оценка и равное отношение ко всем людям. Реализация этих идей предотвратит любую политику насилия против расовых, этнических, национальных, религиозных, гендерных и незащищенных людей [8. С. 39-40]

Великий полководец Амир Темур также уделял большое внимание идее терпимости в своих делах Амир Темур следовал правилам ислама. Он с уважением относился к другим религиям и их правилам. Красота величия Амира Темура состоит в том, что он управлял своим владением с помощью религии, и в результате солидарности, гармонии он получил привилегию развивать духовность, культуру, искусство и науку, с помощью которых создал великое государство. Амир Темур, как и другие правители прошлого, стремился покорить страну только путем уважения религий, преобладающих в этой стране. [6; С. 34-35.]

Алишер Навои в своей общественно-политической деятельности и художественном творчестве, отстаивая интересы простых трудящихся, осудил царя-тирана и его чиновников как бедствие, постигшее народы. Он призвал все народы жить во взаимной дружбе и солидарности. Первый эпос «Хамса» в «Айратул-аброр» посвящен понятиям щедрости, удовлетворенности, терпимости, справедливости, патриотизма.

Таким образом, изучив и проанализировав существующее понимание толерантности с различных исторических позиций, можно заключить, что в настоящее время толерантность является основополагающим явлением во многих отраслях знания, в том числе и в образовании. При этом учеными не выработано единого подхода к пониманию данного термина, который позволял бы учитывать его многогранность и широту охвата.

Проведенный анализ позволяет рассматривать толерантность как комплексное явление, основанное на единстве четырех составляющих: понимания; открытости к диалогу; уважению взглядов оппонента; установление связей и сотрудничества.

Таким образом, можно говорить о существовании в настоящее время нескольких подходов к пониманию толерантности, среди которых выделяются следующие: морально-нравственный; отношенческий; функционально-приспособительный; психологический и пр. При этом мы установили, что рассмотрение толерантности следует проводить через призму различных ее аспектов, основными из которых являются: познавательный или получение теоретических знаний о ценности толерантного отношения; культурологический, который предполагает формирование особого типа сознания; поведенческий, то есть навык проявления признаков толерантного отношения в повседневной жизни и в процессе взаимодействия с другими членами социума. Мы полагаем, что толерантность представляет собой особое качество личности, которое характеризуется понятиями устойчивости и присущих ему специфических особенностей.

ЛИТЕРАТУРА

1. Указ Президента Республики Узбекистан №УП-5876 от 15.11.2019 «Об утверждении концепции государственной политики Республики Узбекистан в сфере межнациональных отношений.
2. Мирзиёев Ш.М. «Свободное, демократическое и процветающее государство Узбекистан мы построим вместе с нашим мужественным и благородным народом». Выступление на торжественной церемонии вступления в должность Президента Республики Узбекистан на совместном заседании палат Олий Мажлиса. – Т.: Узбекистан, 2016. – 18 с.
3. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП- 2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 г.
4. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП- 3289 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы подготовки педагогических кадров, переподготовки и повышения квалификации работников народного образования» от 26 сентября 2017 г.
5. Антология педагогической мысли/ Под ред. К.К. Хашимова, С.Р. Раджапова. – М.: Педагогика, 1986. – 320 с.
6. Аширбагина Н.Л. Педагогические условия развития толерантности у студентов учреждений системы среднего профессионального образования в процессе обучения: Дис. ... канд. пед. наук. Омск. 2005. - 232с.
7. Мавлонов Ў., Абдувоситова И. Тарихий маданият мерос – миллий ғояни англаш омили. – Тошкент: Академия, 2014. – 176 б.
8. Маматкулова Р. Воспитание морально-этических качеств студентов университетов на основе национально-духовного наследия народа: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Т., 1995. – 22 с.

TALABALARNI IJODIY MATN YARATISHGA O‘RGATISH USULLARI

Usmonova Oyistaxon Yuldashaliyevna
ToshDTU dotsenti, p.f.n

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek tili darslarida talaba bilimini tekshirish, baholash, shuningdek, dars davomida hosil qilingan kuzatuvchanlik, voqea va holatlar-ni o‘zaro bog‘lay bilish, bayondan mantiqiy xulosa chiqara bilishdek mustaqil fikrlashga yo‘naltiruvchi ko‘nikmalarni takomillashtirish maqsadida o‘quv dasturiga muvofiq ta‘limiy, ijodiy bayonlar o‘tkazish, rasm asosida matn yaratish, ixtisoslikka oid matnni ijodiy o‘z-gartirish, matn ustida ishlash yuzasidan turli topshiriqlarni bajartirish haqida so‘z boradi.*

Tayanch so‘z va iboralar: *ijodiy matn, muloqot, ixtisoslik, mutaxassis, nutq faoli-yati, til ta‘limi, o‘quv dasturi, og‘zaki nutq, bayon, yozma ish.*

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ПО СОЗДАНИЮ ТВОРЧЕСКОГО ТЕКСТА

Усмонова Ойстахон Юлдашалиевна

Доцент Ташкентского государственного технического университета, к.п.н.

Аннотация. *В данной статье, в соответствии с учебной программой, в целях проверки и оценки знаний учащихся на занятиях по узбекскому языку, а также совершенствования навыков, ведущих к самостоятельному мышлению, таких как наблюдательность, умение связывать события и ситуации, и умение делать логические выводы из высказывания, речь идет о составлении учебных и творческих высказываний, создании текста по картинке, творческом изменении текста, связанном со специальностью, выполнении различных заданий, связанных с работой над текстом.*

Ключевые слова и фразы: *творческий текст, общение, специальность, специалист, речевая деятельность, языковое образование, учебная программа, устная речь, высказывание, письменная работа.*

METHODS OF TEACHING STUDENTS TO CREATE CREATIVE TEXT

Usmonova Oistakhon Yuldashaliyevna

Associate Professor at Tashkent State Technical University, Ph.D.

Abstract. *In this article, in accordance with the curriculum, in order to check and evaluate the student's knowledge in Uzbek language classes, as well as to improve the skills that lead to independent thinking, such as observation, the ability to connect events and situations, and the ability to draw logical conclusions from the statement. It is about making educational and creative statements, creating a text based on a picture, creatively changing the text related to the specialty, and performing various tasks related to working on the text.*

Key words and phrases: *creative text, communication, specialty, specialist, speech activity, language education, curriculum, oral speech, statement, written work.*

Kirish

Oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarni qo'llab davlat tilini o'qitish, shu tilda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash uchun keng imkoniyatlar yaratish, talabalarni ilmiy-nazariy ma'lumot va amaliy ko'nikma hamda malakalar bilan qurollantirish jarayonida, ularda o'z kasbiga bo'lgan qiziqish, e'tiqod, mas'uliyat kabi tushunchalarni ham takomillashtirishni amalga oshirish muhim ijtimoiy pedagogik hodisa sanaladi. O'zbek tili darslarida talaba bilimni tekshirish, baholash, shuningdek, dars davomida hosil qilingan kuzatuvchanlik, voqea va holatlarni o'zaro bog'lay bilish, bayondan mantiqiy xulosa chiqara bilishdek mustaqil fikrlashga yo'naltiruvchi ko'nikmalarni takomillashtirish maqsadida o'quv dasturiga muvofiq ta'limiy, ijodiy bayonlar o'tkazish, rasm asosida matn yaratish, ixtisoslikka oid matnni ijodiy o'zgartirish, matn ustida ishlash yuzasidan turli topshiriqlarni bajartirish lozim.

Adabiyotlar tahlili

Talabalar nutqini shakllantirish til ta'limining asosiy vazifalaridan biri bo'lib, u tilning o'ziga xos xususiyatlari, ma'no tovlanishlari va badiiy ifodaliligi bilan ajralib turadi. Nutq madaniyatini tarkib toptirishda adabiy til me'yorlariga amal qilinishi, xususan, muayyan tildagi so'zlar, ularning qurilishi, yasalishi va o'zgartirish modellari, so'z birikmalari hamda gapni nutqda to'g'ri qo'llash qoidalarini o'zlashtirish tushuniladi. Bu borada metodist olim A.Hamroyev to'g'ri ta'kidlaganidek, "Tilning mohiyati uning inson faoliyati ekanligida. Nutq faoliyati bir individning o'z mulohazalari, istak va talablarini ikkinchi individga uzatishi, ikkinchi individning esa birinchisining fikrlarini tushunib olishi, uning talablariga tasdiq yoki inkor shaklida javob qaytarishi bilan xarakterlanadi. Demak, nutq faoliyatida ikki shaxs: xabar uzatuvchi – gapiruvchi va qabul qiluvchi – tinglovchi ishtirok etadi" [2;148]. Haqiqatan ham, so'z, so'z birikmasi va gap subyektlar nutqiy jarayonining muhim qurolidir. A.G'ulomovning qayd etishicha, "So'zlarni to'g'ri tanlash, nutqni tinglovchiga qulay tarzda yetkaza olish insoniy madaniyatning eng asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun har bir so'z, birikma va gapni barcha qirralari bilan to'g'ri, o'rinli ishlata olishni o'rgatish, o'z nutqiga nisbatan ehtiyotkorlik tuyg'usini shakllantirish ona tili mashg'ulotlarining asosiy vazifasi sanaladi" [1;3].

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada o'zbek tili darslarida talaba bilimni tekshirish, baholash, shuningdek, dars davomida hosil qilingan kuzatuvchanlik, voqea va holatlarni o'zaro bog'lay bilish, bayondan mantiqiy xulosa chiqara bilishdek mustaqil fikrlashga yo'naltiruvchi ko'nikmalarni takomillashtirish maqsadida o'quv dasturiga muvofiq ta'limiy, ijodiy bayonlar o'tkazish, rasm asosida matn yaratish, ixtisoslikka oid matnni ijodiy o'zgartirish, matn ustida ishlash yuzasidan turli topshiriqlarni bajartirish haqida so'z boradi. Mazkur maqolada muammoga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar, pedagogik-psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish, tizimli-struktur tahlil, kuzatish, suhbat, maxsus pedagogik-psixologik metodikalar usullaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar

Talabalar og'zaki va yozma nutqining rivoji olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish malakasi bilan bog'liqdir. Talaba maxsus tayyorlangan savol-topshiriqlar asosida berilgan mashqlarni bajarar ekan, grammatik qonuniyatlarni amaliyotda qo'llashga harakat qiladi. Bu savol va topshiriqlar talaba uchun yo'nalish beradi. Bunday ishlarda talaba nisbatan tor doirada mustaqil harakat qiladi. Agar mustaqil ravishda so'z boyligini oshirib, yangicha matn yaratishga muvaffaq bo'lsa, mavzuni o'zlashtirish darajasi ham yuqori bo'ladi. Mavzu yuzasidan gap, o'zaro bog'liq gaplar, ixcham matn, bayon, hikoyalar tuzishni talabalarga har mavzudan keyin o'rgatish ularning nutqini to'g'ri shakllantirib boradi. Xususan, 1-kursdan boshlab o'zbek tili darslari orqali rusiyzabon talabalarda tanlagan mutaxassisliklariga muhabbat uyg'otish maqsadida sohaga oid matn-

lar ustida ishlashni tashkil etish juda muhimdir.

Talaba nutqini rivojlantirish uning so'z boyligini boyitish bilan chegaralanmaydi. Nutq rivoji, avvalo, fikrlash-tafakkur, idrok, ong kabi psixologik omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Talabalar nutqini rivojlantirish uchun uni kuzatish, o'ylash, fikr yuritishga majbur qiladigan mavzularda dastlab og'zaki hikoyalar, keyinroq yozma matnlar yaratishga o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, ijodiy-amaliy ishlar matn yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Matnlar yaratish ijodiy-amaliy ishning eng qiyin bosqichi bo'lib, u talabadan avval nima haqida yozish kerakligini, keyinchalik esa o'z fikrini qanday ifodalash lozimligini aniqlashni talab qiladi. Bu esa qoidalarni bilish bilan birga, ma'lum darajada so'z boyligiga ega bo'lishni, so'z birikmalari, iboralar, frazeologizmlar, omonimlar, paronimlar, sinonimlardan o'rinni foydalana olishni, atrof va voqelik haqida, mutaxassislik fanlari to'g'risida tasavvur, bilimga ega bo'lishni, kuzatuvchanlikni, mushohada qilishni taqozo etadi. Agar shu xususiyatlardan birortasi bo'lmasa, tuzilgan matn sifati talab darajasida bo'lmaydi.

Talabada matn yaratish, matn ustida ijodiy ishlash ko'nikmasini shakllantirish uchun boshqa turli vositalar, usul va manbalardan ham foydalanish mumkin.

Masalan, tasviriy ko'rgazma vositasida o'tkaziladigan ijodiy ishlardan maqsad talabalarda tasvirlangan voqea-hodisani, holatni yozma yoki og'zaki bayon, tavsif etish ko'nikmasini hosil qilishdir.

1-kurs talabalari «Universitetim bilan faxrlanaman», «O'zbekiston va xalqaro aloqalar», «Oila – jamiyat tayanchi» kabi mavzularga bag'ishlangan rasmlarda nimalarni ko'rayotganliklarinigina emas, balki ko'rish orqali nimalarni his qilayotganliklarini, tasvir ularda qanday ichki kechinmalar uyg'otganligini ham ifodalay bilishlari kerak. Ijodiy yozma ishning bu ko'rinishi uchun tavsiya qilinadigan rasmlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

a) suratlar rangli tasvirda bo'lishi;

b) tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi (talabaniing ma'naviy dunyosini boyitishi, go'zallikni ko'rishga, his qilishga o'rgatishi va his-tuyg'ularni so'zlar vositasida ifodalay olish kabilar ko'zda tutiladi);

v) san'at asarlari turlari, janrlari va ularning mualliflari bilan tanishish imkoniyatini berishi;

g) chegaralanmagan ijodiy erkinlik berishni nazarda tutishi kerak.

Rasm asosida ijodiy matn yaratishga tayyorgarlik jarayoni, bizning nazarimizda, bosqichli ravishda tashkil qilinishi kerak: Birinchi bosqichda, matn yaratishdan avval sur'at asosida suhbat o'tkazilib, lug'at yaratilib, ikkinchi bosqichda lug'atdagi so'zlar ma'nosini izohlash lozim bo'ladi. Yakunlovchi – uchinchi bosqichda lug'atdagi o'zgartirilishi mumkin bo'lgan so'zlarni iboralar, ularning ma'nodoshlari bilan almashtirish, uyadoshlar qatorini tuzish yuzasidan mustaqil ish tashkil qilish.

Ijodiy matn yaratish uchun oldindan ko'riladigan bunday tayyorgarlik talabalarini ijodiy ishga jiddiy yondashishga undaydi. Shuningdek, rasm asosida ijodiy matn yaratishdek murakkab jarayon ma'lum tayyorgarlikni (so'z zahirasini oshirish, mantiqiy bog'liqlikni hosil qilish) talab qiladi. Turli mavzudagi ijodiy ish jarayoniga maxsus tayyorgarlik ko'rilishi talabalarining bu ishga mas'uliyat bilan yondashishlariga sabab bo'ladi. Binobarin, ixtisoslikka oid ijodiy matn yaratish talabada mustaqil fikr va savodxonlikning uyg'unligini ta'minlaydi.

Aksariyat hollarda talaba rasm asosida matn yaratar ekan, unda aks ettirilgan lahzani ko'z o'ngida qanday namoyon bo'lsa, shundayligicha qabul qiladi va tasvirlaydi. Shu bilan birga, rasmda tasvirlangan holat tuzilayotgan matnni ma'lum darajada chegaralaydi. Hikoya qilinishi kerak bo'lgan holat makon, zamon, vaqt birligiga aniqlik kiritadi va talabaniing fikrlash jarayonini yengillashtiradi. Rasm asosida tuzilgan matnlarda holat chegarasining buzilmasligi, talabaniing tafakkurida mazkur lahza qay tarzda

namoyon bo'layotganini aniq ko'rsatib, talabani shaxsiy olamini, ma'naviy qiyofasini ochib berishga xizmat qiladi. Rasm asosida matn tuzish jarayonida talabani mustaqil fikrlash ko'nikmalarini yanada rivojlantirish maqsadida ijodiy ish jarayonini uch bosqichga bo'lish ma'qul:

1-bosqich: tasvirlangan holatga qadar bo'lib o'tgan voqea-hodisalar haqida bildirilgan mantiqiy fikr va mulohazalar;

2-bosqich: tavsiya qilingan rasmdagi holat tavsifi va unga munosabat;

3-bosqich: mazkur holat davomi haqida talabani mustaqil bayoni.

Bu uch bosqichli ish talabani mushohada qilish doirasini, dunyoqarashini kengaytiradi.

Talaba voqea-hodisalar ketma-ketligiga e'tibor beradi. Ular o'rtasidagi uzviylikni qidiradi. Demak, ijodiy ishni tashkil qilish orqali talabaga ijodiy erkinlik beriladi, mustaqil fikrlash ko'nikmalari rivojlantiriladi.

O'zbek tili ta'limida namoyish etiladigan tasviriy vositalar ham talaba dunyoqarashini kengaytiradigan, uni san'atning shu turi bilan yaqindan tanishtiradigan haqiqiy san'at asari bo'lishi shart. O'qituvchi rasm asosida topshiriq berar ekan, quyidagilarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi: a) talabani savodxonligini oshirish; b) o'rganilgan mavzuni o'zlashtirish va mustaqamlash; v) talabani yozma matn tuzish malakasini rivojlantirish; g) mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va h.k.

Agar maqsad shulardangina iborat, ya'ni tor bo'lsa, ko'rgazmali qurol sifatida foydalanilgan tasviriy san'at asarlari faqat ma'lum mavzuni o'zlashtirishga xizmat qiladi, xolos. Shuning uchun tasviriy vosita bilan ishlash jarayoni keng maqsadni qamrab olgan bo'lishi kerak. O'qituvchi yuqorida sanab o'tilgan maqsadlar bilan bir qatorda talabalarga: d) tasviriy vositaning janri (imkoniyat darajasida uslubi haqida ham) haqida boshlang'ich ma'lumot berishi; e) muassavirning o'z oldiga qo'ygan maqsadini aniqlashi; j) san'at asariga shaxsiy munosabat bildirishga talabani o'rgatishi kerak. Agar o'qituvchi sanab o'tilganlarni bir butun, yaxlit holda amalga oshirishga muvaffaq bo'lsa, u talabani mazkur fan yuzasidagi bilimlarini mustahkamlagan va ularni keng ko'lamda o'ylashga ham o'rgatgan bo'ladi. Binobarin, ta'limga ana shunday yondashish bugungi kunning asosiy talabalaridan biridir.

Rasm asosida matn yaratish talab qilinganida, birinchi bosqichda rasm bilan talabalarni yaxshilab tanishtirish, rasmning o'zidan turli mavzular ajratib berish, e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlarni talabalarning faol ishtirokida og'zaki suhbat tarzida o'tkazish yaxshi natija beradi. Ana shu rasmning o'zi bir nechta yozma ish o'tkazish uchun bema'lol xizmat qilishi mumkin. Rejadagi mavzularga bog'liq ravishda "Internet – global tarmoq", "Abu Rayhon Beruniy – qomusiy olim", "Qadimiy shaharlar", "O'zbekiston sanoati", "Muhandislik kasbi" kabi mavzularda yozma ishlar o'tkazish mumkin. O'qituvchi va talabalar ishtirokida rasmlar bo'yicha o'tkazilgan og'zaki suhbat asosida, yuqoridagi kabi mavzular tanlangandan keyin o'qituvchi 3 xil uslubda yozma ishni tashkil etishi mumkin:

1) muayyan mavzuni tanlab, hamma talabalarni shu mavzu doirasida matn yaratishga jalb etishi;

2) bir guruh talabalarga erkin tanlangan mavzuda yozishni topshirishi;

3) qolgan talabalarni o'qituvchining o'zi tanlab bergan mavzu asosida matn yaratishga jalb qilish kabi. Shuningdek, matn yaratish muddatini ham turlicha belgilab berish mumkin: dars jarayonida va uyda davom ettirish shaklida. Tanlangan rasm bitta bo'lganligi sababli, dars jarayonida matn tuzdirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday topshiriqlarning rejasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Rasmni tahlil qilish – 3 daqiqa

2. Talabalar bilan birgalikda matn rejasini tuzish – 5 daqiqa

3. Reja asosida savol-javob qilish – 7 daqiqa

4. Talabalarga vazifani tushuntirish – 2 daqiqa

5. Yozma matn yaratish – 15-20 daqiqa.

Xulosalar

Umuman, matn yaratishda ham, talabalar soʻz boyligini oshirishda ham shu tamoyildagi rasmlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Avval lugʻatni tuzdirib olib, undan soʻng matn yaratishga jalb qilish ham oʻziga xos usul boʻlib, bu ham ijobiy natija beradi.

Xullas, nofilologik yoʻnalishda taʼlim olayotgan rusiyzabon talabalarning yozma ixtisoslik nutqini oʻstirishda yuqoridagi usullardan foydalanish rejalashtirilgan mavzularni puxta egallash va amalda qoʻllashda katta samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOLAR ROʻYXATI

1. Asqarova M. va boshq. Oʻzbek tili mashgʻulotlarida nutq oʻstirish. – Toshkent: TDPU, 2000. – 58 b.
2. Hamroyev A.R. Ona tili taʼlimida oʻquvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish: Ped. fan. dokt. (DCs) diss. – Toshkent: 2020. - 248 bet
3. Usmonova O.Y. va boshqalar. The Role Of Literary Education Methods In Teaching Creative Life And Creativity. Journal of Contemporary Issues in Business and Government. 2021 3537-3540 b.
4. Usmonova O.Y. Talabalarning yozma nutqini rivojlantirish metodlari «Filologiyaning dolzarb masalalari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari FarDU 2023-, 4-noyabr, 564-568 b.
5. Usmonova O.Y. Oʻzbek tili darslarida talabalarning yozma nutqini rivojlantirishning interfaol metodlari. NamDU axborotnomasi 2023-y, 12-son, 831-835-b.

DZYUDochILARNING MASHG'ULOT JARAYONIDA ORGANIZMDAGI GORMONLARNING TA'SIRINI O'RGANISH

Izzatullayev Azizbek Renatulla o'g'li

Alimjonova Sitora Yashin qizi

Toshkent Gumanitar fanlar Universiteti

Annotatsiya. Dzyudochilarni musobaqa paytidagi stress paytida tana portlovchi kuch sifatida tasir qiladi. Yosh dzyudochilar o'smirlik davrida gormonlar ishlab chiqarishdagi har qanday anormalik tasir ko'rsatish mumkun. Masalan semirish ikkinchi toifali diobet, qalqonsimon bezning disfunktsiyasi kabi mitobolik kasaliklarga olib kelishi mumkun. Shuning uchun yosh dzyudochilar organizmidagi gormonlarining to'g'ri ishlashini ta'minlash va sog'lom mitobolizmni rivojlantirish mashg'ulot jarayonlarini to'g'ri yulga quyish, to'g'ri ovqatlanish, to'g'ri yuklama qabul qilish juda muhimdir. Gormonlar dzyudochilar organizmiga tasirga qarab har xil turlarga bo'linadi.

Kalit so'zlar: dzyudochilar, kurashchi, gormonlar, kartizol, testasteron, sportchilar, yosh dzyudochilar, ta'lim-tarbiya, metodlar.

ИЗУЧЕНИЕ ВЛИЯНИЯ ГОРМОНОВ НА ОРГАНИЗМ ДЗЮДОИСТОВ ВО ВРЕМЯ ТРЕНИРОВОК

Иzzатуллаев Азизбек сын Ренатуллы

Алимджонова Ситора дочь Яшина

Ташкентский гуманитарный университет

Аннотация. Тело действует как взрывная сила, когда дзюдоисты испытывают стресс во время соревнований. У юных дзюдоистов могут возникнуть любые отклонения в выработке гормонов в подростковом возрасте. Например, ожирение может привести к метаболическим заболеваниям, таким как диабет 2 типа и дисфункция щитовидной железы. Поэтому очень важно обеспечить правильную работу гормонов в организме юных дзюдоистов и развивать здоровый обмен веществ, направлять тренировочный процесс, правильно питаться и принимать правильные нагрузки. Гормоны делятся на разные типы в зависимости от их воздействия на организм дзюдоиста.

Ключевые слова: дзюдоисты, борец, гормоны, кортизол, тестостерон, спортсмены, юные дзюдоисты, обучение, методика.

STUDYING THE INFLUENCE OF HORMONES ON THE BODY OF JUDOKAS DURING TRAINING

Izzatullaev Azizbek son of Renatulla.

Alimdzhonova Sitora, daughter of Yashin

Tashkent Humanitarian University

Annotation. Effects judokas as a body explosive during competitive stress. Young judokas can be affected by any abnormality in hormone production during adolescence. Obesity can lead to type 2 diabetes, thyroid dysfunction, and metabolic diseases. Therefore, to ensure the correct functioning of hormones in the body of judokas, to develop a

healthy metabolism, to carry out the training processes correctly, to eat properly, to receive the correct load. Very important. Hormones are divided into different types depending on the efferent types depending on the effect on the judokas body.

Key words: judokas, wrestler, hormones, cortisol, testosterone, athletes, young judokas, training, methodology.

Kirish. Yurtimizda hozirda katta islohatlar amalga oshirilmoqda. Barcha sohada bo'lganiday sport sohasida ham tubdan o'zgarishlar bo'lmoqda. Shu barobarida oily ta'lim tizimi sohasida ham ulkan miqyosida, aniq belgilab olingan reja va dasturlar tadbiriq etilmogda. O'zbekiston har taraflama hozirda uchunchi renessans bosqichiga o'tmogda shundan kelib chiqqan holda inson qadri va taraqqiyoti birinchi o'ringa chiqmonda. Bu ta'lim tizimida ham o'z samarasini ko'rsatmogda. Bevosita ta'lim tizimini inson kapitaliga, uning orzu istaklari, maqsadlari, manfaatlariga yo'naltirilmogda. Buni biz ta'lim to'g'risidagi qonunning yangi tahririda yanada aniqroq chiqqanligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimida 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini qabul qilinishi, prezidentimizning Oliy Majlisga yo'llayotgan murojaatlarida muhim urg'u qaratilayotgan eng ustuvor vazifalardan bilib olsa ham bo'ladi. Bizning oldimizda ulkan vazifalarni bajarishdek, marralarni zabt etish turibdi. Shu jumladan yurtimizda dzyudo sportini yanada ommaviylashtirish, keng tarqatish va o'sib kelayotgan yosh avlodni bo'sh vaqtini samarali o'tkazish yani ularni sog'lom turmush tarziga ommaviy jalb qilishdek ulkan vazifani oldimizga dolzarb masala deb bilishimiz zarurligini yurtboshimiz ham chiqazayotgan qaror va farmonlardan bilib olish mumkin, shu boyiz talim muassasalarida dzyudo sport turini yanada kengroq targ'ib qilishimiz kerak deb o'yliyman.

Asosiy qism. Oliy ta'lim, o'rtamaxsus va maktab talim tizimida bu sportni yani dzyudo sportini 2020-2025 yillar uchun zamonaviy dzyudo maktablarini, yo'nalishlarini namunaviy loyihalari asosida yangi sport zallarini qurishning asosiy parametirlarini ishlab chiqish boshlandi.

Yoshlarimizni sifatli ta'lim olishlari dzyudochilarni shug'ullanishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ular zamon bilan hamnafas shug'ullanishmogda va zamonaviy axborot texnologiyalaridan sport-ta'lim sohasida keng foydalanishmogda.

Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan jismoniy tarbiya tadbirlari quyidagilardan iborat: O'quv mashg'ulotlargacha o'tkaziladigan ertalabki gimnastika - Ta'lim muassasalarida har kuni darslar boshlanguncha o'tkaziladigan jismoniy mashqlardir. Mashg'ulotlargacha bo'ladigan gimnastika asosan tarbiyaviy va sog'lomlashtirish masalalarini hal etadi. Ochiq havoda o'tkaziladigan mashqlar talabalar organizimini chiniqtirishga ham yordam beradi. Tanaffuslar bolalarning dam olishlari va navbatdagi darsga juda samarali tayyorlana olishlari uchun foydalanilishi zarur. Tanaffuslardagi o'yinlarni uyushgan xolda o'tkazish tadbirlarga quyidagi talablar qo'yiladi: Ular bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi va bolalarni juda toliqirtmasligi xam kuchli qo'zg'atmasligi kerak. Ta'lim muassasalaridagi sinfdan tashqari ishlardan biri ommaviy jismoniy madaniyat va sport ishidir. Sinfdan tashqari ishning vazifalari quyidagilardan iborat: Talabalar sog'ligini mustahkamlashga, organizmni chiniqtirishga, ularning xar tomonlama jismoniy rivojlanishiga yordam berish;

Talabalarning jismoniy madaniyat darslarida olgan bilimlari, malaka va ko'nikmalarini chuqurlashtirish xamda kengaytirish; Talabalarni yaxshi dam olishlarini tashkil etish; talabalarda jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga ishtiyoq uyg'otish. Sinfdan tashqari ishlarga talabalarni yoppasiga jalb qilish uchun mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazishning xilma-xil shakllaridan foydalanish lozim. Bunda ularning yoshi, sog'ligi va jismoniy tayyorgarligi hisobga olinadi. Talabalar bilan amaliy ish olib borish uchun to'garaklar tuziladi. Birinchi navbatda butun yil davomida ishlaydigan umumiy jismoniy tayyorgarlik to'garaklari tashkil etiladi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik to'garagiga iloji boricha ko'proq talabalarni, shu jumladan, jismoniy rivojlanishda bir oz oqsayotgan

bolalarni ham jalb etish lozim. Sport to'garaklarining rahbarlari muayyan sport turining mashg'ulotlarini o'tkazish uslubiyatini, bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarning o'ziga xosligini yaxshi bilishlari kerak. Sayrlar, ekskursiyalar va yurishlar katta ta'lim va tarbiya ahamiyatga molik. Chunki bu jarayonda bolalar tabiat, jonajon o'lka va uning diqqatga sazovor joylari bilan tanishadilar. Bu tadbirlar yurish, yugurish va o'yin malakalarining takomillashishiga yordam beradi, organizmni chiniqtiradi va bolalar sog'ligini mustahkamlaydi hamda yurish-turish, o'z-o'ziga xizmat qilish, joyni mo'ljalga olish va xokazo ko'nikmalarni egallashga imkon yaratadi. Shuningdek, ular bolalar jamoasini qaror toptirish va mustaxkamlashda, do'stlik, o'rtoqlik hissini tarbiyalashda bebaho rol o'ynaydi. O'yinlar. Ko'ngil ochishlar. Talabalar bilan olib boriladigan sinfdan tashqari ishning eng oddiy va ommaviy, shakli o'yin hamda ko'ngil ochishlardir. O'yinlar talabalarning kichik guruhlari bilan ham, ikki-uchta sinf talabalarining katta guruhlari bilan ham uyushtiriladi. Guruh qanchalik katta bo'lsa, o'yin tashkilotchilari va o'yinboshi talabalar unga shunchalik yaxshi tayyorlangan bo'lishlari kerak. Sport musobaqalari Ta'lim muassasalaridagi jismoniy tarbiyaga oid sinfdan tashqari ishning eng qiziqarli shakllaridan biridir. Ular talabalarni uyda va jismoniy madaniyat jamoalaridagi doimiy jismoniy mashg'ulotlarga jalb etishga yordam beradi, talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshiradi, bolalar jamoasini mustahkamlaydi. Musobaqalar, sinfdan tashqari ishning boshqa turlari qatori, Ta'lim muassasalarining umumiy yillik ish rejasiga kiritiladi. O'quv yilining boshida musobaqalarni o'tkazish muddati, qoidalari va dasturlari aniq belgilab olinadi. Bu muddatlarni hisobga olgan holda musobaqalarga oldindan tayyorgarlik ko'riladi. Har bir musobaqa muayyan nizomga muvofiq o'tkaziladi. Nizomda musobaqaning maqsadi va vazifalari, vaqti va o'tkazilish joyi, qatnashuvchilar, dasturi, o'tkazilish sharti va hisobga olish, eng yaxshi ishtirokchilarni va komandalarni mukofotlash tartibi, arizalar shakli va ularni taqdim etish muddati ko'rsatiladi.

Jismoniy tarbiyaga oid ta'lim muassasalaridan tashqari ishlarga Bolalar va O'smirlar Sport Ta'lim muassasalari, Olimpiada Zahiralari Sport Ta'lim muassasalari, Sport Mahoratini Oshirish Ta'lim muassasalarida sport turlari bilan shug'ullanish mashg'ulotlari kiradi. Bu muassasalarda talabalar sport turlari bo'yicha maxsus tayyorgarliklar o'tadilar. Sport turlari bo'yicha ixtisoslikka erishadilar. Shuningdek, jismoniy tarbiyadan ta'lim muassasalaridan tashqari ishlarga ta'lim muassasalari o'rtasidagi har xil sport musobaqalari va bayramlardagi bellashuvlar, o'rtoqlik uchrashuvlari kiradi. Yashash joylarida hamda Oilada jismoniy tarbiya tadbirlari o'tkazish ham shu soha vazifasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida «oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuchqudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur. Xususan, milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim» ekanligi shart qilib qo'yildi. Ta'lim va tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan holda olib borish, barkamol avlod tarbiyasida yaxshi samara berdi. Kurash bizning eng ommaviy milliy sport turimiz hisoblanadi. Shu bilan birga, kurashning tobora ommalashib borayotganligi nufuzli xalqaro musobaqalarni tashkil qilishga, mavjud infratuzilma va moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilishga, shuningdek, soha uchun malakali kadrlar, murabbiylar va hakamlar tayyorlashga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirishni talab etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4- noyabrda PQ-4881-sonli «Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori ushbu soha taraqqiyotida, hech shubhasiz, yangi ufqlarni ochib beradi. Kurash insonni kuchli, epchil, chidamli va irodali qilib tarbiyalash vositalaridan biri hisoblanadi. Shifokorlar nazorati ostida 12 yoshdan kurash bilan shug'ullanishga ruxsat etiladi. Kurash falsafasi keng qamrovli va ko'p qirralidir. U jismoniy madaniyatning ma'naviy asoslari masalasi bilan uyg'unlashib ketadi. Bu borada mamlakatimizning bir

qator olimlari izlanishlar olib borganlar. Xususan kurash ilmini o'rganish va uning falsafiy, ijtimoiy va ma'naviy asoslarini yoritib berish borasida muayyan darajadagi tajriba to'plangan. J.T.Tursunov, X.T.Rofiev, O'.I.Ibrohimov, J.Toshpo'latov, A.Q.Atoev, T.Odilov, O.Toymurodov, K.T.Yusupov, O.T.Xayitov, F.Q.Ahmedov, T.S.Achilov, A.R.Abdulaxatov, F.Sh.Axmedov kabi soxa mutaxasislarining ishlarida kurash falsafasi va uning pedagogik ahamiyati to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Respublika va xalqaro miqyosidagi ko'plab anjumanlarda qilingan ma'ruzalarda mavzuga tegishli 13 fikr-mulohazalar bildirib o'tganlar.

Olib borilgan kuzatishlar va tajribalar asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Ota-onalar o'z farzandlariga shaxsiy namuna ko'rsatishi;

Ota-onalarning o'zlari jismoniy tarbiya va sport mashqlar bilan shug'ullanishi;

Ota-onalar kurash sportiga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirishlari lozim;

Oilada kurash va sportni targ'ib keng targ'ib qilish;

Kurash va sportning foydali jihatlarini farzandlar ongiga singdirish.

Farzandlar qalbida mahoratli sportchilarga havas hissini uyg'otish lozim (K.Murodov, A.Qurbonov, A.Tangriev, R.Sobirov v.b lar). Ustoz-murabbiy ota-onalar bilan va ta'lim muassasasi rahbarlarining hamkorligini samarali yo'lga qo'yish; Ustoz-murabbiylar o'quvchi-yoshlar bilan kurash sportining, talimiy, tarbiyaviy tomonlariga etibor qaratish; Ustoz-murabbiylar kurash sporti bilan shug'ullanuvchilarning har tomonlama tarbiyalanishiga katta e'tibor qaratish; Kurash mashg'ulotlari va musobaqalari mobaynida shug'ullanuvchilarning axloqiy va ma'naviy tarbiyasiga alohida e'tibor berish; O'quvchi-yoshlarga kurash sportining talimiy, tarbiyaviy, ma'naviy-axloqiy, falsafiy, estetik tarbiyalarini o'rganish mazmunidagi maxsus kurslarni joriy qilish;

Dzyudochilarning mashg'ulot jarayonida organizmdagi gormonlarning ta'sirini o'rganish. Gormonlarning moddalar almashinuvining inson vujudidagi harakatlarga, his -tuyg'ularga va davolashga ko'rsatadigan tasiri ko'pdir. Moddalar o'zaro aloqador bo'lganda, shaxsning har qanday hatti harakatiga tasir ko'rsatadi. Masalan endorfinlar insonda kuchli charchoq sodir bo'lganda yuzaga keladi va tanadagi bo'shashishni yingil-lashtirishga katta tasir ko'rsatadi.

Gormon (qadimgi yunoncha- hormanino- qo'zg'ataman) yani ichki sekretiya bezlarida ishlanib chiqib, qonga va to'qima suyuqligiga o'tadigan biologik faol moddalar. Ular butun organizmga tarqalib, turli a'zo hamda to'qimalarning faolyatini boshqaradi.

1-jadval

Gormonlar tasnifi

| Gormonlar | Ichki sekretiya bezi | Funksiya |
|------------------|-----------------------------|--|
| Tiroksin | Qalqonsimon bez | Moddalar almashinuvini boshqaradi |
| Tireotrop | Ayrisimon bezi | Nerv muskul qo'zg'aluvchanligiga ta'sir qiladi |
| Somatotrop | Epifiz | Bo'y o'sishiga ta'sir qiladi |
| Adrenalin | Gipofiz | Qon tomirini kengaytiradi |
| Melatonin | Epifiz | Pigment almashinuvini boshqaradi |
| Paratgormon | Qalqon oldi bezi | Kalsiy, fosfor almashinuvini boshqaradi |

Tireotrop garmon- asosan qalqonsimon bezda, Adrenokortikotrop gormon- buyrak

usti bezlarining pustloq qavatiga, Estrogen garmoni - bachadonga ta'sir ko'rsatadi.

Garmonlarning o'ziga xos tasir etishi turlicha kimyoviy tuzilganligiga bog'liq, masalan insulin, uglevodlar almashinuviga ta'sir etadi. Testosteron va boshqa androgenlar assimilyatsiya jarayonini kuchaytiradi.

Organizmida azot to'planishiga sabab bo'ladi. Glyukokortikoidlar moddalar almashinuvio'zgartirib, jigarda glikogen hosil bo'lishini ayniqsa biriktiruvchi va limfoid to'qimalarini oqsillarning parchalanishini, estrogenlar bachadonda fosfolopedlar bilan oqsil sintez bo'lishini kuchaytiradi.

Usish garmoni (somatotrop) garmonlari yog', fosfor va kalsiy almashinuviga tasir etadi. Garmonlar hujayraning ginetik oparatini stemullash, fermentlarni faollashtirish va fermentativ reaksiyalar tezligini o'zgartirish yuli bilan moddalar almashinuviga tasir kurasatadi. Ular oqsilning tuzulishini belgilab beradigan information ribonuklion kislotalarning hosil bulishini kuchaytirib oqsillar biyosentiziga tasir etadi. Usish va jinsiy gormonlar organizmning o'sishini va balog'atga yitishini boshqaradi. Zarur paytda organizm imkoniyatlari goronlar ishtirokida safarbar qilinadi. Masalan xaf –xatar taxdid qilganda va shu munosabat bilan muskullarga zur kelganda adrenalin kuproq chiqib qondagi gulikozani ko'paytiradi. Yurak va miyaga qon borishini kuchaytiradi. Organizmga zararli tasir ortganda AKTG kuproq chiqadi.

Nerv gumoral va gormonal omillar tasir etib organizm barqaroqligini taminlaydi.

Tistosteron – gormonini ko'paytirishni eng yaxshi usuli uyqu hisoblanadi. Chunki to'g'ri uyqu tanadagi gormon darajasiga tasir qiladi. Kuniga kamida 7 soat yoki 8, 9 soat uxlash tavsiya etiladi. Bundan tashqari testasteronning yana bir kupaytirish usuli quyoshda juda kup yurish kerak. Chunki quyosh tasirida tanada D vitamin hosil bo'ladi. Bu garmon ishlab chiqarishga foydali tasir ko'rsatadi.

Bundan tashqari oziq –ovqat ratsionida gusht mahsulotlari ko'p bo'lishi muntazam jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish testosterone miqdorini oshiradi. Sink tanadagi gormon darajasini oshirishga yordam beradi. Ushbu mineral modda dengiz mahsulotlar, baliq, yong'oq, urug'lar, kungaboqar, oshqovoq urug'lari, pishloq va sabzavotlarda u juda ko'p buladi.

Testosteronning biologik ta'sirlari. Umuman olganda sportchilar organizmi uchun testosteron kabi andirogenlar, oqsil sintezini va shuning uchun andirogen retseptorlari bilan tuqimalarning usishini rag'batlantiradi. Bu esa sportchilarning mashg'ulot jarayonidagi imkoniyatlarini oshiradi. Testosteronni virilizatsiya qiluvchi va anobolik tasirga ega deb tariflash mumkun. Sportchilarda anobolik tasirlar mushak massasini va kuchini usishini suyak zichligi va kuchini oshirishini chiziqli usishni va suyaklarning zichligini rag'batlantirishni o'z ichiga oladi.

Adrenalin – bu sportchi organizmini juda yuqori darajada faollashtiradigan va quzg'atadigan gormon. Ushbu gormonning biologik vazifasi tanani hujumga kurashga, parvozga javob berishiga tayyorlashdir. Adrenalin sportchi organizmining darhol javob berish samaradorligini oshirish uchun tanadagi barcha kerakli o'zgarishlarni amalga oshiradi. Sportchi organizmida bu gormon beta retseptorlari bilan birga birikkanda sklet mushaklarining vazodilatatsiya, kardioakselelatsiya, miokardning qisqarish kuchini oshirish yoki bronxlar va ichaklarning bushashishi kabi harakatlarni amalga oshiradi.

Oksesiton- mehr va muhabbat gormoni. Buyrak usti bezlarida ishlab chiqariladi. Homilador ayollarda ushbu gormon farzandini dunyoga keltirayotganda juda zarur. U bachadon qisqarishiga xizmat qiladi. Bola tug'ulgandan kiyin ham oksitotsin muhim rol o'ynaydi. Shu bois u onalarning gudaki berayotgan ona mehri deb atash mumkin. Maskur gormonning yitishmasligi g'am qayg'uni bazan mutloq besabab kayfiyat tushib ketishini keltirib chiqaradi. Hovotir darajasini oshirib yuboradi. Ushbu gormon shokolad, banan, avocado va selen moddasiga boy bo'lgan kabachki seldire, patesson kabi mahsulotlarda ko'p miqdorda uchraydi. Shuning uchun farzandi kulgan vaqtda ota onalar ko'p miqdorda

maskur gormon ishlab chiqarilish boshlanadi.

Tiroksin – yanabir muhim gormon hisoblangan tiroksin qaddi qomat guzalligi va aql idrokning shakillanishiga javobgar hisoblanadi. Qalqonsimon bezdan ishlab chiqariluvchi ushbu gormon organizmda moddalar almashinuvi harakat koordinatsiyasi va tana tuzilishini boshqarishda ishtirok etadi. Uning ortiqchasi mushaklar vaznining kamayishiga olib kelsa, yitishmovchiligi tana vazning ortshiga yani semirishga sabab bo'ladi. Hamda aqliy zayiflikka sabab bo'lishi mumkin. Uning miyyori bo'zilishi uyqusizlik yurak uynashi yoki bezovtalikdan bilsh mumkin. Bu gormon organizmda yod moddasi miyyoriga chambarchas bog'liq. Shu bois yodga boy bo'lgan dengiz karami (lamenariya) dengiz mahsulotlari yoki yodlangan tuz, non, sut mahsulotlari istemol qilish tafsiya etiladi.

Noadrenalin – bu gormon o'z- o'zini himoya qilish gormoni bo'lib buyrak usti bezlaridan ishlab chiqiladi. Stress holatida ushbu gormon butun organizmni “urush holatiga” tayyorlaydi. Bu vaqtda kuchsizlangan organizmni infeksiyalardan himoyalaydi. Imunitet ishini muofiqlashtiradi. Ushbu gormonning miyyorida ekanligini yuzimizdagi sog'lom qizillikdan bilish mumkin.

Kortizol- stress gormoni toifasiga kirib faqat insonlarning favqulotda vaziyatlarda ishlab chiqariladi. Bu bizga muammolarga duch kelishimiz va tezkor samarali javob berishga yordam beradi. Shunday qilib biz stressga duchor bo'lganimizda, kortizolning ishlab chiqarilishi boshlanadi. Oddiy holatda(stresssiz) tanamiz hujayralari 90% energiyani metabolizm jarayonida masalan; tiklash, yangilash, yoki yangi to'qimani yaratishda ishlatiladi. Ammo, stressli holatlarda, bizning miyamiz buyrak usti bezlariga xabarlarini yuboradi, shunda ular kortizolni ko'proq miqdorda chiqaradi. Ushbu gormon mushaklarga ko'proqenergiya yuborish uchun qonimizdagi glyukozani chiqarishga masuldir.(bizning to'qimalarimizni faollashtirish uchun,) shunday qilib, stress holatida biz kortizol orqali glyukozaning ko'proq tarqalishiniamalga oshiramiz. Va bu nimaga aylanadi? Muayyan stressli holatlarda bu haqiqat bizning tanamizga salbiy ta'sir kursatmaydi, chunki faqulodda vaziyat tugashi bilan gormonal darajalar normal holatga qaytadi.

Endokrinologiya,immunologiya, fiziologiya, zootoksi-kologiya, epigenetika va boshqa ilm-fan yo'nalishlari ham kasbiy bilimlarni ifoda qilishda gormonlar roli haqida ko'p ehtiyojli ma'lumotlar toplaydilar. Bu ilm –fanlar gormonlarning maqsadli terapiyalar va jigar, yorug'lik, o'simlik, me'tabolizm va boshqa organ va sistemalarga yoshiqlar qilishdagi zararli ta'sirini tahlil qilishda ham ishlatilgan.

Gormonlarga oid kashfiyotlar nafaqat tibbiyot sohasida balki sport sohasida ham juda katta imkoniyatlar eshigini ochilishiga xizmat qiladi.

Dzyudochi mashg'uloti o'z ichiga organizmdagi gormonlarning faolyatini takidlashda muhim ahamiyatga ega. Gormonlar o'zlarining xususiyatlariga ko'ra turli organ va tizimlardagi jarayonlarga tasir qiladi. Dzyudochi jismoniy mashg'ulot davomida adrenalini, kortizol kabi stress gormonlarining tasiri ko'p.

Kortizol, adrenalini, testasteron kabi gormonlar stressga va dzyudochilarning musobaqa jarayonidagi kurashiga organizmning holatini va uning yuklama tasiridagi bosimga javob reaksiyasi hisoblanadi. Bu gormonlar yurak urish tezligini oshiradi, qon bosimini va gulikoza darajasini oshiradi.

Dzyudochilarni musobaqa paytidagi stress paytida tana portlovchi kuch sifatida tasir qiladi. Yosh dzyudochilar o'smirlik davrida gormonlar ishlab chiqarishdagi har qanday anormalik tasir ko'rsatish mumkin. Masalan semirish ikkinchi toifali diabet, qalqonsimon bezning disfunktsiyasi kabi mitobolik kasaliklarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun yosh dzyudochilar organizmidagi gormonlarining to'g'ri ishlashini taminlash va sog'lom mitobolizmni rivojlantirish mashg'ulot jarayonlarini to'g'ri yulga quyish, to'g'ri ovqatlanish, to'g'ri yuklama qabul qilish juda muhimdir.

Gormonlar dzyudochilar organizmiga tasirga qarab har xil turlarga bo'linadi. Jismoniy tayyorgarlik – sportchilarning jismoniy tayyorgarligining natijasi bo'lib, jismoniy si-

fatlarni rivojlantirish, harakat ko'nikma va malakalarini egallash uchun maqsadli tashkil etilgan pedagogik jarayondir. U bir-biri bilan murakkab va noaniq munosabatda bo'lgan kuch, chidamlilik, chaqqonlik (koordinatsion qobiliyat), egiluvchanlik, tezlik kabi asosiy sifatlarni mutanosib rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Demak, bu jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi insonning jismoniy tayyorgarligini belgilaydi.

Odatda jismoniy tayyorgarlikni baholash uchun jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasini aks ettiruvchi quyidagi oddiy hayotiy testlar qo'llaniladi:

tezlik (turli masofalarga yugurish);

kuch (turli holatlarda o'tirib turish, sakrashlar, press mashqlari);

egiluvchanlik (tanani harakat amplitudasini o'lchash uchun testlar);

chidamlilik (vaqtga sakrash);

koordinatsion qobiliyat (harakat muvofiqligini aniqlash uchun testlar).

Tadqiqotimizda qo'llanilgan jismoniy tayyorgarlik testlarining mazmuni

Mustaqil O'zbekiston tobora rivoj topib, taraqqiy etib bormoqda. Bunday rivojlanishni dunyo hamjamiyati tan olayotganligi barchamizni quvontirishi tabiiy, albatta. Erishilayotgan yutuqlar zamirida xalqimizning azal-azaldan shakllangan qadriyatlari, ma'naviy va axloqiy yuksalish borasidagi tajribasi, mehnatsevarligi, Vatanni sevishi kabi hislatlar mavjud. Biz azaliy qadriyatlarimiz, asrlar mobaynida farzand tarbiyasi borasida to'plangan tajribalarimizni asrabavaylashimiz, avloddan avlodga yetkazishimiz lozim. Shu bilan birga yoshlar tarbiyasida bugungi zamon talablariga mos yondashuvlarni amalga oshirishimiz, uning yangicha usullarini amaliyotga joriy qilishimiz o'rinli bo'lar edi. Yoshlar tarbiyasi har doim dozarb va muhim vazifalardan hisoblanib kelaveradi.

Xulosa o'rni shuni aytish kerakki, o'quvchi-yoshlar tarbiyasida kurash sport turining o'rni yuqori darajada ekanligini yana bir bor ta'kidlash kerak. Kurash sportida o'quvchi-yoshlarni har tomonlama tarbiyalash, ularni jaxon arenalaridagi yuqori natijalarga olib chiqishda, ota-onalar va murabbiylarning o'rni, mas'uliyati juda xam katta.

Xulosa. Ilmiy-metodik adabiyotlardan sportchilarning jismoniy tarbiya jarayonlarida ovqatlanish xususiyatlari haqida ma'lumotlar o'rganildi. Kuzatishning pedagogik usuli uchun anketalar ishlab chiqildi. Jismoniy tarbiya davrida yosh sportchilarning sutkalik energiya sarfini jadval yordamida aniqlash usuli ishlab chiqildi. Sportchilarning ratsioniga asoslanib, kunlik oziq moddalarning kaloriya miqdorini hisoblash usuli ishlab chiqildi. Jismoniy faollikdan oldin va keyin xamda maxsus ovqatlanish davridagi sportchilarning funktsional xolati va biokimyoviy ko'rsatkichlar dinamikasi aniqlashning tibbiy-biologik tadqiqot usullari ishlab chiqildi. Usish garmoni (somatotrop) garmonlari yog', fosfor va kalsiy almashinuviga tasir etadi. Garmonlar hujayraning ginetik operatini stemullash, fermentlarni faollashtirish va fermentativ reaksiyalar tezligini o'zgartirish yuli bilan moddalar almashinuviga tasir kursatadi. Ular oqsilning tuzulishini belgilab beradigan information ribonuklion kislotalarning hosil bulishini kuchaytirib oqsillar biyosentiziga tasir etadi. Usish va jinsiy gormonlar organizmning o'sishini va balog'atga yitishini boshqaradi. Zarur paytda organizm imkoniyatlari goronlar ishtirokida safarbar qilinadi. Masalan xaf-xatar taxdid qilganda va shu munosabat bilan muskullarga zur kelganda adrenalin kuproq chiqib qondagi gulikozani ko'paytiradi. Yurak va miyaga qon borishini kuchaytiradi. Organizmga zararli tasir ortganda AKTG kuproq chiqadi.

Nerv gumoral va gormonal omillar tasir etib organizm barqaroqligini taminlaydi. Jismoniy tayyorgarlik – sportchilarning jismoniy tayyorgarligining natijasi bo'lib, jismoniy sifatlarni rivojlantirish, harakat ko'nikma va malakalarini egallash uchun maqsadli tashkil etilgan pedagogik jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrda PQ-4881-sonli "Kurash

milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

2. Jismoniy tarbiya va sportning yangi davr muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Vuxoro – 2013.

3. Борисова, О.Л. Состояние гуморального иммунитета, активация сосудистого эндотелия и агрегация тромбоцитов у спортсменов / О.Л. Борисова, А.Д. Викулов // Ярославский педагогический вестник. - 2011

4. Бурляева, Е.А. Питание спортсменов сложнокоординационных видов спорта / Е.А. Бурляева, Никитюк Д.Б. // Спортивная медицина: наука и практика. - 2017

5. Быстрыков, В.П., Влияние приема бад "новитас-н" на биохимические показатели крови спортсменов, занимающихся бодибилдингом / В.П. Быстрыков, С.П. Язев // Веснік віцебскага дзяржаўнага ўніверсітэта. - 2015.

6. Ветрова, О.В. Использование L-карнитина в специализированных пищевых продуктах для питания спортсменов / О.В. Ветрова, А.В. Истомин // Вопросы питания. – 2015

7. Витаминно-минеральная коррекция рациона питания спортсменов / Семенова Н.В., Ляпин В.А., Василевская Е.С. [и др.] // Педагогико-психологические 148 и медико-биологические проблемы физической культуры и спорта. - 2017

8. Витаминно-минеральный статус спортсменов-гребцов в период тренировочно-соревновательного цикла / Р.С. Рахманов, Л.В. Кузнецова, Т.В. Блинова [и др.] // Вопросы питания. - 2013.

9. Влияние окружающей среды на клеточный и гуморальный иммунитет у спортсменов / Л.С. Сашенков, И.Л. Пылаева, В.А. Колупаев [и др.] // Гигиена и санитария. - 2012.



ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОНЯТИЕ РИСКА В ОБРАЗОВАНИИ

Арипджанова Альфия Равильевна

Доктор философии педагогических наук (PhD)

Филиал Российского государственного педагогического университета имени А.И. Герцена

Аннотация: в статье раскрыто понятие риска в образовании включающее в себя различные аспекты, такие как финансовые потери, потерю качества образования, ухудшение репутации учебного заведения и негативные последствия в процессе обучения и воспитания возможность возникновения негативных событий или обстоятельств, которые могут препятствовать достижению целей учебного заведения.

Ключевые слова: риск в образовании, качество в образовании, технологические инновации, неопределенность, управления рисками, информационная безопасность.

ТАЪЛИМДА ХАВФ ТУШУНЧАСИНИНГ ПЕДАГОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Арипжанова Альфия Равильевна

Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

А.И.Герцен номидаги

Россия давлат педагогика университети филиали

Аннотация: мақолада таълимдаги хавф тушунчаси очиб берилган бўлиб, у молиявий йўқотишлар, таълим сифатини йўқотиш, таълим муассасаси обрўсининг ёмонлашиши ва таълим ва таълим жараёнидаги салбий оқибатлар каби турли жihatларни ўз ичига олади. таълим муассасасининг мақсадларига эришишга тўсқинлик қилиши мумкин бўлган салбий ҳодисалар ёки ҳолатлар.

Калит сўзлар: таълимдаги хавф, таълимдаги сифат, технологик янгиликлар, ноаниқлик, хатарларни бошқариш, ахборот хавфсизлиги.

PEDAGOGICAL FEATURES THE CONCEPT OF RISK IN EDUCATION

Aripdzhanova Alfiya Ravilievna

Doctor of Philosophy in Education (PhD)

Named after A.I. Herzen

Branch of the Russian State Pedagogical University

Abstract: the concept of risk in education is disclosed, which includes various aspects such as financial losses, loss of quality of education, deterioration of the reputation of an educational institution and negative consequences in the process of education and upbringing, the possibility of negative events or circumstances that may hinder the achievement of the goals of an educational institution.

Key words: risk in education, quality in education, technological innovation, uncertainty, risk management, information security.

Понятие риска в образовании часто связано с вероятностью возникновения негативных последствий в процессе обучения или воспитания. Научное обоснование этого понятия включает в себя несколько аспектов. Во-первых, риск в образовании рассматривается как часть общей концепции риска в психологии и социологии. Согласно этому подходу, риск в образовании связан с неопределенностью и возможностью негативных исходов, таких как неудачи в учебе, отсрочка в обучении.

Образовательные инвестиции, как и любые другие, не гарантируют положительного результата, и есть риск потери времени и ресурсов. Также, риск в образовании может быть связан с социальными аспектами. Таким образом, научное обоснование понятия риска в образовании включает в себя психологические, социологические и экономические аспекты, отражая сложность и многообразие факторов, влияющих на образовательные процессы [1].

